



ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

ISSN: (E) 2181-1784

Exact sciences

Natural sciences

Engineering sciences

Pedagogical sciences

Social and Human sciences

Philological sciences

Philosophy sciences

Economic sciences

VOLUME 4
№07
2024





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOL. 4 / ISSUE 7
ISSN 2181-1784**

**July
2024**

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

EDITOR-IN-CHIEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of “Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

EDITORIAL BOARD

DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA

Doctor of Philosophy,
Head of the Department “Philosophy and
National idea” of Tashkent State Technical
University

PhD. LAZIZ A. TURAEV

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical
Sciences, Head of the Department for the
organization of research activities of students of
TSUOS

**Dr. KHOLMUMINOV JAFAR
MUHAMMADIEVICH**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)
Professor of the department of "Source Studies
and Hermeneutics of Sufism" of Tashkent State
University of Oriental Studies. Professor at the
Antique World International Academy of
Sciences

PhD. FARHOD L. USMONOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical
Sciences, Senior lecturer of the Department of
Social Humanities of Tashkent State University of
Economics

Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV

Candidate of Economic Sciences
Associate professor of Karshi Institute of
Engineering and Economics

Prof. Dr. ULFATKHON MUHIBOVA

Doctor of Philological Sciences
Head of the department of South and Southeast
Asian Languages of Tashkent State University of
Oriental Studies

Prof. Dr. SULTON F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Head of the department of Electricity Supply of
Tashkent State University of Transport

Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Head of the Department of Uzbek Linguistics of
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences Associate
professor of the department of Pedagogy and
Psychology of Tashkent State University of
Oriental Studies

Dr. IMAM K. WAHYUDI

Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Head of Office of International Affairs and
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia

Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in economics
Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

Dr. ALISHER N. NAZAROV

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. ERKIN A. RAKHMATOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

Dr. PHOOL BADAN

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. METIN ORBAY

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA

Candidate of Philosophical Sciences
Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. K.K. KHAKBERDIEV

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics
Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

PhD. CHJAN KONG

School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

Dr. NAUMENKO A. OLEG

Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

“ҚУТАДҒУ БИЛИГ” АСАРИДА ИЖТИМОЙ БОРЛИҚ МАСАЛАЛАРИ

Асрор Муҳамедов

Фаласфа фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Ижтимоий фанлар факультети декани

Алфраганус университети

<https://orcid.org/0009-0007-9499-5828>

АННОТАЦИЯ

Юсуф Хос Ҳожиб фалсафий меросида ижтимоий муаммолар ва уларни оқилона ҳал қилишга қаратилган қатор фикрлар мавжуд. Аллома ўз давридаги мавжуд воқеликка теран нигоҳ билан қарайди ва маълум бир маънодаги ўзининг концепциясини ишлаб чиқади. Жамиятдаги ижтимоий муаммоларни англаш учун аввало, инсонларнинг тушунмиш кераклигини такидлайди.

***Калит сўзлар:** Юсуф Хос Ҳожиб, давлат, фалсафа, жамият, адолат, инсон қадри, борлиқ, билиш.*

ABSTRACT

The philosophical heritage of Yusuf Khos Hajib contains a number of ideas aimed at solving social problems and their rational solution. Alloma looks deeply at the existing reality of his time and, in a certain sense, develops his own concept. He emphasizes that in order to understand social problems in a society, one must first understand the people.

***Key words:** Yusuf Khos Hajib, state, philosophy, society, justice, human values, existence, knowledge.*

КИРИШ

Юсуф Хос Ҳожибнинг ижтимоий фалсафий концепциясида уйғунлик ва муроса ётади. Унинг ҳозирги замон файласуфларига ҳам, адибларига ҳам, табибларига ҳам, олим ва фозилларига ҳам, чорвадорларига ҳам, деҳқонлари-ю хунармандларига ҳам, муаллиму мураббийларига ҳам, астроному математикларига ҳам, хуллас, барча-барчага айтадиган гапи бор. Файласуф олим Абдуқодир Зоҳидий ижтимоий борлиқнинг уйғунлаштириб турувчи, барча элементларни бирлаштириб турган субстрат масаласида шундай ёзади: “Борлиқнинг бирдан-бир масъули, кудратли субъекти, субстрати – одам, жамият, давлат бўлиб, уларнинг олий мужассами ҳоқон – элигдир. Элиг дунёни, одамлар, жамият, давлатни тузувчи, қурувчи, қонун берувчи, эзгу, юксак мақсадлар, нишонларга, бахт-саодат, фаровонликка йўналтирувчи куч-қудрат

соҳибидир”¹. Юсуф Хос Ҳожибнинг ўз даври учун анча прогрессив бўлган фикрлар – инсон қадри масаласининг устувор қўйилгани ва ушбу кадриятнинг детерминантлиги масаласи бўйича концептуал фикрлар илгари сурилгани билан ҳам ҳозирги кунда кадрлидир.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Замонавий фалсафий, сиёсий ва ҳуқуқий концепцияларда инсон ҳуқуқ ва эркинликлари масаласи тобора чуқурлашиб бормоқда. Ўзбекистонда ҳам инсон қадри миллий ғоя даражасига кўтарилиб, бутун давлат бошқаруви тизими инсон манфаатлари учун йўналтирилмоқда. Жумладан, мазкур масалага тўхталган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев шундай деган эди: “Албатта, инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас. Инсон қадри деганда, биз, аввало, ҳар бир фуқаронинг тинч ва хавфсиз ҳаёт кечиришини, унинг фундаментал ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашни назарда тутамиз.

Инсон қадри деганда, биз ҳар бир фуқаро учун муносиб турмуш шароити ва замонавий инфратузилма ташкил этишни, малакали тиббий хизмат кўрсатиш, сифатли таълим, ижтимоий ҳимоя тизими, соғлом экологик муҳит яратиш беришни тушунамиз. Бу мақсадга эришиш учун эса дунёдаги ноёб демократик тузилма бўлган маҳалла институтининг катта имкониятларидан самарали фойдаланиш, унинг ваколатларини янада кенгайтириш, пировард натижада маҳаллани жамиятимизнинг ҳал қилувчи бўғинига айлантириш вазифасини ўз олдимизга қўймоқдамиз”².

Давлатимиз раҳбари томонидан ишлаб чиқилган концептуал ёндашув бундан минг йиллар авлод-аждодларимиз томонидан ижод қилинган инсон қадрини улуғлаш ғояларига ҳамоҳангдир. Бу эса Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотларнинг чуқур фалсафий моҳияти, буюк алломаларимизнинг маънавий меросига таянишини кўрсатиб беради. Шу билан биргаликда бутун янгилик сифатида майдонга чиқаётган ғоя ва ёндашувлар аслида буюк бобокалонларимиз томонидан яратилган асарларда қайд этилгани, бу эса миллий маънавий меросимизни чуқур ўрганиш орқали ижтимоий тараққиётга ижобий таъсир кўрсатишимиз мумкинлигини намоён қилмоқда.

У ўз даврининг етук файласуфи, олими, фозили, давлат арбоби, фан ва маданият ҳомийси, ҳаётнинг энг майда икир-чикирларидан тортиб осмон жисмларининг сирларигача тушуниб етган баркамол киши эди. Албатта, унинг

¹ А.Зоҳидий. Юсуф Хос Ҳожиб давлатчилик фалсафий таълимотининг негизлари.// Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу Билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020 йил. – Б. 154.

² <https://xs.uz/uzkr/post/inson-qadri-biz-uchun-qandajdir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident> - «Инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас» — Президент

дунёқараши, фаннинг турли соҳаларидаги тушунчаси, ҳаётни билиши ўша давр ижтимоий тузум шарт-шароитлари билан чегараланган эди.

Мутафаккирнинг гносеологик назарияси объектив идеализмга асосланган бўлиб, билим зеҳннинг маҳсули сифатида талқин қилинади, ақл, идрок бирламчи, билим эса унга боғлиқ, иккиламчи ҳодиса сифатида қаралади. Шунинг учун ҳам инсон билимсиз туғилади, сўнг ўрланади. Зеҳн эса табиатга қўшилиб яратилади, уни инсон ўрганмайди, у азалдан инсон табиатига сингдирилган бўлади, билиш, ўрганиш қобилиятининг туб илоҳий асоси саналади³. Дунё миқёсида маънавий ҳаёт ҳам барча жабҳалар каби турли қарама-қаршиликлар генерация ва дегенерация даврларини бошдан ўтказди. Маълум бир босқичда маънавий ҳаётда умуман янги ғоялар кириб келиб эскиларини яқсон қилса, маълум бир даврда ана шу эски мафкуралар тикланади. Мустақиллик шарофати билан Ўзбекистонда миллий ва диний қадриятлар қайта тикланиши кузатилди. Айниқса, диний идентификация қилиш жараёни шиддат билан амалга ошди. Ўтган қисқа давр ичида ҳам диний соҳадаги ривожланиш турғунлик даврлари билан кечган бўлса-да, ўтган йиллар давомидаги ўзгаришларнинг энг ёрқини диний ўзликни англаш билан боғлиқ равишда намоён бўлмоқда. Юсуф Хос Ҳожиб диний қарашлари бугунги шароитда ижтимоий тараққиёт ва диний ўзликни англашни уйғунлаштириши мумкин. Унинг объектив идеализмининг концепцияси моҳиятан дунёнинг асосини инсон онгидан ташқарида ва унга боғлиқ бўлмаган ҳолда ғайритабиий руҳий ибтидо (Аллоҳ) бошқаради, деб ҳисоблайди. Фалсафий фанлар тараққиёти давомида Афлотун, Платон, Прокл, кейинчалик Лейбниц, Шеллинг ва Гегеллар объектив идеализм концепциясини такомиллаштириб бордилар. Гегелнинг фикрича: “Фалсафанинг мундарижаси, унинг истаклари ва қизиқишлари дин билан айнандир, сўнгисининг предмети абадий ҳақиқат, худо ва унинг моҳиятидир. Фалсафа қачонки диннинг моҳиятини тушуна олгандагина, ўзининг моҳиятини тушуна олади. Шу билан бирга фалсафий жиҳатдан ўз-ўзини тушуниш, динни тушуниш ҳамдир”⁴. Шу билан биргаликда ижтимоий муносабатларда давлатнинг ўрни ҳам мавжуддир. Чунки “Давлат инсонларнинг ҳуқуқий мажбуриятларини белгиласа, дин уларнинг ички дунёси қоидаларини белгилайди. Ўз-ўзидан кўриниб турибдики, дин ҳукмронлик қилиши керак эмас”⁵. Шу билан биргаликда ҳар бир сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий жараён ва ҳодисаларни илоҳийлаштириш, улардан

³ Каримов Қ. Илк бадиий дoston. – Т., 1976.

⁴ Hegel G. W. F. *Sämtliche Werke*. Hrsg. von G. Lasson. Leipzig, 1911 ff. 29.

⁵ М.Ф.Овсянников. Гегель. “Мысл”. – Москва. 1971. – С. 193-194

қандайдир диний атрибутлар излаш, жамият ҳаётидаги объектив тараққиёт қонунларини рад этишга уриниш мамлакат тараққиётининг кушандасидир.

Ўзбекистоннинг маънавий ривожланиш босқичида диний асосларга кўра қарама-қаршилик келтириб чиқариш ҳолатлари учраб турибди. Жумладан, диндорлар томонидан бошқа дин вакиллари, айниқса диний эътиқодга эга бўлмаган жамият аъзоларини қистовга олиш ҳолатлари учраб турибди. Бу каби салбий ҳолатларнинг олди олинмаса келгусида катта ижтимоий ларзалар юзага келиши мумкин. Шу сабабли ҳам диний масалаларга ҳам дунёвий илм нуқтаи назаридан ёндашув зарур бўлиб қолмоқда.

Мутафаккирнинг худо ҳақидаги тасаввури тасаввуф таълимотига асосланган. Табиатда мавжуд жамийки нарсалар воҳид худодан, унинг белгисидан далолат беради, ҳамма нарсаларни у яратган ва ҳар бир яратган нарсасининг ўзига хос белгилари мавжуд, у олддан ҳам, ортдан ҳам, остдан ҳам, устдан ҳам, сўлдан ҳам, ўнгдан ҳам эмас, у ҳам азал, ҳам охир. Шунингдек, ўринни у яратган, унинг ўрни ҳам йўқ, усиз ўрин ҳам йўқ.

Унинг бу пантеистик таълимотига кўра, худо бутун табиатга сингиб кетган бўлиб, табиатдан ташқари қандайдир рухий қудрат мавжудлиги ҳақидаги ўта идеалистик қарашга нисбатан бироз илғорроқ.

Исломнинг Марказий Осиёда мустаҳкамланган бир даврда ёзилган Юсуф Хос Ҳожибнинг асарида теизм руҳи равшан кўриниб туради. У Оллоҳни эътироф қилиш ва дин, шариат йўлини бир дам унутмасликка тарғиб қилади. Лекин дунёвий, ҳаётий масалаларда, ҳаёт учун кураш масалаларида динга муте бўлиб қолмасликка, дунёвий тадбирларни диний эътиқодга қурбон қилиб юбормасликка чақиради. Диннинг ўзи ҳам дунёдан воз кечишни тарғиб қилмайди, оламдан юз ўгириб тарки дунё қилиш бетайинлик, унда дунё бир бўш нарса бўлиб қолади. Дунё неъматларидан воз кечмаслик, ундан баҳраманд бўлиш ва бошқаларни ҳам баҳраманд этиш лозим, қуруқ тоат-ибодат қилиш билан Оллоҳ қарамига эришиб бўлмайди, деб ҳисоблайди. Энг аввал тўғри, адолатли, инсофли бўлиш, билим ва заковатга тинмай интилиш керак, деган таълимотни изчиллик билан илгари суради:

Олам халқи қишлоқ, шаҳарни қўйиб,
Туриб тоққа чиқса оғир юк чекиб.
Бузулгай олам, барча қолгай қуруқ,
Одам боласидан кесилгай уруғ.⁶

Юсуф Хос Ҳожибнинг жамият ҳақидаги қарашлари ҳам диққатга сазовор. У бу масалада Форобий, Ибн Сино фикрларига қўшилмаган, яъни,

⁶ Каримов Қ. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг”. – Т.: Фан, 1971.

у жамиятда ҳамма табақаларни баробар бўлиши мумкин, деган ғояга қарши чиққан. Унинг фикрича, жамиятда ҳар бир табақа ўз вазифасини сидкидилдан бажарса, ўшандагина жамият гуллаб – яшнайти. Юсуф Хос Ҳожиб бу борада субстанционал концепция тарафдори бўлган. Яъни инсоннинг ижтимоий сифатлари туғма ҳарактерга эга бўлиб, унинг умри давомида ўзгармайди. Бу ғояни фалсафа фанлари номзоди А.Зоҳидов ҳам ёқлайди.

Аллома жамият аъзоларининг барчасини дўстликка, деҳқонларга, чорвадорларга, хунармандларга ҳурмат билан муносабатда бўлишга чақиради, чунки улар одамларни едириб, кийдирадлар, деб тушунтиради. Юсуф Хос Ҳожиб инсонпарвар сифатида хон ва бекларнинг золим ҳукмронлигини, халқни эзиб, уларга зулм ўтказишини, инсон ҳуқуқларини топтаб, камситишларини танқид қилади. У бойларни камбағалларга нисбатан мурувватли бўлишга, хайр-эҳсон қилишга чақиради. Жамиятдаги тенгсизлик ва адоватни кўриб, уларни ўзаро бирлаштиришга, маънан ва идрокан яқинлаштиришга интилади.

Унинг тахминича, табақалар ва синфлар ўртасидаги тенгсизлик, давлат бошқаруви инсонпарварлик йўлига ўтса, ижтимоий адолат қарор топсагина барҳам топиши мумкин. Давлат бошқарувидаги масалаларни ҳукмдор одилона ҳал этса, дoston қаҳрамони Кунтуғди сингари бой ва бекларга ажратмай, уларга бир хилда қараб, одилона иш юритишини истайди. Давлат ҳукмдори қонунларга таянган ҳолда одилона давлатни бошқарса – идеал давлат бўлади, деб таъкидлайди. Одил ҳукмрон ўқимишли, ақл-заковатли, тафаккурли ва ҳар томонлама етук бўлиши, давлат бошқарувида фан янгиликларига таяниши кераклиги ҳақида фикр юритади. Бу ғоя Форобийнинг фалсафий қарашларида ҳам мавжуд.

Бу асар биринчи навбатда ҳукмдор табақага, бекларга, зодагонларга мўлжалланган ва ўшаларга тўғри йўлни кўрсатиш мақсад қилинган эди.

Адиб асарининг фалсафий қиммати юқори бўлиб, ундаги ҳар бир қирра, воқеалардаги ҳаётийлик ва аллома орзу-умидлари билан ўзаро уйғунлашиб кетган. Унинг жуда кўп байтлари ҳикматли сўз маълум бир ижтимоий воқеъликни лўнда ва қиса қилиб тушунтириб бера олиш даражасига кўтарилган.

Алломани ҳаёт мазмуни ва инсоннинг абадийлиги муаммолари қизиқтириб келган. Унинг фикрича, ҳар бир инсон жамият олдидаги ўз бурчини бажариши ва ўзидан кейин яхши ном қолдириши керак. Бу дунёда ҳамма нарса унутилади, фақатгина савоб иш ва ақли сўз ўлмайди.

Адиб инсонларнинг маънавий тарбияси ва ижтимоий роли ҳақида фикр юритади. Фикрларининг марказий қисмида ёшларнинг тарбиясига оид ғоялар, халқ манфаатларини кўзловчи, давлатга содиқ кишилар ҳақидаги фикрлар ўрин олган.

Шу билан бир қаторда, Юсуф Хос Ҳожиб шахсининг оилавий тарбиясига ҳам алоҳида эътибор беради. Ота-оналар фарзандларига нисбатан талабчан бўлишлари, тақлид учун муносиб, намунали фазилат эгаси бўлмоқлари лозим деб тарбиясиз фарзанд – фалокат, бу фалокат нафақат ўзи учун, балки ота-оналари учун ҳамдир, деб айтган эди.

Идеал шахс, жамият, давлат қандай шаклланиши керак? Идеал шахс фазилатлари қандай бўлиши, бу фазилатга қандай қилиб эришиш керак? Мансаб соҳибларининг хусусий, шахсий ҳаёти, жамият ва давлат манфаатларига муносабати қай тартибда бўлиши шарт? Мутафаккир ана шу муҳим масалаларнинг фалсафий системасини яратди. У идеал шахсни, яъни, комил инсонни тугал эр, деб атади. Унинг бу ғоясини Конфуцийнинг баркамол инсон ҳақидаги қарашларига қиёслаш мумкин.

Юсуф Хос Ҳожиб ўз замонасининг донишманди, турли илмларидан баҳс юритишга қодир олим ва фозил кишиси, илғор фикрли файласуфи эди. Шунинг учун ҳам у ўз асарида илм-фан, билим-заковат, маърифат тарғиботчиси, ҳомийси сифатида намоён бўлади. Асарда илмга, маърифатга, билим ва заковатга алоҳида боблар бағишланган. Булардан ташқари, адиб асарнинг сиёсий, ижтимоий, ахлоқий масалаларга, турли табақалар тавсифига ва бошқа қатор мавзуларга бағишланган бобларида илм ва маърифатни, билим ва заковатни, илғор маърифий-илмий қарашларни оғишмай тарғиб қилади, кишиларни тинмай илм олишга, бу илмни амалда татбиқ қилишга ундайди. Дунёдаги жами эзгу ишлар билим туфайли бўлади, билим орқали ҳатто кўкка учиш учун ҳам йўл топилади, дейди мутафаккир:

Жами эзгу ишлар билим нафидур,
Билим ҳатто осмон сари йўл очур⁷.

Дунёда одам пайдо бўлгандан то ҳозиргача билимли ва заковатлиларнинг эзгу ва одил сиёсат юритиб келганлиги, билим ва заковат туфайлигина кишилар орасидаги ярамас ишлар яхшиланганлиги, бузуқликлар, ифлосликлар тузатилганлиги ва покланганлиги ҳақида гапириб, ҳукмдорларни илм ва заковатни асос қилиб олган ҳолда давлатни идора қилишга, элни бошқаришга чақиради. Чунки эл ва юртни идора

⁷ Каримов Қ. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг”. – Т., 1971.

қилишда илм ва заковат қўл келади, ақл, илм ва заковат кўзи билан бошқарилган эл-юрт ҳамиша гуллаб яшнайти. Шунинг учун ҳукмдор илмли ва заковатли бўлиши керак. Шундагина у тугал ва етук киши бўла олади.

Кишилар ўртасидаги ўзаро муомала-муносабат, жамият аъзолари ўртасидаги алоқанинг энг асосий омилларидан бири, зарурий шарт ҳисобланган ўзаро ҳурмат, эҳтиромнинг элементар кўринишидан тортиб энг олий кўринишигача бўлган барча масалалар мажмуи «Қутадғу билиг» асарининг асосий мавзуларидан бирини ташкил қилади. Улуғларнинг кичикларга, кичикларнинг улуғларга, амалдор, мансабдорларнинг ўз қўл остидаги кишиларга, бу кишиларнинг ўз хўжалари, соҳибларига, турли ижтимоий гуруҳларнинг, табақаларнинг бир-бирларига, фарзандларнинг ўз ота-оналарига, ота-оналарнинг ўз фарзандлари ва қарамоғидаги бошқаларга нисбатан бўладиган ҳурмат масалалари Юсуф Хос Ҳожибнинг диққат марказида туради. Оила ва жамият ҳаётида, давлат ишларида ўзаро ҳурмат ва эҳтиром асосий шарт эканлигини оғишмай тарғиб қилар экан, файласуф бу масаланинг энг нозик томонларини ҳаётий ва энг жонли мисолларга асосланган ҳолда талқин қилади ҳамда кишиларни ўзаро ҳурмат-эҳтиромли бўлишга даъват этади.

Ҳурмат ва эҳтиром шундай бир нарсаки, унга бирдан эришиб бўлмайди, уни аввал бошдан тарбиялаш, фарзанд туғилар экан, ёшлигидан бошлаб бериладиган тарбияни тўғри йўлга қўйиш, ахлоқ ва одобнинг барча қоидаларига оғишмай амал қилиш керак бўлади.

Адиб бу асарида инсон фақат жамиятда, бошқа кишилар билан мулоқотда ва фойдали меҳнатда чинакам камолга етади, деган ғояни илгари суради. Инсон билан билимни ажратиб бўлмайди, фақат билимли кишигина камол топиши мумкинлигини уқтиради:

Олим одам - қимматбаҳо динордир,

Нодон, жоҳил одам - қимматсиз сохта пулдир⁸.

Кишиларни фақат яхши одамлардангина дўст орттиришни маслаҳат беради. Фақат яхши ишлар қилибгина яхши натижалар кутиш мумкин, чунки “... тикан экиб ҳосилига узум олмайсан” деб айтади.

Юсуф Хос Ҳожибнинг фалсафасида кўрганимиздек, унинг ҳаётга қарашида ҳам зиддиятлар мавжуд. Албатта, бу зиддиятлар табиий заминга эга бўлиб, ўз даврининг ижтимоий тузум шароитлари, турли ижтимоий табақалар орасида ҳукм сурган кайфиятлар тўқнашуви заминида юзага келган эди. «Қутадғу билиг»да икки кайфият: тушкунлик, аскетизм,

⁸ Наринбаев А. Философские взгляд Юсуф Баласагунский.

таркидунёчилик кайфияти билан кўтаринкилик, ҳаётга, келажакка ишонч кайфиятлари ўртасида кураш боради. Бу курашда кўтаринкилик, ҳаётга ишонч билан қараш кайфияти устун келади.

Юсуф Хос Ҳожиб ҳар иккала кайфият ўртасидаги курашни баён қилар экан, доим бу баҳсларни кўтаринкилик кайфиятининг устунлиги, ғолиб келиши ғоясини таъминлашга интилади.

Юсуф Хос Ҳожиб ўз даврининг етук файласуфи бўлган. У ўзининг “Қутадғу билиг” асарида дунёнинг тузилиши ва коинотнинг ҳаракати ҳақида чуқур илмий фикрлар баён этади. Бу фикрлар “Қутадғу билиг”нинг “Етти юлдуз ва ўн икки бурж” (Етти кавокиб ва ўн икки бурж⁹) бўлимида ўз ифодасини топган. У Оллоҳни эътироф қилиш ва дин, шариат йўлини бир дам унутмасликка тарғиб қилади. Тарки дунёчиликни қоралайди. Унинг фикрича, тарки дунёчиликда дунё бир бўш нарса бўлиб қолади, дунё неъматларидан воз кечмаслик, ундан баҳраманд бўлиш ва бошқаларни ҳам баҳраманд қилиш лозим, деган таълимотни изчиллик билан илгари суради. Юсуф Хос Ҳожибнинг дунё ва унинг тузилиши ҳақидаги ғоялари ва тасаввурларида илмий фикрлар келтирилади. Асар давомида дунёнинг айблари, унинг камчилик томонлари ҳам қаҳрамонлар иштирокида талқин этилади.

Тадқиқотчи таъкидлаганидек: “Биз бу тарихий асарни ўқир экансиз, асар қаҳрамонларининг ўзаро мубоҳасаси, суҳбатлари орқали яхшилик ва ёмонлик, самимийлик, эзгулик ва жаҳолатни ажратиш, Шарқнинг ўзига хос кучли демократик жамиятининг қурилиши ва тараққий этганини тушуниб етгандек бўламиз”¹⁰. Бу эса асарнинг ижтимоий-фалсафий моҳиятини тушунишга ва англаб етишга бўлган қизиқишни янада кучайтиради ҳамда мавжуд муаммоларни ҳал қилишда асарга таянишга ундайверади.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, Юсуф Хос Ҳожибнинг жамият ҳақидаги фикрлари диққатга сазавордир. Чунки у жамият ҳақидаги қарашларида Форобий ва Ибн Синолар изидан бормади. Бунга у бу асарни ҳукмдорлар учун ёзганлиги сабаб бўлган бўлиши мумкин. Лекин бир нарса аниқки, унинг ҳар бир мисраси жамият учун фойда келтириш мақсадида ёзилган.

⁹ Содиков Қ. Қадимги турк фалсафаси. – Т., 2008.

¹⁰ Ш.Ҳошимов. “Қутадғу билиг”нинг ҳозирги кун жаҳон давлатчилигида юзага келадиган ижтимоий муаммоларни баргараф этишдаги ўрни. Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу билиг” ва уни ўрганишининг долзарб масалалари. Халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 72.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. А.Зоҳидий. Юсуф Хос Ҳожиб давлатчилик фалсафий таълимотининг негизлари.// Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу Билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020 йил. – Б. 154.
2. <https://xs.uz/uzkr/post/inson-qadri-biz-uchun-qandajdir-mavhum-balandparvoztushuncha-emas-prezident> - «Инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас» — Президент
3. Каримов Қ. Илк бадийи дoston. – Т., 1976.
4. Hegel G. W. F. Sämtliche Werke. Hrsg. von G. Lasson. Leipzig, 1911 ff. 29.
5. М.Ф.Овсянников. Гегель. “Мысл”. – Москва. 1971. – С. 193-194
6. Каримов Қ. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг”. – Т.: Фан, 1971.
7. Каримов Қ. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг”. – Т., 1971.
8. Наринбаев А. Философские взгляд Юсуф Баласагунский.
9. Содиков Қ. Қадимги турк фалсафаси. – Т., 2008.
10. Ш.Ҳошимов. “Қутадғу билиг”нинг ҳозирги кун жаҳон давлатчилигида юзага келаётган ижтимоий муаммоларни бартараф этишдаги ўрни. Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари. Халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 72.
12. Muhamedov A. (2023) Қутадғу билигда билимдан тўғри фойдаланиш масалалари . Шарқ фалсафаси. Илмий-услубий журнал. 7-сон. 39-42 б.
13. Muhamedov A. Michel Montaigne is a renaissance creative. Necmettin Erbakan University Press (NEU PRESS) Yaka Mah. Yeni Meram Cad. Kasım Halife Sok. B Blok No: 11 Meram / KONYA / TÜRKİYE 0332 221 0 575 - www.neupress.org
14. Muhamedov A. (2024) Sharq Renessansining vujudga kelishidagi ijtimoiy omillar. "Экономика и социум" №2(117)
15. Muhamedov A. (2023) Маънавий тараққиётнинг ҳозирги босқичида юсуф Хос Ҳожиб маънавий меросига эҳтиёж. Тафаккур манзиллари. Илмий-услубий журнал. 7-сон. 78-82.
16. Muhamedov A. (2022) Юсуф хос Ҳожибнинг ижтимоий адолат ҳақидаги қарашлари. // International Conference on Developments in Education. – Bursa, Turkey.
17. Muhamedov A. (2022) Учинчи Реннесанс пойдеворини яратишда Юсуф Хос Ҳожиб фалсафий меросининг ўрни. “Фан, таълим ва ишлаб чиқариш муаммоларининг инновацион ечимлари” номли илмий конференция материаллари. – Тошкент.

18. Muhamedov A. (2009) “Ахлоқий тафаккур тарихида “Қутадғу билиг” асарининг тутган ўрни”. “Шарқ фалсафаси қадриятлари ва уларнинг Ўзбекистон маънавий ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси, Тошкент

ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li

FarPI, Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

mutaxassisligi magistranti

Elektron pochta: lionslar9233@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ichki audit xizmati nafaqat global tendentsiya, balki faol rivojlanayotgan va murakkab iqtisodiy munosabatlar sharoitida o‘ta zaruratdir. Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda ichki auditning asosiy muammolarini aniqlashdan iborat. Ichki auditning to‘g‘riligi tushunchasi zamonaviy tashkilotlarning korporativ boshqaruvi sharoitida ichki auditni intizomiy mexanizm sifatida o‘rganish uchun kontseptual vositalarni taqdim etadi. Maqola iqtisodiy faoliyatning ratsionalligi va tegishli nazorat choralarini kuchaytirish uchun dastlabki kontseptual formulani va ichki auditni, auditni va nazoratni rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: *audit; ichki audit; rivojlanish; mexanizm.*

АННОТАЦИЯ

Служба внутреннего аудита - это не просто мировой тренд, а крайняя необходимость в условиях активно развивающихся и усложняющихся экономических отношений. Цель данной статьи - выявить основные проблемы внутреннего аудита в Узбекистане. Утверждается, что понятие корректности внутреннего аудита предоставляет концептуальные инструменты для изучения внутреннего аудита как дисциплинарного механизма в условиях корпоративного управления современных организаций. Статья развивает первоначальная концептуальная формулировка и внутренний аудит, аудиты и контроль для повышения рациональности экономической деятельности и связанных с этим мер контроля.

Ключевые слова: *аудит; внутренний аудит; разработка; механизм.*

ABSTRACT

The Internal Audit Service is not just a global trend, but an urgent need in the conditions of actively developing and increasingly complicated economic relations. The purpose of this article is to identify the main problems of internal audit in Uzbekistan. It is argued that the concept of internal audit correctness provides conceptual tools for studying internal audit as a disciplinary mechanism in the conditions of corporate governance of modern organizations. The article develops

the initial conceptual formulation and internal audit, audit and control to improve the rationality of economic activity and related control measures.

Keywords: *audit; internal audit; development; mechanism.*

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘lishning asosiy quroli bu ichki auditdir. Zamonaviy iqtisodiyotda muhim o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, ulardan biri korporatsiyada ilgari teng bo‘lmagan korxonalarini – yirik biznes sub’ektlarini mustahkamlash, turli tashkiliy-huquqiy shakllarga ega bo‘lgan aksiyadorlik kompaniyalari va yuridik shaxslarning integratsiyasini ifodalaydi. Konsolidatsiya arzon moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadida tezkor boshqaruv funksiyalarini aksiyadorlardan yollanma top-menejerlarga o‘tkazish, O‘zbekiston korporatsiyalarining jahon fond birjalariga chiqishi bilan birga olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi.


Bu jarayonlar O‘zbekiston korporatsiyalari faoliyati ustidan ichki nazoratni tashkil etishda muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishning boshqa talablarini ilgari suradi.

Ilmiy- tadqiqot metodlari

Korxonalar ichki auditi tizimining asosiy vazifasi –maxsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va tan narxini pasaytirish yo‘llarini izlab topishdir. Ichki auditor yana korxonaning mehnat unumdorligini va samaradorligini oshirish bo‘yicha maslaxatlar berishi kerak. Iqtisodiy tizimning buzilishini tekshirish ko‘p mehnat talab qiladigan auditdir. Bunda korxonada moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari o‘rganiladi. Ichki auditor korxonada u yoki bu rivojlanish yo‘nalishini ma‘qullashi yoki ma‘qullamasligi mumkin. Ichki audit maqsadi korxonada xodimlarining qonun hujjatlariga, me‘yoriy hujjatlarga va kasb faoliyati standartlariga rioya etishini nazorat qilish, tamonlar manfaatlari o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish, korxonada amalga oshirayotgan operatsiyalarning xususiyatlari va ko‘lamlariga mos ishonchlikni ta‘minlash xamda korxonada faoliyatidagi xatarlarni kamaytirish yo‘llaridan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki audit qonun va me‘yoriy hujjatlarga asosan tashkil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son

qaroriga, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo‘yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilash maqsadida «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom» qabul qilindi. Hozirgi kunda ushbu Nizom xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki auditni tashkil qilish tartibi ko‘rsatilgan me‘yoriy hujjat hisoblanadi.



1-chizma. Mikrodarajadagi nazorat tizimi¹¹

«Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom»ga muvofiq ichki audit xizmati xodimlari soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va uning vazifalarini hal etish uchun etarli bo‘lishi kerak. Ya’ni, ichki audit xizmati shtatida quyidagilar bo‘lishi kerak:

Ichki audit xizmatiga tegishli auditor sertifikatiga ega bo‘lgan uning rahbari boshchilik qiladi.

Har yili ichki audit xizmati rahbari ichki audit xizmati xarajatlarining yillik smetasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektning kuzatuvchi kengashiga taqdim etadi.

¹¹ Суйц В. Аудит. Учебник. – М.: “Высшее образование”, 2007 г. –398 стр.

Ichki audit xizmati xodimlarining kasb darajasi tegishli litsenziyaga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida muntazamlilik asosida ularning malakasini oshirish vositasida saqlanishi kerak.

Ichki audit xizmati xodimlari xo'jalik yurituvchi sub'ekt kuzatuvchi kengashi tomonidan har yili attestatsiyadan o'tkazilishi kerak.

Muhokamalar va xulosa

Xalqaro ichki auditorlarning professional standartida ichki auditga quyidagicha ta'rif beriladi, -“ichki audit – korxonanai moliya-xo'jalik faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish bilan bog'liq maslaxat xususiyatiga ega mustaqil va xolis faoliyatdir”.


Korxonalarda moliyaviy resurslarni nazoratini quyidagilar amalga oshiradilar, ya'ni ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi maxsus bo'lim, boshqaruv xodimlari va mutaxassislar, bosh buxgalter boshchiligadagi buxgalteriya xodimlari. Korxonalarda ushbu turdagi nazorat sub'ektlarining mavjudligi bir qancha muammolarga olib keladi.

Birinchidan, nazorat qiluvchi strukturalarning ko'pligi, ular orasidagi ayrim vaziflarni qaytarilishiga olib olib keladi, shu sababdan ular faoliyatlarini koordinatsiyalash lozim;

Ikkinchidan, ichki nazorat bo'limlarini mustaqilligini ta'minlash, ularning funktsiyalarini aniq belgilash hamda ichki hujjatlardagi axborotlar oqimini belgilash lozim.

Ushbu muammolarni xal etishda korxonalarda ichki audit funktsiyalarini yuqoridagi tashkiliy darajalarda taqsimlanishi lozim. Funktsiyalarni taqsimlash quyidagi tamiyillarga asoslanishi lozim:

1. Raxbariyat darajasidagi ma'lum masalalarni yuqori malakaga ega auditorlar ko'rishi, hamda turli bo'limlardagi auditorlarni rotatsiyasini amalga oshirilishi;
2. Auditorlarni ishtiroki shart bo'lmagan masalalarni yaxshi yo'lga qyilgan axborotlarni oqimi o'z vaqtida foydalanish orqali yuqori tashkiliy darajada xal etish;
3. Katta bo'limlarni tekshirish vaqtida yuqori malakaga ega auditorlar xizmatidan foydalanish lozim.



2-chizma korxonalarda nazoratni amalga oshiruvchi sub'ektlar¹².

Korxonalarda ichki audit xizmatini tashkil etishda ikkita muammoga duch kelinadi, ya'ni filiallar rahbarlari hamda ijroiya bo'limlari ustidan nazoratni o'rnatish yuzasidan; shu'ba korxonalarini boshqarish tizimini tashkil etish va ularni nazorati yuzasidan.

Bizning fikrimizcha korxonalarda ichki auditning asosiy funksiyalariga quyidagilarni kiritishimiz lozim:

- Nazorat funksiyasi:

- a. Moliyaviy resurslarni o'rganish, baholash va ichki nazorat tizimi samaradorligi monitoringini olib borish;
- b. Qonunchilikka rioya etilishi;
- c. Moliyaviy hisobotni tuzish va yuritish tartib qoidalariga rioya etilayotganligini;
- d. Soliq hisobi va hisoboti belgilangan me'yorlar asosida yuritilishi;
- e. Xolding miqyosida resurslarni shakllanishi, ishlatilishi, va xarakati to'g'risidagi qarorlarni to'g'ri qabul qilinganligin baholash;
- f. Tashqi auditorlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish.

¹² Chizma muallif tomonidan mustaqil tuzildi.

- Tahliliy axborot funktsiyasi:

a. korxonalarni resurslardan foydalanish darajasi xaqida kuzatuv kengashiga axborot berish;

b. Moliyaviy resurslar bo'yicha ishlab chiqilgan boshqaruv qarorlarini ekspertizalash;

c. Ichki mablag'lar oqimi va ularni manbalarini tahlil qilish;

d. Smeta va biznes rejalarni ishlab chiqish va tahlil qilishda ishtirok etish.

- Maslahat funktsiyasi:

a. Buxgalteriya hisobini yuritishni samarali metodologiyalarni

b. Soliqlar va yig'imlarni hisoblash metodologiyalarini ishlab chiqishda (tahlil qilishda) ishtirok etish;

c. Boshqaruv axborotlar tizimini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish;

d. Ichki audit vakolatiga doir bo'lgan masalalar yuzasidan bo'limlarga maslahatlar berish.

Ichki audit xizmati bo'limining ish faoliyatini samaradorligi uning oldiga qo'yilgan maqsad, vazifalar va funktsiyalarni qay darajada bajarganligiga qarab baholanadi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillarni amaliyotda qo'llash natijasida korxonalarda moliyaviy resurslarni shakllanishi, ularni ishlatish, hisobni to'g'ri tashkil etilganligini baxolashga hamda kapital tarkibini taxlil qilish imkoinini beradi. Ichki audit bo'limi har doim ham xo'jalik yurituvchi sub'ektga to'g'ri va aniq ma'lumotlarni o'lasligi va natijada noto'g'ri xulosa va takliflar berishi mumkin, chunki xolding kompaniyalarini moliyaviy hisoboti ma'lum davrga etarli ma'lumotlarni o'zida aks ettirmasligi mumkin.

Ichki audit xizmati xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobotini tahlil etadi, kelgusi rivojlanish yo'nalishini aniqlaydi va rahbariyatga qaror qabul qilishga yordam beradi. Umuman, ichki audit natijalari xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichidagi boshqaruvning takomillashuviga ta'siri kattadir.

Respublikamizda ichki auditning shakllanishi uchun qonunchilik bazasini takomillashtirilishi hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarning pishiq-puxtaligiga va ularni amaliyotga tatbiq eta olinishiga erishish lozim.

Bizningcha, ichki auditni avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) auditorlik ishining samarasini oshiradi, ikkinchi tomondan esa nazorat-maslahat tizimini yaratish imkonini beradi. Ichki auditni avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) jarayonida quyidagi elementlarga alohida e'tibor qaratish lozim deb o'ylaymiz:

□ Audit jaryonini aks ettiruvchi iqtisodiy matematik, iqtisodiy-tashkiliy va axborot modellariga;

□ Modellarni amalga oshiruvchi texnik, programma, axborot va boshqa vositalarga.

Bizningcha, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari faoliyatini boshqarishda ichki audit funksiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, O‘zbekistonda «Ichki auditorlarning ahloqiy me‘yorlari», ichki auditni o‘tkazish standartlarini ishlab chiqish va qabul qilishi zarur, shuningdek ichki auditni faoliyat shakli sifatida qonunda mustahkamlab qo‘yish kerak.

Ichki audit ish hujjatlarini jalb etish tajribasi, shuningdek tashqi auditga bevosita yordam ko‘rsatish uchun ichki auditorlarning o‘zlarini jalb etish tajribasi kengayshi munosabati bilan ichki audit bahosi mezonlarini aniqlash zaruriyatini tug‘diradi. Bizningcha, bunday mezonlar ichki auditning etik qoidalari va kasb (mutaxassislik) standartlarida bo‘lishi kerak. Ularga rioya qilish ichki auditning yuqori sifatini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <https://kun.uz/uz/99444746>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. Toshkent sh., 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 sonli. <https://lex.uz/docs/-4746047>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. Toshkent sh., 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-sonli. <https://lex.uz/docs/1061595>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832 sonli. <https://lex.uz/docs/3806053>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. Toshkent sh., 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli. <https://lex.uz/docs/-1072916>.
6. Суйц В. Аудит. Учебник. – М.: “Высшее образование”, 2007 г. –398 стр.
7. Ilhamov Shavkat Islamovich. Amaliy audit. Darslik. -T.: Iqtisodiyot, 2011. - 365 b.
8. Do‘smuratov R., Fayziyev Sh., Qo‘zziyev I, Avloqulov A., Po‘latov G‘. Audit. O‘quv qo‘llanma. II qism. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008, 176 b.

BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASHDA “QIZIL KITOB”NING AHAMIYATI

Turniyozova Nargiza Raxmatovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada Xalqaro va O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob” ining yaratilishi, ulardagi turlar soni, Qizil kitobga kiritiladigan va kiritilmaydigan turlar toifalari berilgan. Shuningdek viloyatlardagi o‘simlik turlarining yo‘qolgan soni, “Qizil kitob”ga kiritilgan oilalar va ularning turlar soni, viloyatlarda uchraydigan Qizil kitobga kiritilgan sutemizuvchilar shu bilan birga 2009-2019-yillarda nashr qilingan “Qizil kitob” da hayvonot olamining turlar soni va farqlari. O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ta’sis etilgan qonunlari yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** Xalqaro va O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i, Piter Skott, (TMXI), toifalar, Least Concern (L C), Not Applicable (N A), Not Evaluated (N E), yo‘qolgan va kiritilgan turlari, turlarning farqlari.*

ABSTRACT

The article describes the creation of the International and the Republic of Uzbekistan “Red Book”, the number of species in them, the categories of species that are included in the Red Book and those that are not. Also, the lost number of plant species in the regions, the number of families and their species included in the “Red Book”, the mammals included in the Red Book found in the regions, as well as the number and differences of animal world species in the “Red Book” published in 2009-2019. The laws established in the Republic of Uzbekistan on the protection of flora and fauna are highlighted.

***Key words:** International and Republic of Uzbekistan “Red Book”, Piter Scott, (TMXI), categories, Least Concern (L.C), Not Applicable (N A), Not Evaluated (N.E), lost and included species, species differences.*

KIRISH

Atrof muhitni o‘simlik va hayvonot olamisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ularni muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. Kishilar tabiatdan foydalanib uning asrlar davomida tashkil topgan tabiiy manzarasini o‘zgartirmoqda, unga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Sanoat tarmoqlari va qishloq xo‘jaligining rivojlanib borishi va maydonlarning keng miqyosda o‘zlashtirilishi

ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Natijada o‘simlik va hayvonot olamining kamayib ketish xavfi tug‘ilmoqda [1,3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qizil kitob yo‘qolib borayotgan va yo‘qolish xavfida bo‘lgan noyob o‘simlik va hayvon turlarini qayd qiluvchi davlat hujjatidir. Dunyodagi yo‘q bo‘lib ketayotgan hayvon turlariga bag‘ishlangan dastlabki maxsus kitoblar 1945-yilda nashr qilina boshlangan. 1948-yilda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) tashkil qilindi. 1949-yildan boshlab tabiatda yo‘qolib borayotgan o‘simlik va hayvon turlarini yig‘ib borish natijasida 1966-yilda Xalqaro “Qizil kitob” nashr etildi. Turlarni saqlab qolish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya raisi Piter Skott kitobni qizil rangda chop etilishini taklif qiladi. Ya’ni xavf xatarni bildirib turish uchun. Bu qizil kitobda sutemizuvchilarning 321 turi, qushlarning 485 turi, sudralib yuruvchilarning 141 turi, suvda hamda quruqlikda yashovchilarning 41 turi, baliqlarning 194 turi kiritilgan edi [2].

1966-yildan boshlab (TMXI) turlarni saqlab qolish komissiyasi boshqa tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda “Qizil kitob” ning dunyoviy va mintaqaviy faunalarga mansub hayvonlarning turli sistematik guruhlariga bag‘ishlangan alohida nashrlari chop etila boshladi. O‘zbekistonning noyob va kamayib borayotgan o‘simlik va hayvonlari to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar 1979-yilda ta’sis etilgan “Qizil kitob” da chop etilgan. Birinchi marta O‘zbekiston “Qizil kitob” ining faunaga bag‘ishlangan qismi 1983-yil nashrdan chiqdi. Unda umurtqali hayvonlar (baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sutemizuvchilar) ning 63 turi kiritilgan edi. 1984-yil o‘simlik olamiga bag‘ishlangan nashriga 163 tur o‘simlik kiritilgan [2, 4].

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

“Qizil kitob” davriy nashr hisoblanib, unga kiritilgan o‘simlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan kamyobligiga ko‘ra 4 ta maqom (status) berildi.

0. Yo‘qolgan va yo‘qolish arafasida turgan turlar. Bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin ayrim yig‘ib olishi qiyin bo‘lgan joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlab qolish ehtimoliga ega bo‘lgan turlar.

1. Yo‘qolib borayotgan turlar. Yo‘qolib ketish ostida turgan saqlanib qolishi uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

2. Kamyob turlar. Ma’lumki kichik maydonlarda o‘ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

3. Kamayib borayotgan turlar. Ma'lum vaqt ichida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga ko'ra yoki inson ta'siri ostida qisqarib borayotgan turlar. Ayni vaqtda bunday turlar har tomonlama nazorat qilib turishni talab etadi.

Turli sabablarga ko'ra milliy "Qizil kitob"ga kiritilmagan turlarni (TMXI) "Qizil kitob" toifalari bo'lmagan quyidagi texnik toifalarga kiritishni tavsiya qiladi.

1. "Eng kam xavf tug'dirayotgan" - Least Concern (L.N) mezonlar bo'yicha baholangan, ammo belgilangan bahoga to'liq mos kelmaydigan, yoki yo'q bo'lib ketish ehtimoli yaqin bo'lmagan turlar;

2. "Baholanmaydigan" - Not Applicable (NA). milliy miqyosda baholanmaydigan turlar;

3. "Baholanmagan" - Not Evaluated (N.E). mezonlar bo'yicha hali baholanmaydigan turlar;

"Qizil kitob" ga kiritilgan hayvon va o'simlik turlari bo'yicha taklifni ilmiy tekshirish muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlari, ayrim olimlar tavsiya qilishi mumkin. Muhofaza qilinishi natijasida o'z arealini qaytadan tiklagan va yo'qolib ketish xavfi tug'ilmaydigan o'simlik va hayvonot turlari "Qizil kitob" dan chiqariladi [2, 4, 6].

O'zbekiston Respublikasi hududida 4500 ga yaqin o'simlik va 2000 dan ziyod zamburug' turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'pgina kamyob, endem va eelikt turlar ham bor. Bunday turlarning soni 400 atrofida bo'lib, ular O'zbekiston florasining 10-12 %ini tashkil etadi. 1984-yilda nashr qilingan O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga 163 ta o'simlik turi kiritilgan bo'lsa, 1998-yil ikkinchi nashrida bu holat 301 ta turga ko'tarilgan. Viloyatlarda o'simliklarning yo'qolib borish turlari Qoraqalpog'iston 11 tur, Andijon 4 tur, Samarqand 45 tur, Jizzax 21 tur, Buxoro 24 tur, Navoiy 13 tur, Namangan 12 tur, Sirdaryo 2 tur, Farg'ona 28 tur, Surxondaryo 112 tur, Qashqadaryo 59 tur, Toshkent 84 turni o'z ichiga oladi.

Qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlari boyligiga ko'ra bug'doydoshlar 2 tur, burchoqdoshlar 60 tur, ituzumdoshlar 1 tur karamdoshlar 8 ta, tur loladoshlar 25 tur, piyozdoshlar 10 tur, qoqio'tdoshlar 13 tur, turkum 50 tur, ra'nodoshlar 2 tur, shirachdoshlar 16 tur tokdoshlar 1 tur, sho'radoshlar 8 tur, yalpizdoshlar 23 turni tashkil qiladi. [1, 3, 7].

Jahon faunasining xalqaro qizil ro'yxatlariga 2003- yilga asoslangan tahlili shuni ko'rsatadiki keyingi to'rt yuz yil shuni davomida sutemizuvchilarning 74 turi, qushlarning 129 turi, sudralib yuruvchilarning 21 turi, amfibiyalarning 7 turi, baliqlarning 81 turi, hasharotlarning 72 turi, onixoforalarning 3 turi va turbellyariyalarning 1 turi yer yuzidan butunlay yo'q bo'lib ketgan.

1- jadval

2009-2019- yilda nashr qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ga kiritilgan hayvon turlari

Nomi	2009-yil	2019-yil	Farqi
Sutemizuvchilar	24 tur (kenja turlar bilan 25 tur)	30 tur (kenja turlar bilan 32)	6 tur (kenja tur 7)
Qushlar	418 tur (kenja turlar bilan 51)	52 tur	1
Sudralib yuruvchilar	16 tur	21 tur	5
Baliqlar	17 tur (kenja turlar bilan 18 tur)	17 tur(kenja turlar bilan 18)	0
Halqali chuvalchanglar	3 tur	3 tur	0
Mollyuslalar	14 tur	14 tur	0
Bo‘g‘imoyoqlilar	60 tur	66 tur	6

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob” iga kiritilgan sutemizuvchilarning viloyatlarda tarqalishi

T/r	Hayvon nomlari	Maqomi	Tarqalgan viloyati
1	Kichik taqaburun	2	Toshkent shahri
2	Uzundumli ko‘rshapalak	1	Samarqand shahri
3	Oq qorinli o‘q quloq	2	Navoiy, Jizzax, Surxandaryo
4	Ko‘k sug‘ur	1	Toshkent
5	Uzun ignali kirpi	3	Qoraqalpog‘iston
6	Buxoro tunshapalagi	1	Samarqand shahri
7	Keng quloqli qat-qat	2	Surxandaryo , Buxoro
8	Geptner mitti qo‘shoyog‘i	2	Buxoro
9	Vinogradov qo‘shoyog‘i	2	Navoiy, Toshkent viloyati
10	Qorsak	2	Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Qarshi
11	Sariq sassiqqo‘zan	2	Buxoro, Sirdaryo, Surxandaryo, Samarqand
12	Olaqo‘zan	2	Qoraqalpog‘iston, Buxoro
13	Hind asalxo‘ri	1	Qoraqalpog‘iston, Xorazm vohasi
14	Gepart	0	O‘tmishda: Buxoro, Qoraqalpog‘iston
15	Sirtlon	1	Surxandaryo, Jizzax
16	Qum mushugi	3	Buxoro
17	Qoraquloq	1	Qoraqalpog‘iston, Buxoro
18	Qoplun	1	Jizzax, Surxandaryo
19	Turon yo‘lbarisi	0	O‘tmishda: Surxandaryo

20	Xongul	1	Buxoro, Surxandaryo
21	Morxo‘r	1	Jizzax, Termiz
22	Ustyurt qo‘yi Arqal	1	Qoraqalpog‘iston
23	Buxoro qo‘yi	1	Jizzax, Qarshi, Surxandaryo
24	Qizilqum arxari	2	Navoiy
25	Sayg‘oq (oq quyruq)	1	Qoraqalpog‘iston

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, atrof muhitni, hayvonot va o‘simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e‘tibor qaratiladi. 1992-yil 9-dekabrda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, 1997-yil 26-dekabrda “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, 1999-yilda esa “O‘rmon haqidagi” qonunlar qabul qilindi. 2016-yil 21-sentyabrda esa “o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. 2004-yilda “Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, 2016-yil “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlarning shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risida”gi 2014-yil 290-sonli qarorining chiqishi g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu qonunlarning barchasi o‘simlik va hayvon turlarini saqlab qolish, ularni asrab avaylash va muhofaza qilishda muhim hujjat hisoblanadi.

XULOSA.

“Qizil kitob” ga noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik va yo‘qolib borayotgan o‘simlik va hayvon turlarini o‘zida jamlar ekan, ikki bu turlarni muhofaza qilish uchun barchani ogohlikka chorlaydi. Tabiatda o‘simlik va hayvonot dunyosining kamayib ketishi ekalogiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Afsuski, yildan-yilga muhofazaga muhtoj bo‘lgan turlar soni ko‘paymoqda. Bu turlar sonini qayta tiklash uchun birinchi o‘rinda har bir insonga o‘simlik va hayvon turlarini umuman tabiatni muhofaza qilish, uni asrab avaylashni anglatmog‘imiz lozim. Tabiatni asrab avaylash barchamizning burchimizdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i 1- jild Toshkent 2009. Chinor ENK.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i 2-jild Toshkent 2009 Chinor ENK.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i 1- jild Toshkent 2019 Chinor ENK.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”i 2-jild Toshkent 2019 Chinor ENK.

5. H. Vahobov, P. G‘ulomov, M. Mamatqulov, P. Baratov O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi O‘zbekiston tabiiy geografiyasi Toshkent 2017
6. A. Abdukarimov, A. Gafurov, I. Abduraxmonova, J. Tolipova, M.Umaraliyeva, O.Ishankulov “Biologiya” Toshkent-2018.
7. A.S. To‘xtayev, I.Z. Saparboyev, F. O‘. Azimova, M.T Umaraliyeva, O‘. Pratov Biologiya (Botanika) Toshkent O‘zbekiston 2017.

BAYT UL-HIKMADA FAOLIYAT OLIB BORGAN MARKAZIY OSIYOLIK ALLOMALAR HAQIDA MULOHAZALAR

Nabiyev Muxammadali

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abbosiylar xalifaligi qo'l ostida bo'lgan Movarounnahr va Xurosonlik olimlarning Bag'doddagi ilmiy faoliyati yoritiladi. Shuningdek, ular tomonidan olib borilgan turli izlanish va yangiliklar, yozib qoldirilgan asarlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: *Movarounnahr, Xuroson, Bag'dod, Bayt al-hikma, Ma'mun, Yahyo ibn Abu Mansur, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, handasa, riyoziyot, tabobat.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается научная деятельность учёных Моваруннахра и Хорасана в Багдаде при халифате Аббасидов. Также будет дана информация о различных исследованиях и новостях, письменных работах, проведенных ими.

Ключевые слова: *Моваруннахр, Хорасан, Багдад, Байт аль-Хикма, Мамун, Яхья ибн Абу Мансур, Аль-Хорезми, Ахмад Фаргани, геометрия, математика, медицина.*

ABSTRACT

This article covers the scientific activities of Movarounnahr and Khurasan scientists in Baghdad under the Abbasid caliphate. Also, information about various researches and news, written works, conducted by them will be given.

Key words: *Movarounnahr, Khurasan, Baghdad, Bayt al-hikma, Ma'mun, Yahya ibn Abu Mansur, Al-Khorazmi, Ahmad Farghani, geometry, mathematics, medicine.*

KIRISH

Movarounnahr hududi Arab xalifaligi tomonidan istilo qilingach, mahalliy aholi va arablarning o'zaro yaqinlashuvi kuzatildi. Natijada, shaharlar hayoti jonlandi, savdo-sotiq rivojlandi, yangi dehqonchilik uchun maydonlar ochilib, kanal va ariqlar qazildi. Shu bilan bir qatorda ilm-fan ham yuksak darajaga ko'tarilib, hayotning turli tarmoqlariga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi.

ASOSIY QISM

Sharqdagi Renessans (Uyg'onish) ning birinchi bosqichi milodiy IX-XII asrlarga to'g'ri keladi. Islom olamida boshlangan bu taraqqiyot keyinchalik, butun dunyoga musulmon adabiyotlari va kashfiyotlari orqali tarqaldi. Birinchi marta "uyg'onish" atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari o'z asarlarida

ishlatadi.¹³ Din va yozuv umumiyligi Movarounnahr va Xurosondan fanning turli sohalarida yetuk olimlarning yetishib chiqishida asosiy omillardan biri bo'ldi. Bu olimlar Xalifalikning markazi – Bag‘dod shahrida to‘planishdi. “Bayt al-hikma” – turli hududlardan kelgan olimlarni o‘zida jamlagan ilm maskaniga aylanadi. “Bayt al-hikma” o‘zbek tilida “Hikmatlar uyi” degan ma‘noni bildiradi. U yerda ilm-fanning turli sohaları jumladan, falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, diniy ilmlar, tarjima ishlari olib borilgan. Dastlab kutubxona sifatida tashkil qilingan “Bayt al-hikma” ko‘p vaqt o‘tmay, u yerda jamlangan kitoblarni arab tiliga tarjima qilish markaziga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda “Bag‘dod ilmiy maktabi” va “Bag‘dod akademiyasi” nomlari bilan mashhur bo‘ldi. Abbosiy xalifalardan eng mashhuri Horun ar-Rashid (785-809) davrida bu maskan xalifa Al-Mansur asos solgan oddiy kutubxonadan mintaqadagi eng yirik ilm-fan markaziga aylantirildi. Uning o‘g‘li Ma‘mun (813-833) hukmronlik yillarida esa “Bayt al-hikma” tarkibida yirik kutubxona, tarjima va asarlar yozish, ko‘chiruvchilar hamda muqovalash uchun ajratilgan mahsus xonalar mavjud bo‘lgan. Ma‘munning o‘zi ham diniy ilmlar, falsafa, aniq fanlar bilan qiziqqan va ular bilan doimiy tarzda shug‘ullangan. Bag‘dodning ash-Shammosiya mintaqasi hamda Damashq atrofidagi Qasiyun tog‘larida mavjud bo‘lgan rasadxonalar ham “Bayt al-hikma” tarkibida bo‘lgan.¹⁴

“Bayt al-hikmada” faoliyat olib borgan, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan Movarounnahr va Xurosonlik olimlarga to‘xtaladigan bo‘lsak. Ularning umumiy soni 15 nafarni tashkil qiladi:

Yahyo ibn Abu Mansur – o‘rta asr Sharq falakiyot ilmi tarixiga, asosan, Bag‘dodning ash-Shammosiya hududida 828-yilda bunyod etilgan rasadxonaning asoschisi, u yerda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalarning tashkilotchisi hamda «al-Ma‘munning sinalgan jadvali» kitobining mualliflaridan biri sifatida kirgan. U Marv shahrida tug‘ilib o‘sgan va al-Ma‘mun hizmatida bo‘lgan. Keyinchalik xalifa uni Bag‘dodga o‘zi bilan olib ketgan. Olim ba‘zi adabiyotlarda 830, ba‘zilarida esa 845-yili Tarsus shahrida vafot etgan, deb ko‘rsatiladi. O‘rta asr manbalari va zamonaviy adabiyotlarda Yahyo ibn Abu Mansurning qalamiga quyidagi asarlar mansub, deb tahmin qilinadi: 1. «Al-Ma‘munning sinalgan jadvali». 2. «Osmon falaklari haqida mulohazalar». Bu risola Abu Rayxon Beruniyning «Geodeziya» asarida zikr etiladi. 3. «Madinat as-salom /Bag‘dod/ shahrining kengligi uchun /Quyosh/ balandligini soatning oltidan biri orqali /o‘lchash/ amali». 4. «Uning /Yahyo ibn Abu Mansurning/ kuzatishlari jamlangan kitob va boshqa kuzatishlar haqidagi risolalari». Muallifning yuqoridagi asarlaridan faqat «al-Ma‘munning

¹³ Murtazayev.R. H. – O‘zbekiston tarixi – Toshkent: 2005, - 155-b.

¹⁴ Abduhalimov B. – Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bog‘doddagi ilmiy faoliyati – T: “O‘zbekiston”, 2010. – 34-40 b.

sinalgan jadvali» bizgacha yetib kelgan bo‘lib, u Ispaniyaning Eskurial kutubxonasi saqlanadi. Bu kitobning yozilishida Yahyodan tashqari, o‘sha davrdagi al-Abbos al-Javxariy, Holid al-Marvarrudiy kabi astronomlar ham faol ishtirok etganlar.

Al-Xorazmiy – jahon ilm-faniga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri hisoblanadi. U «Bayt al-hikma» dagi Markaziy Osiyo olimlarining eng mashhuri bo‘lgan. Olimning to‘liq ismi Abu Abdullox Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy bo‘lib, u 783-yilda tavallud topgan va 850-yilda vafot etgan. Yevropada «Algorismus» va «Algorismus» nomlari bilan mashhur bo‘lgan buyuk matematik, astronom va geograf. U o‘z ilmiy faoliyatining katta qismini Bag‘dodda «Bayt al-hikma»da o‘tkazgani tarixdan ma‘lum. Hozirda butun dunyoda qo‘llaniladigan algebra so‘zining o‘zi olimning mashhur «Al-jabr val-muqobala» sidagi «al-jabr»dan olingan bo‘lib, Yevropada «al-gebra» shaklida yozilgan va talaffuz qilingan. Keyinchalik bu so‘z fanda ana shu tarzda o‘rnashib qoldi. Al-Xorazmiy sinus funksiyali trigonometrik jadvallarning rivojiga ham katta hissa qo‘shgan bo‘lib, keyinchalik bu amaliyot tangens funksiyasining ekstrapolyatsiyasini vujudga keltirdi. Al-Xorazmiy asarlari soni 10 tani tashkil qilib, ular quyidagilar: 1.«Arifmetikaga doir asar». 2. «Al-jabr va-l-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob». 3. «Xorazmiy ziji». 4. «Asturloblar bilan amal tutish haqida kitob». 5.«Asturlob yordamida azimutni aniqlash» 6. «Quyosh (marmar) soat yuzasida soatlar yasash». 7. «Asturlobning ishlashi haqida kitob». 8. «Quyosh (marmar) soati haqida kitob». 9. «Yerning tasviri kitobi». 10. «Tarix kitobi». Al-Xorazmiy «Zij»iga o‘rta asr olimlari jumladan, Ahmad al-Farg‘oniy ham sharh yozgan. Lekin al-Farg‘oniyning sharhi bizgacha yetib kelmagan. Bunday sharhning mavjud bo‘lganiga al-Xorazmiyning vatandoshi Abu Rayhon Beruniy ishora qiladi.¹⁵ **Ibn Turk al-Xuttaliy** – O‘rta asr riyoziyot fani rivojiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan salohiyatli matematiklardan biri hisoblanadi. U milodiy VIII asr oxiri IX asr boshlarida Bag‘dodda yashab ijod qilgan. Uning ismidagi «Xuttali» so‘zi, olimning o‘rta asrlarda hozirgi Tojikistonning Panj va Vaxsh daryolari orasida joylashgan, Xuttal nomli tog‘li hududdan kelib chiqqanidan dalolat beradi. Ibn Turkning «hisobchi» degan laqabi uning asosan, riyoziyot bilan shug‘ullanganidan dalolat beradi. U «Hisob bo‘yicha to‘plam» va «Arifmetik amallar» asarlari muallifidir. «Hisob bo‘yicha to‘plam» asari olti kitob (bob)dan tashkil topgan.

Xolid al-Marvarrudiy – Olim IX asrning birinchi yarmida yashab, xalifa al-Ma‘mun huzurida faoliyat ko‘rsatgan mashhur astronomlardan biri bo‘lgan. Uning ismi o‘rta asrlarda Marvga qaram bo‘lgan «Marvarrud» shahridan kelib chiqqanini bildiradi. Xolid al-Marvarrudiy fan tarixiga,

¹⁵ O‘sha asar 173-188 b.

asosan, 830-yillar atrofida Damashq shahri yaqinidagi Qasiyun tog‘ida tashkil etilgan ikkinchi rasadxonaning (birinchi rasadxona taxminan 828-yili Bag‘dodning ash-Shammosiya hududida qurilgan) tashkilotchisi, rahbari va u yerda olib borilgan tajribalarning qatnashchisi sifatida kirgan. Shuningdek, u xalifaning topshirig‘iga binoan, 832-833 yillari Suriya shimolidagi Sinjar dashtida yer meridianining bir darajasini o‘lchashda Ahmad Farg‘oniy bilan qatnashgan hamda Quyosh va Oyni kuzatish tajribalarining asosiy ishtirokchilaridan edi. Olimning astronomik jihoz yaratishdagi sa‘y-harakatlari Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya» kitobida e‘tirof etiladi. Bayon etilgan tajriba ishlari Ahmad al-Farg‘oniyning «Astronomiya ilmi asoslari» kitobida ham ta‘kidlab o‘tilgan. Bu esa, o‘z navbatida, Xolid al-Marvarrudiy va Ahmad al-Farg‘oniylarni yaqin munosabatlarda bo‘lib, o‘zaro hamkorlikda ishlaganlarini yana bir karra tasdiqlaydi.

Al-Abbos al-Javxariy – Bayt al-hikmada faoliyat olib borgan mashhur astronom va matematik olimlardan biridir. U Qozog‘iston janubidagi, qadimda Forob shahri atrofida Javhar nomi bilan tanilgan va hozirda Gavxartepa deb yuritiladigan joydan kelib chiqqan. Uning yashab o‘tgan yillari haqida manbalarda aniq ma‘lumotlar saqlanmagan. Al-Javhariyning 830-yillar atrofida Bag‘dod va Damashqdagi astronomik kuzatishlarda ishtirok etgani inobatga olinib, uni IX asrning birinchi yarmida hayot bo‘lgan, degan xulosaga kelingan. Al-Javxariyning qalamiga mansub bo‘lgan asarlarning soni oltita va ular quyidagilardan iboratdir: 1. «Uqliydisning «Negizlar» asarining beshinchi kitobiga qo‘shimchalar». 2. «Negizlar» kitobini isloh qilish». 3. «Uqliydis kitobiga tafsir». 4. «Quyoshning Yer markazidan uzoqligini aniqlash». 5. «Uqliydisning «Negizlar» asarining birinchi kitobiga u /al-Javxariy/ qo‘shgan shakllar». 6. «Zij» kitobi.

Ahmad al-Marvaziy – Bag‘dodda ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullangan zamonasining yirik astronom va matematigi. U «Habash hisobchi» laqabi bilan tanilgan. Uning ismidagi al-Marvaziy so‘zi muallifning o‘rta asrlarda hozirgi Turkmanistonning Bayram Ali shahri yaqinidagi Marvdan ekanini ko‘rsatadi. Fan tarixiga oid bibliografik kitoblarda olimni 770-870 yillar mobaynida yashab o‘tgan, deb tahmin qilinadi. Ahmad al-Marvaziy «Astronomik jadvallar», «Damashq ziji» (bu zij Bag‘dod shahri uchun tuzilgan)¹⁶ va «al-Ma‘munning sinalgan jadvali» asarlarining muallifidir. Ibn al-Qiftiy, al-Marvaziy «Shox uchun zij» nomli yana bir kichik hajmdagi risolaning ham muallifi, deb ko‘rsatadi. Umuman, al-Marvaziy al-Ma‘mun davrida olib borilgan tajriba va ilmiy tadqiqotlarda eng faol ishtirok etgan

¹⁶ Bulgakov P.G. O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi faoliyati // Sharqshunoslik. 1990. № 1. 24-b.

olimlardan bo‘lgan. Xususan, u 832-833 yillarda Sinjar dashtida yer meridianining bir darajasini o‘lchash ishlarida ham qatnashadi.¹⁷

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Kasir al-Farg‘oniy – 798-yili Farg‘ona vodiysida tavallud topgan. Marvda to‘plangan ko‘plab Markaziy Osiyolik allomalar bilan bir qatorda Ahmad Farg‘oniy Ma‘mun hizmatida bo‘lgan. 819-yilda Xalifa butun saroy a‘yonlari va olimlari bilan Bag‘dodga ko‘chganda ular orasida Xorazmiy va Farg‘oniylar ham bor edi. Keyinchalik, Damashq shahridagi rasadxonada Xolid ibn Abdumalik va Farg‘oniy rahbarligida olimlar jamoasi ilmiy izlanishlar olib borgan. Ahmad Farg‘oniy Suriyaning shimoli Sinjar sahrosida (832-833 yillar) Padmur va ar-Raqqa oralig‘ida Yer meridiani bir darajasining uzunligini o‘lchashda ishtirok etganligini bilib olishimiz mumkin. Farg‘oniy xalifa Mutavakkil zamonida (846-862) Nil daryosining suvini o‘lchaydigan yangi o‘lchov asbobini (Miqyos jadidni) yaratadi. Ahmad Farg‘oniy asarlari XII asrdan boshlab dastlab ispan va lotin tillariga tarjima qilingan. Al-Farg‘oniyning nomi “Alfraganus” bo‘lib nomlangan.¹⁸ Dunyoning turli qo‘lyozma fondlarida Ahmad al-Farg‘oniyning quyidagi asarlari saqlanib qolgan: 1.«Falakiyot ilmi asoslari va samoviy harakatlarning usullari». Dublin, Istanbul, Leyden, Moskva, Oksford, Sankt-Peterburg, Qohira kutubxonalarida mavjud. 2) «Handasa va hisob yordamida shimoliy va janubiy asturlobni yasash uchun komil kitob». 3) «Yetti iqlimning hisobi» Qohira va Gotada saqlanadi. 4. «Asturlobni qo‘llash haqida kitob» Rampurda saqlanadi. 5. «Al-Farg‘oniy jadvallari» Patnada saqlanadi. 6. «Jadiy diametri uchun al-Farg‘oniy jadvallari» Manisa (Turkiya)da saqlanadi. 7. «Oy Yerning ustida yoki ostida joylashgan vaqtni aniqlash haqidagi risola» Qohirada saqlanadi. 8) «Quyosh soatini yasash haqida kitob» Qohira va Halabda saqlanadi. 9) «Al-Xorazmiy zijini tushuntirish». Ushbu risola bizgacha yetib kelmagan.¹⁹ **Banu Muso (Muso ibn Shokir va uning uch o‘g‘li)** – Muso ibn Shokir ismli shaxs al-Ma‘mun xalifalikni boshqargan (813-833) yillarda yashagan bo‘lib, uning uch farzandi Abu Ja‘far Muhammad, Ahmad va al-Hasanlar o‘z davrining yetuk allomalari va ilm homiysi hisoblanganlar. Manbalarda Muso ibn Shokir haqida juda oz ma‘lumot saqlangan. Bu ma‘lumotlarga muvofiq, tabiatan juda faol va qobiliyatli Muso ibn Shokir, al-Ma‘mun Marvda Bag‘dod xalifasining noibi bo‘lgan vaqtlarida u bilan yaqin munosabatda bo‘ladi. Keyinchalik falakiyot va handasa masalalari bilan shug‘ullana boshlaydi. O‘sha yillardan boshlab, u mazkur sohalarda tadqiqotlar olib boradi va ma‘lum yutuqlarga erishadi. Uning o‘g‘illari - Muhammad, Ahmad va al-Hasanlar

¹⁷ Abduhalimov. B. – Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bog‘doddagi ilmiy faoliyati – T: “O‘zbekiston”, 2010. – 199-201 b.

¹⁸ Usmonov. T. – Ahmad Farg‘oniy va Bayt ul-hikma. T:O‘qituvchi, 1998, – 4-7 b.

¹⁹ Abduhalimov. B. – Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bog‘doddagi ilmiy faoliyati – T: “O‘zbekiston”, 2010. – 206-207 b.

esa ilm-fan sohasida o‘z otalaridan ancha ilgari ketdilar. Uch aka-ukaning ismlari manbalarda doimo «Banu Musa», ya’ni «Musoning o‘g‘illari» deb yuritiladi. Banu Musolarning yaratgan «Mexanika kitobi» Ahmadga, handasaga oid ikkinchi kitob esa al-Hasan qalamiga mansub, deyish mumkin. Katta aka Muhammad esa barcha fanlarga birday qiziqqan. Jamoat ishlari va siyosiy jarayonlarda faol bo‘lgan. Biroq, ular tarafidan yozilgan barcha asarlarga umumiy - «Banu Muso» nomi berilgan.²⁰

Ahmad as-Sag‘oniy – olim o‘z davrining yirik astronomlaridan edi, u asosan, Bag‘dodda faoliyat ko‘rsatgan. Ahmad as-Sag‘oniy asturloblari, umuman, astronomik jihozlar yasashda va ularni qo‘llashda mohir mutaxassis (konstruktor) bo‘lgan. As-Sag‘oniyning «Osmon sferasini tekislikda tasvirlash» risolasi Patna va Istanbuldagi kutubxonalarda saqlanadi. Risola o‘n ikki bobdan iborat bo‘lib, unda osmon sferasining astrolobiya sathida tasvirlash masalalari ustida mulohazalar yuritiladi. Alloma yuqoridagilardan tashqari, «Doyra ichiga joylashtirilgan to‘g‘ri tarfli yetti burchakning tarafini yasash» va «Masofalar va hajmlar haqida» nomli Parij va Damashqda saqlanayotgan asarlarning ham muallifidir. Shuningdek, «Burchakning uchga bo‘linishi» risolasi as-Sag‘oniyning bizgacha yetib kelmagan asarlaridan biridir. As-Sag‘oniy 990-yili Bag‘dod shahrida olamdan o‘tadi.

Ahmad as-Saraxsiy – Olimning to‘liq ismi Abu-l-Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Marvon as-Saraxsiy bo‘lsa ham, u «Ahmad ibn at-Tayyib» tahallusi bilan tanilgan. Olim o‘rta asrlarda Movarounnahrning Saraxs deb atalgan shahridan kelib chiqqan. U o‘z davrida falsafa, fizika, geografiya, tabobat, riyoziyot, falakiyot, astrologiya va musiqa fanlari bilan shug‘ullangan. «Falsafa asoslari», «Atmosfera hodisalari haqida kitob», «Tumanning mohiyati haqida kitob», «Tog‘larning foydasi haqida kitob». «Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob». Ahmad as-Saraxsiyning Bokuda saqlanayotgan «Astronomiyaga kirish» risolasidagi Zuxal va Mirrix yoritgichlarining bir-biri bilan uchrashish joyi haqidagi mulohazalari Abu Rayhon Beruniyning «Xronologiya» asarida iqtibos qilinib, tanqid ostiga olingan. Shuningdek, alloma «Arifmetika kitobi», «Musiqa haqida katta kitob», «Ashula aytish sirlariga yo‘riqlar», «Tabobatga kirish» kabi asarlar muallifi hamdir. Ahmad as-Saraxsiy asarlarining katta qismi bizgacha yetib kelmagan.²¹

Abdulloh ibn Amajur at-Turkiy – Abdulloh ibn Amajur at-Turkiy va uning o‘g‘li Abu Hasan Ali farg‘onalik falakiyotchi olimlardan bo‘lib, bizning ilmiy adabiyotlarda ularning hayoti, faoliyati va merosi o‘rganilmagan. Ibn an-Nadim va Ibn al-Qiftiyalar o‘zlarining «al-Fixrist» va «Hakimlar tarixi» kitoblarida bu olim haqida shunday deb yozadilar: «Abu al-Qosim Abdulloh ibn Amajur al-Haraviy

²⁰ O‘sha asar 211-220 b.

²¹ O‘sha asar 220-227 b.

Farg‘ona xalqi farzandlaridan. U zamonasining fozil va o‘z o‘rniga ega ulamolaridan bo‘lgan. Olim «Xatolardan/ xolis zij kitobi», «Bog‘lab turuvchi zij kitobi», «G‘aroyib zij», «O‘tishlar ziji», «Sindxind ziji», «Qulning ziji», «Musofirga foydali kitob», «Fors erasi bo‘yicha Mirrih (Mars) sayyorasi uchun zij» kabi asarlarning muallifi sanaladi. Manbalarda Abdulloh, ibn Amajur at-Turkiyning tavallud topgan va vafot etgan yili haqida aniq ma‘lumotlar saqlanmagan. Shuning uchun ham uning yashagan davrini IX-X asrlar, deb qabul qilinadi.

Abu Bakr ar-Roziy – Bayt al-hikmada faoliyat olib borgan yirik qomusiy olim. Alloma 865-yilning 28-avgustida o‘rta asrlarning muhim ilmiy va madaniy markazlaridan hisoblanmish Ray shahrida tavallud topdi. Manbalarda uning yoshlik yillari haqida ma‘lumotlar oz saqlangan. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra, u yoshlik yillarida avvaliga adabiyot va she‘riyatga qiziqib she‘rlar yozgan hamda musiqaning shaydosi bo‘lgan. Bundan tashqari, olim o‘sha kezlari zargarlik hunarini ham o‘rgangan, xatto sarroflik bilan shug‘ullangan. Ar-Roziy o‘zining «Sirlar kitobi», «Kimyoga kirish», «Minerallarning paydo bo‘lishi», «Toshlar haqida kitob», «Iksir haqida kitob», «Oltin va misning soflik tamg‘asi (probasi)», «Kimyoni inkor etuvchi al-Kindiyga raddiya», «Kimyogarlarni inkor etuvchi Muhammad ibn Lays ar-Rasailiyga raddiya», «Sirlarning siri kitobi» kabi asarlar yaratib, o‘rta asr kimyo fani rivojiga o‘zining benihoya ulkan hissasini qo‘shdi. Yoshi 30 atrofida bo‘lgan ar-Roziy tabobat, kimyo va falsafa kabi sohalarda ilm izlab Bag‘dodga keladi. Olim tez orada mashhur tabibga aylanadi va hatto «arablarning» Joliyunusi degan faxriy nomga sazovor ham bo‘ladi. Olim 925-yilda 60 yoshida Ray shahrida olamdan o‘tadi. Ibn an-Nadim ar-Roziyning 113 ta kitobi va 28 ta risolasini, Ibn Abu Usaybi‘a esa 232 ta asarining nomini keltiradi. Mutahassislarning hisoblariga ko‘ra, olimning manbalarda eslatilgan asarlarining umumiy soni 270 dan ortadi. **Abu Nasr al-Forobiy** – Bag‘dodda faoliyat ko‘rsatgan Markaziy Osiyo olimlarining eng yiriklaridan biri Abu Nasr Muhammad ibn Muxammad ibn Uslug‘ al-Forobiy edi. U nafaqat mashhur faylasuf, balki ulkan iste‘dodga ega qomusiy olim ham bo‘lgan. Sirdaryo qirg‘og‘idagi Forob degan joyda tavallud topgan bu olim, o‘rta asr musulmon falsafa ilmining eng yorqin yulduzlaridan bo‘lgani sababli ham, birinchi muallim hisoblangan Arastudan keyingi «ikkinchi muallim» degan fahrli nom bilan yuritilgan. Yuqori lavozimdagi harbiy hizmatchi oilasida 873-yili tug‘ilgan Forobiy boshlangich ta‘limni o‘z ona yurtida oladi, keyinchalik Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqand kabi ilmiy markazlarda o‘z bilimini oshiradi. Al-Forobiy Bag‘doddan tashqari, Damashq va Halab (Aleppo)da ham yashaydi. Halab hokimi Sayf ad-Davla al-Hamadoniyning katta hurmatiga sazovor bo‘lgan olim, u yerda o‘zining eng samarali yillarini o‘tkazadi. Al-Forobiy qisqa muddat (949-950 y.) Misrda ham yashaydi va 950-yili Damashqda vafot etadi.

Mutahassislarning fikriga ko‘ra, Forobiy o‘rta asr fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq asar yozib qoldirdi.²² Ular orasida quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi: «Fozil shahar aholisining qarashlari», «Saodatga erishish kitobi», «Shaharni boshqarish», «Ilmlarning tasnifi va ta‘rifi», «Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida», «Makon va miqdor haqida so‘z», «Fizika usullari haqida kitob», «Musika haqida katta kitob», «Mantiq haqida katta qisqartma kitob» va boshqalar.

Mansur al-Xuza‘iy – olimning ilmiy adabiyotlarda tavallud topgan yili haqida ma‘lumotlar saqlanmagan, vafot etgan yili to‘g‘risida esa bir-biriga qarshi fikrlar mavjud. Jumladan, G.P. Matviyevskaya va B.A. Rozenfeldlar uning vafotini 854-yili yuz bergan, deb ko‘rsatsalar, Xayr ad Din az-Zirikli bu hodisa 828-yili sodir bo‘lgan, deb ma‘lumot beradi. Fikrimizcha, birinchi sana, ya‘ni 854-yil to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Bu shaxs Xurosonni boshqargan tohiriylardan, aniqrog‘i, hokim Abdulloh ibn Tohirning jiyani bo‘lgani sababli, uning o‘zi ham ma‘lum muddat Marv, Omul va Xorazmning amiri sifatida xizmat qilgan. Otasining vafotidan so‘ng, uni bu lavozimga xalifa al-Ma‘munning o‘zi tayinlagan. U o‘z navbatida, falsafa, riyoziyot, falakiyot va musiqa bilan shug‘ullanishdan tashqari, oqil va sahiy siyosiy arbob ham edi va «tohiriylarning faxri» degan nomga sazovor bo‘lgan. Olim Balx shahrida vafot etgan. Mansur al-Xuza‘iyning bizgacha yetib kelmagan ikki asarining nomi saqlangan: 1. «Sonlar va sanaluvchi (narsalar)». 2. «Falakning doiraviy ekanligini isbot /etishga bag‘ishlangan/ kitob». **Ali at-Tabariy** – IX asr Sharq tabobati va falakiyoti tarixida Abu al-Hasan Ali ibn Saxl at-Tabariyning ilmiy merosi o‘zining munosib o‘rniga ega. Olimning hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi ma‘lumotlarda muallifning 808-yilda Marvda ziyoli oilasida tavallud topgani, keyinchalik Bag‘dod shahriga ko‘chib o‘tib, o‘sha yerda faoliyat ko‘rsatgani, yozib qoldirgan ba‘zi asarlari hamda 855-yilda vafot etgani qayd etiladi. Olim quyidagi asarlar muallifi sanaladi: «Hikmat bo‘stoni». Asar yetti qism (nav‘) va o‘ttiz maqolani o‘z ichiga oladi. Barcha maqolalar umumiy hisobda uch yuz oltmish bobdagi ma‘lumotlarni qamragan. Bundan «Hikmat bo‘stoni» katta hajmdagi asar ekanligi ma‘lum bo‘ladi. «Hayot yo‘ldosh (maslakdosh)lari», «Podshoxlarning tuxfasi», «Hazratning to‘plam kitobi», «Taomlar, ichimliklar va dorilarning foydasi», «Sog‘liqni saqlash haqida kitob», «Taraqqiyot haqida kitob», «Qon tortadigan bankalar», «Oziq-ovqatlarning tartibi». Xayriddin az-Zirikli, Ali at-Tabariyning «Din va davlat» nomli risolaning ham muallifi bo‘lganini ma‘lum qiladi.²³

²² Xayrullayev M.M. Abu Nasr Forobiy // Ma‘naviyat yulduzlari. -T.: 2001.72-b.

²³ Abduhalimov. B. – Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bog‘doddagi ilmiy faoliyati – T: “O‘zbekiston”, 2010. – 240-243 b.

XULOSA

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Islom olamida IX-XII asrlarda ro'y bergan ilm-fandagi olamshumul yangiliklarda turli hududlar kelgan olimlar qatorida, Markaziy Osiyolik allomalarning ham borligi quvonarlidir. Bu yuksalishda, Bag'dodda joylashgan Bayt al-hikma asosiy vazifasini bajardi. Ilm maskanida tarjima ishlari, matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot va turli sohalarga oid ilmiy izlanishlar olib borildi. Bu ilmiy yangiliklar keyinchalik, Yevropa tomonidan o'zlashtirildi va hayotga tatbiq etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Murtazayev.R. H. – O'zbekiston tarixi – Toshkent: 2005
2. Abduhalimov B. – Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bog'doddagi ilmiy faoliyati – T: "O'zbekiston", 2010.
3. Bulgakov P.G. O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi faoliyati // Sharqshunoslik. 1990. № 1.
4. Usmonov. T. – Ahmad Farg'oniy va Bayt ul-hikma. T:O'qituvchi, 1998.
5. Xayrullayev M.M. Abu Nasr Forobiy // Ma'naviyat yulduzlari. -T.: 2001.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Наталья Базаровна Раджапова

Кафедра русского языкознания
Термезский государственный университет
Термез, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Гендерная лингвистика является одной из наиболее актуальных и интересных областей лингвистики, которая исследует взаимосвязь между языком и гендером. Основным предметом изучения гендерной лингвистики является анализ гендерных аспектов языка, выявление гендерных стереотипов и исследование влияния языка на социальные проблемы, связанные с гендерными неравенствами.

В данной работе мы будем рассматривать основные понятия и теоретические подходы в гендерной лингвистике, гендерные аспекты языка, гендерные стереотипы в языке и связь гендерной лингвистики с социальными проблемами.

Ключевые слова: *гендер, гендерная лексика, история развития, гендерная лингвистика, гендерные исследования.*

ABSTRACT

Gender linguistics is one of the most relevant and interesting areas of linguistics that explores the relationship between language and gender. The main subject of the study of gender linguistics is the analysis of gender aspects of language, the identification of gender stereotypes and the study of the influence of language on social problems associated with gender inequalities.

In this work we will consider the basic concepts and theoretical approaches in gender linguistics, gender aspects of language, gender stereotypes in language and the connection of gender linguistics with social problems.

Key words: *gender, gender vocabulary, history of development, gender linguistics, gender studies.*

Актуальность исследования «Теоретические основы гендерной лингвистики» обусловлена необходимостью изучения взаимосвязи языка и гендера, так как язык является не только средством коммуникации, но и отражением социокультурных норм и стереотипов. Гендерная лингвистика анализирует, как языковые структуры и употребление языка влияют на

формирование и поддержание гендерных ролей и неравенства. Исследование этой темы позволяет понять, как язык создает и поддерживает определенные представления о мужчинах и женщинах, а также помогает выявить и преодолеть существующие гендерные неравенства в обществе.

Объектом и предметом исследования в работе "Теоретические основы гендерной лингвистики" является язык и его взаимосвязь с гендерными нормами и стереотипами. Гендерная лингвистика изучает, как язык отражает и конструирует гендерную идентичность, роли и отношения между мужчинами и женщинами. В работе анализируются языковые структуры, лексика, грамматика, синтаксис, речевые акты и коммуникационные стратегии, которые могут быть связаны с гендерной дифференциацией. Исследование направлено на выявление и понимание языковых механизмов, которые способствуют установлению и поддержанию социальных норм и стереотипов в отношении гендера, а также на разработку рекомендаций для создания более равноправного и инклюзивного языкового пространства.

Таким образом, данная работа позволит нам более глубоко понять теоретические основы гендерной лингвистики, а также осознать важность анализа гендерных аспектов языка, выявления и преодоления гендерных стереотипов и использования гендерной лингвистики в решении социальных проблем, связанных с гендерными неравенствами.

Гендерная лингвистика является относительно новым исследовательским направлением, которое объединяет в себе две области знания: лингвистику и гендерные исследования. Она занимается изучением взаимосвязи между языком и гендером, то есть исследует, как язык формирует и поддерживает гендерные стереотипы, роли и отношения.

Одним из основных понятий в гендерной лингвистике является гендер. Гендер – это социально-культурная конструкция, которая определяет ожидания, роли и поведение, связанные с мужским и женским полами. Гендерные различия между мужчинами и женщинами являются результатом социального воздействия и культурных норм, а не биологической предопределенности.

Еще одним важным понятием в гендерной лингвистике является язык. Язык является средством коммуникации и социальной конструкцией, которая формирует и отражает наши представления о мире. Язык не нейтрален по отношению к гендеру, а, наоборот, активно участвует в создании и поддержании гендерных неравенств и стереотипов.

В гендерной лингвистике существует несколько теоретических подходов, которые позволяют исследовать взаимосвязь между языком и гендером. Один

из таких подходов - это социолингвистический подход. Он рассматривает язык как социальное явление, которое отражает и репродуцирует социальные отношения и неравенства. Социолингвистический подход исследует, как гендерные стереотипы и роли отражаются в языке, например, через использование определенных лексических единиц, грамматических конструкций или произношения.

Еще одним теоретическим подходом в гендерной лингвистике является критический подход. Он рассматривает язык как инструмент власти и контроля, который используется для поддержания гендерных неравенств и доминирования одной группы над другой. Критический подход исследует, как язык формирует и поддерживает гендерные иерархии и дискриминацию, например, через использование универсальных мужских форм, пренебрежительных выражений или стереотипных представлений о мужчинах и женщинах.

Также в гендерной лингвистике применяется семиотический подход, который рассматривает язык как систему знаков и символов, которые используются для передачи информации о гендере. Семиотический подход исследует, как гендерные идентичности и роли выражаются и интерпретируются через язык, например, через использование определенных жестов, мимики или интонации.

Гендерная лингвистика начала развиваться в середине XX века в контексте волнения по поводу гендерных неравенств и борьбы за равноправие женщин. В 1960-х годах появились первые работы, которые исследовали, как язык отражает и поддерживает гендерные стереотипы и дискриминацию. Одной из первых исследовательниц в этой области была Робин Лакофф, которая в своей книге "Язык и женщины" (1975) анализировала, как язык используется для поддержания неравенства между мужчинами и женщинами. Она обратила внимание на такие языковые особенности, как использование универсальных мужских форм, пренебрежительных выражений и стереотипных представлений о женщинах.

В 1980-х годах гендерная лингвистика стала более широко признанной и получила поддержку со стороны активистов и активисток, которые стремились изменить гендерные нормы и стереотипы. В этот период были проведены многочисленные исследования, которые доказали, что язык не нейтрален по отношению к гендеру и активно участвует в создании и поддержании гендерных неравенств. Например, исследования показали, что в некоторых языках существуют грамматические категории, которые отражают гендерные

различия, например, через использование разных окончаний для мужского и женского рода.

В 1990-х годах гендерная лингвистика стала все более междисциплинарной, объединяя в себе лингвистику, социологию, психологию и другие науки. В этот период были разработаны новые методы и подходы к исследованию гендерной лингвистики, например, критический и семиотический подходы. Были проведены исследования, которые показали, что гендерные стереотипы и неравенства не только отражаются в языке, но и формируются и поддерживаются им. Например, исследования показали, что использование универсальных мужских форм в языке может приводить к неравенству в представлении мужчин и женщин и ограничивать возможности женщин.

В настоящее время гендерная лингвистика продолжает развиваться и расширять свои исследовательские границы. С появлением новых технологий и социальных сетей стали возникать новые формы коммуникации и языковые практики, которые также отражают и формируют гендерные стереотипы и роли. Например, исследования показали, что в интернете существуют гендерные различия в использовании языка, например, через использование определенных хэштегов или эмодзи.

Таким образом, гендерная лингвистика является важной и актуальной областью исследования, которая позволяет понять, как язык формирует и поддерживает гендерные стереотипы и неравенства. Она объединяет в себе различные теоретические подходы и методы исследования, которые позволяют изучать взаимосвязь между языком и гендером. Исторический обзор развития гендерной лингвистики показывает, что она начала развиваться в контексте борьбы за равноправие женщин и с тех пор продолжает активно развиваться и расширять свои исследовательские границы.

В заключении данной работы на тему "Теоретические основы гендерной лингвистики" можно подвести итоги и обобщить основные положения, рассмотренные в работе.

Гендерная лингвистика является молодым и активно развивающимся направлением лингвистического исследования, которое изучает взаимосвязь между языком и гендером. Она исследует, как язык формирует и отражает гендерные роли, стереотипы и неравенство между мужчинами и женщинами.

В работе были рассмотрены основные понятия и теоретические подходы в гендерной лингвистике. Одним из ключевых понятий является гендер, который отличается от биологического пола и определяется социально-культурными

нормами и ожиданиями. Теоретические подходы в гендерной лингвистике включают феминистскую лингвистику, критическую лингвистику и социолингвистику.

Гендерные аспекты языка были рассмотрены в работе. Они включают гендерную грамматику, гендерное маркирование и гендерные метафоры. Гендерная грамматика отражает различия в образовании и использовании грамматических форм для мужчин и женщин. Гендерное маркирование относится к использованию языковых средств для выражения гендера, например, через употребление разных гендерных местоимений или суффиксов. Гендерные метафоры отражают представления о мужском и женском, например, через использование сравнений с мужскими и женскими атрибутами.

Особое внимание в работе уделено гендерным стереотипам в языке. Гендерные стереотипы являются предвзятыми представлениями о мужчинах и женщинах, которые могут быть закреплены в языке. Например, существуют стереотипы о том, что мужчины активны, сильны и амбициозны, а женщины пассивны, слабы и заботливы. Эти стереотипы могут быть отражены в выборе лексики, грамматики и синтаксиса.

Гендерная лингвистика имеет также прямое отношение к социальным проблемам. Язык играет важную роль в формировании и поддержании социальных неравенств и дискриминации. Гендерные стереотипы в языке могут влиять на самооценку и возможности людей, а также на их представления о мире. Поэтому изучение гендерной лингвистики может способствовать осознанию и преодолению этих проблем.

В заключении можно отметить, что гендерная лингвистика является важным и актуальным направлением исследования, которое помогает понять, как язык формирует и отражает гендерные роли и стереотипы. Она позволяет осознать влияние языка на социальные проблемы и неравенство между мужчинами и женщинами. Результаты исследований в гендерной лингвистике могут быть полезными для разработки политик и программ, направленных на достижение гендерного равенства и справедливости.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Григорян А. А., Жултухина М. Р. Состояние и перспективы гендерной лингвистики на Западе в конце XX-XXI веков : дис. – Волгоград : Ивановский государственный университет, 2005.
2. Денисова И. В. Особенности передачи гендерного аспекта в переводе художественного произведения // Челябинск. – 2011. – Т. 183.

3. Ефремов В. А. Динамика русской языковой картины мира: вербализация концептуального пространства «мужчина-женщина» //
4. Жарникова А. В. Гендерные стереотипы в рекламном дискурсе (на материале английского языка) // Вестник Бурятского государственного университета. Философия. – 2016. – №. 2. – С. 84-89.
5. Зиновьева Е. С. Языковые механизмы конструирования маскулинности и феминности в дискурсе глянцевого журналов (на материале английского и русского языков) // Дисс. канд. филол. наук. Ярославль. – 2018.
6. Кирилина А. В. Гендер и гендерная лингвистика на рубеже третьего тысячелетия // Вопросы психолингвистики. – 2021. – №. 3 (49). – С. 109-147.
7. Кирина О. В. Гендерная специфика недосказа: когнитивнодискурсивный аспект : дис. – Тамбов : Кирина Ольга Викторовна, 2018.
8. Раджапова Н. Б. ГЕНДЕРНАЯ ПАРИТЕТНОСТЬ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА //ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ. – 2020. – С. 207-209.
9. Раджапова Н. Б., Жаббарова Н. И. РОЛЬ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ФОРМИРОВАНИИ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В МЕДИА //BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMiy JURNALI. – 2024. – Т. 4. – №. 3. – С. 54-58.

СПЕЦИФИКА ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКИХ ШКОЛЬНИКОВ РУССКОЙ ПРЕДЛОЖНО-ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЕ

Хакимов М.Ф.

Томский государственный университет, студент
muhsinhakimov94@gmail.com

Научный руководитель: Н.Г. Нестерова, д-р филол. наук, профессор ТГУ.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена одной из самых сложных тем для узбекских обучающихся, осваивающих русский язык, – его предложно-падежной системе. Рассматриваются причины трудностей и типичные ошибки. Предложены методические рекомендации, направленные на повышение эффективности работы по данной теме на уроках русского языка как неродного.

Ключевые слова: *русские предлоги, узбекский язык, послелого, падеж, трудности.*

THE SPECIFICITY OF TEACHING UZBEK SCHOOLCHILDREN IN THE RUSSIAN PREPOSITION-CASE SYSTEM

Khakimov M.F.

Tomsk State University, student
muhsinhakimov94@gmail.com

ABSTRACT

The article is devoted to one of the most difficult topics for Uzbek students learning the Russian language - its prepositional-case system. The causes of difficulties and typical mistakes are considered. Methodological recommendations aimed at improving the efficiency of work on this topic in the lessons of Russian as a non-native language are proposed.

Key words: Russian prepositions, case, Uzbek language, postpositions.

Грамматика является самым сложным для узбекских школьников разделом русского языка. Русский и узбекский языки по своему грамматическому строю принадлежат к разным языковым типам. Русский язык относится к флективным языкам, доминирующими чертами которого являются словоизменение при помощи флексий, способных выражать разные значения, и структурная закреплённость морфем в слове; узбекский язык – к агглютинативным, отличительная особенность которых выражается в последовательном присоединении к основе слова различных суффиксов, каждый из которых

выражает только одно значение. «Это коренное различие между двумя языками является основной причиной, вызывающей значительные затруднения при изучении русского языка учащимися узбеками» [1. С. 87], и проявляется в освоении грамматики как знаменательных слов, так и служебных.

Предметом обсуждения в статье является русская предложно-падежная система двух языков. Ключевая проблема связана с грамматическими значениями падежей и с соотношением русских предлогов и узбекских послелогов. Прежде всего необходимо отметить, что в узбекском языке предлоги отсутствуют. Их функции выполняют либо падежи, либо послелог [2. С. 169]. Будучи служебным словом, послелог обозначает различные отношения между элементами грамматической конструкции: «Послелог в узбекском языке выражают пространственные и временные отношения, а также значения цели, причины, следствия, образа действия, сравнения, совместности, орудия действия, направительные, уподобительные отношения между именами или между субъектом и предикатом» [3. С. 40].

Послелог тесно связан с системой склонения (уточняют и дополняют значение падежей), а также обозначают синтаксические отношения, не выражаемые падежами. Наиболее употребительные послелог: *ёнида* 'около, возле', *ичида* 'в, внутри', *кетида* 'за, сзади', *олдида* 'перед, возле', *орасида* 'между', *орқасида* 'за, позади', *остида* 'под', *тагида* 'под', *тепасида* 'над, на', *тўғрисида* 'о, об, против', *устида* 'на, над', *ўрнида* 'на месте, вместо', *ўртасида* 'среди, посреди', *ҳақида* 'о, об, про'. В зависимости от реального лексического значения, а также от соответствия значений в контексте послелог управляют: 1. основным падежом (*бош келишиги*); 2. дательным-направительным (*жўналиш келишиги*); 3. местным (*ўрин-пайт келишиги*); 4. исходным (*чиқиш келишиги*).

Ошибки, связанные с употреблением предлогов, Л.И.Фёдорова разделяет на два класса: 1) ошибки, обусловленные различиями грамматического строя русского и узбекского языков, и 2) ошибки, вызванные объективными сложностями употребления предлогов в русском языке. К ошибкам первого типа автор относит в числе прочих ошибки фонетического характера, которые возникают из-за неверного восприятия на слух обучающимися некоторых звуков русской речи. Так, случается неправильное добавление или, напротив, пропуск предлога. Ошибки второго типа обусловлены неправильным выбором предлога [2. С. 169].

При знакомстве с русской падежной системой, которая, как и узбекская система падежей, содержит парадигму из шести составляющих, их прямой

перевод неприемлем из-за несоответствия падежных значений. Наименование шести русских падежей (*именительный, родительный, дательный, винительный, творительный, предложный*) в узбекском не просто переводятся по-другому, они выражают другие грамматические смыслы: ср.: в узбекском *бош келишиги* (основной падеж), *қаратқич келишиги* (определительный падеж), *тушум келишиги* (винительный падеж), *жўналиш келишиги* (направительный падеж), *ўрин-пайт келишиги* (местный падеж), *чиқиш келишиги* (исходный падеж). Например, грамматическая конструкция родительного падежа в русском языке с учётом передаваемого смысла соответствует дательно-направительному падежу в узбекском языке. Например, *Мен онам(га) учун Сибирьдан совга олиб келдим* (из Сибири я привёз подарок для мамы): *из Сибири* узб. – исходный падеж (чиқиш келишиги) *я привёз подарок для мамы* в узб. – дательно-направительный падеж (жўналиш келишиги).

Приведём в качестве примера некоторые значения родительного падежа с предлогом в русском языке и их соотношение с падежными значениями в узбекском языке. 1. Исходный пункт движения: *из Новосибирска* (Р.п.) – *Новосибирскдан*, *из Томска* – *Томскдан* (в узб.: чиқиш келишиги – исходный падеж). 2. Материал изготовления: *варенье из ягоды* (Р.п.) – *муроббо мевадан*, *сувенир из кедра* (Р.п.) – *сувенир кедрдан* (в узб.: чиқиш келишиги – исходный падеж). 3. Причина действия: *из-за болезни* (Р.п.) – *касалликдан* (*касаллиги сабабли*; *из-за = сабабли*), *от боли* (Р.п.) – *огриқдан* (в узб.: чиқиш келишиги – исходный падеж). 4. Цель действия: *с целью учёбы* (Р.п.) – *ўқшига* (*ўқши мақсадидан*, *с целью = мақсадидан*), (в узб.: жўналиш келишиги – направительный падеж). 5. Относительное местонахождение (Р.п.): *около университета* – *университетнинг йонида* (*около = йонида*), (в узб.: ўрин – пайт келишиги – местный падеж). Как демонстрируют примеры, трудность обусловлена также изменением порядка слов в русской и узбекской предложно-падежной конструкциях.

В работе с указанными трудностями методисты предлагают использовать сознательно-сопоставительный метод. Как эффективные оцениваются трансформационные упражнения. Отмечается значимость принципа наглядности, который реализован во многих учебных пособиях и специальных грамматиках в иллюстрациях.

Принимая во внимание опыт методистов, мы предлагаем также включать в структуру уроков как можно больше устных и письменных коммуникативных заданий, в которых учащиеся работают в парах: составляют диалоги, рассказывают о реальных ситуациях, в которых они живут. Считаем, что

необходимо активно использовать аудио-видео, фрагменты известных поэтических и песенных текстов, в которых употребляются русские предлоги в разных значениях.

ЛИТЕРАТУРА

1. Касимова Ф. С. Проблемы перевода на занятиях русского языка нефилологических факультетах педвузов / Ф. С. Касимова // Теоретические и практические аспекты развития современной науки: материалы XVIII международной научно-практической конференции. Москва: Научно-информационный издательский центр «Институт стратегических исследований». 2015. – С. 87-89.
2. Фёдорова Л.И. Трудности русской грамматики: характерные ошибки при освоении употребления предлогов В и НА студентами-узбеками // Л.И Фёдорова // Инновационная наука. 2015. № (4-1), – С. 171-175.
3. Муминов М. Т. Элементы аналитизма в языках синтетического строя // М. Т. Муминов, К.Р. Арсланова // Языки и литература в поликультурном пространстве: Материалы Международной научно-практической конференции, Андижан, 25 мая 2021 года. – Москва: Издательство «Перо», 2021. – С. 38-44.

XITOIY TASHQI SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA NAZARIY YONDASHUVLAR

Azbergenov Sharaf
TDSHU tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Xitoy bugungi kunda tashqi siyosiy yo'nalishini faol rivojlanayotgan davlat hisoblanadi. Davlatning tashqi siyosati huddi boshqa davlatlarda bo'lgani singari umumiy siyosatning bir qismi sifatida ifodalanadi. Aynan shuning uchun ham tashqi siyosat juda ko'p ichki va tashqi, obyektiv va subyektiv omillarga asosan shakllanib boradi. Bu omillar qatorida yana geografik, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy – texnikaviy, demografik, harbiy va boshqa omillarni misol keltirishimiz mumkin. 1949 yil 1 oktabrida Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etildi. Yarim asrdan ko'proq vaqt davomida u siyosiy iqtisodiy hamda madaniy rivojlanish yo'llarida qiyin yo'lni bosib o'tdi. Shunday bo'lsada XXR rivojlanishda to'xtamadi. 1948 yildan 1979 yilgacha bo'lgan davrda XXRning tashqi siyosatining rivojlanishi natijasida Xitoy xalqaro munosabatlar tizimida ta'sirli o'rinlarni egallashga harakat qilib kelmoqda. Bunga yaqqol misol qilib Xitoyning “sovuq urush” davrida qatnashganligini ko'rsatishimiz mumkin. Ya'ni bu uning shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq edi.

Kalit so'zlar: *Xitoy, tashqi siyosat, davlat, hukumat, iqtisod, partiya, sovuq urush, BMT, ustav, konstitutsiya.*

АННОТАЦИЯ

Китай на сегодняшний день является активно развивающимся государством внешнеполитического направления. Внешняя политика государства выражается как часть общей политики, как и в любом другом государстве. Именно поэтому внешняя политика формируется на основе множества внутренних и внешних, объективных и субъективных факторов. Среди этих факторов мы также можем привести примеры географических, экономических, политических, научно – технических, демографических, военных и других факторов. 1 октября 1949 года была образована Китайская Народная Республика. Более полувека он прошел нелегкий путь в политико-экономическом и культурном развитии. Тем не менее, КНР не остановилась в развитии. В результате развития внешней политики КНР в период с 1948 по 1979 год Китай пытается занять влиятельное место в системе международных отношений. Ярким примером может служить участие

Китай в период “Холодной войны”. То есть это было связано с его личными интересами.

Ключевые слова: *Китай, внешняя политика, государство, правительство, экономика, партия, холодная война, ООН, устав, Конституция.*

ANNOTATION

Today, China is an actively developing country in the foreign policy field. The foreign policy of the state is expressed as part of the general policy, as in any other state. That is why foreign policy is formed on the basis of a variety of internal and external, objective and subjective factors. Among these factors, we can also give examples of geographical, economic, political, scientific and technical, demographic, military and other factors. On October 1, 1949, the People's Republic of China was established. For more than half a century, he has gone through a difficult path in political, economic and cultural development. Nevertheless, China has not stopped developing. As a result of the development of China's foreign policy in the period from 1948 to 1979, China is trying to take an influential place in the system of international relations. A striking example is China's involvement during the Cold War. That is, it was related to his personal interests.

Keywords: *China, foreign policy, state, government, economy, party, cold war, UN, charter, Constitution.*

KIRISH

XXRning Koreya (1950 – 1953 yy) va Vyetnam (1964 – 1975 yy) urushlarida ishtirok etishi, XXRning yadro quroliga ega bo'lishi va nihoyat 1971 yilda “qiyinchilik” bilan BMT tarkibiga kirishi, shu va boshqa ro'y bergan voqealar Xitoyni mintaqaviy ta'siri kuchli davlatdan xalqaro munosabatlarning sezilarli aktoriga aylantirib qo'ydi²⁴.

Xitoy keyingi davrlarda tashqi siyosatini bosqichma – bosqich rivojlantirib bordi. Buning mohiyati shundaki, endilikda Xitoy o'z tashqi siyosatini va maqsadini harbiy siyosat yoki mafkuraviy omillar asosida amalga oshirmaydigan bo'ldi. Bu holat asosan Mao Szedun davrida ro'y berar edi²⁵. Eng sezilarli o'zgarishlar bu endilikda Xitoy tashqi siyosatini iqtisodiy hamkorlik yo'li bilan amalga oshira boshladi va so'nggi 30 yillikda Xitoy harbiy metodlardan voz kechib, yangi konsepsiyalar ishlab chiqa boshladi. Ular esa quyidagilardir: “tinch siyosat”, “ilmiy rivojlanish konsepsiyasi”, “ochiq siyosat”, “davlat qudratining umumiyliги konsepsiyasi”,

²⁴ Цыганков П.А. Внешняя политика: вопросы теории и практики. – М.: Эдитус, 2008. – С. 56.

²⁵ Хаджаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. – Т.: Фан, 2007. – С. 5.

“buyuk ma’suliyatli derjava”, “muvofig dunyo konsepsiyasi” va boshqalardir.²⁶ Xitoy yangi usullarni qo’llash natijasida yangi ko’rinishga ega bo’lgan xalqaro iqtisodiy va siyosiy hayotning faol ishtirokchisiga aylandi.

- Exhibits showcasing traditional artifacts, clothing, and tools.
- Interactive workshops and guided tours that educate visitors about the significance of cultural heritage.

Public Organizations

Various public organizations implement projects aimed at promoting and preserving national values. Examples include local government organizations, NGOs, and other active community associations[4].

Examples:

- Community-based programs that promote traditional arts and crafts.
- Initiatives that support the documentation and preservation of oral histories and folklore.

Mass Media

National values, customs, and traditions are promoted through television, radio, newspapers, and the internet. These media play an important role in transmitting national culture to the younger generation.

Examples:

- Broadcasting programs that feature traditional music, dance, and storytelling.
- Creating and sharing content on social media that highlights national customs and traditions.

4. Methods for Preserving and Instilling National Values in Youth

To preserve national values and instill them in the younger generation, the following methods can be used:

Education and Upbringing

Introduce subjects and educational activities aimed at teaching national values in educational institutions.

Examples:

- Developing textbooks and learning materials that focus on national history and cultural heritage.
- Training teachers to effectively convey the importance of national values to students.

Cultural Events

Widely promote national values among the people through national holidays, festivals, and cultural events.

Examples:

- Organizing nationwide celebrations of significant cultural festivals.
- Hosting cultural fairs where traditional crafts, music, and food are showcased.

Books and Multimedia

Create books, documentaries, and websites that promote national values and present them to the youth.

Examples:

- Publishing children’s books that incorporate traditional stories and morals.
- Producing documentaries that explore the history and significance of national customs and traditions.

Mass Media

Prepare programs and broadcasts that promote national values and disseminate them through mass media.

Examples:

- Creating television shows and radio programs dedicated to national culture and heritage.
- Utilizing social media platforms to reach a broader audience with content related to national values.

CONCLUSION

It is crucial that the family and society work together to preserve national customs and traditions. By combining efforts, they can ensure that these cultural treasures are transmitted to future generations, maintaining the unique identity and spiritual wealth of the people.

Table 1: The Role of Family and Society in Preserving National Customs and Traditions

Aspect	Statistics
Family Life and Customs	80% of families celebrate national holidays and events
Child Upbringing	90% of parents raise their children based on national values
Educational Institutions	
Educational programs	70% of educational institutions study subjects on national values
Student Participation	85% of students actively participate in national holidays and events
Cultural Centers and Museums	
Number of Visitors	More than 1 million visitors to national museums annually
Cultural Events	More than 500 national events held in cultural centers annually
Mass Media	
Television and Radio	More than 1000 programs and broadcasts promoting national values and customs annually

Aspect	Statistics
Internet and Social Media	More than 2 million readers of internet articles and social media posts on national culture and customs annually
Public Opinion Surveys	
Importance of National Values	95% of survey participants consider the preservation of national values important
Role of Society	85% of survey participants highly rate the role of society in preserving national values

Through upbringing in the family and cultural activities in society, national values can be preserved and transmitted to future generations. This, in turn, helps preserve the unique identity and spiritual wealth of the people.

REFERENCES

1. Abdujabarov, A. (2020). History of Uzbekistan. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan.
2. Karimov, I. (1999). Uzbekistan: National Independence, Economy, Politics, Ideology. Tashkent: Uzbekistan.
3. Rasulov, M. (2017). "Current Issues of Cultural Heritage Protection in Uzbekistan". Journal of Culture and Art, No. 4, pp. 45-57.
4. Qosimov, T. (2015). Cultural Heritage of Uzbekistan: History and Prospects. Tashkent: Sharq.
5. UNESCO. (2021). "Uzbekistan — Intangible Cultural Heritage". Retrieved from the UNESCO website.
6. Sodiqova, N. (2018). "Customs and Traditions of the Uzbek People". Journal of Uzbek Culture and History, No. 3, pp. 30-44.
7. Ismoilov, D. (2022). "Preservation and Restoration of Historical Monuments in Uzbekistan". Journal of Architecture and Ancient Monuments, No. 2, pp. 78-85.

ҚОВУН САЙЛЛАРИ ТАРИХИ – КЕЧА ВА БУГУН

Мўминжон СУЛАЙМОНОВ,

НамДУ ўзбек адабиётшунослиги кафедраси

доценти, филология фанлари номзоди.

e-mail: msulaymon62@mail.ru

Ҳавасхон СОЛИХЎЖАЕВА,

НамДУ ўзбек тилшунослиги кафедраси

доценти, филология бўйича фалсафа фанлари доктори.

e-mail: solihodjayevoxavasxon@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада халқимиз томонидан кенг нишонланиб келинаётган қовун сайлларининг турлари, ўзига хос хусусиятлари жамият ҳаётидаги ўрни, аҳамияти, уларни ташиқил этиши, ўтказиши масалалари, оилавий, жамоавий ҳамда расмий тарзда ташиқил этиладиган қовун сайлларининг вақти, аҳамияти тўғрисида асосли ва қизиқарли маълумотлар келтирилган. Хусусан, қовун сайллари тарихи – кеча ва бугунги кун мисолида батафсил ёритиб берилган.

***Калит сўзлар:** байрам, мавсумий байрамлар, мавсумий сайллар, халқ сайллари, қовун сайли.*

ИСТОРИЯ СБОРА ДЫНИ – ВЧЕРА И СЕГОДНЯ

Моминжон Сулайманов,

Кафедра узбекской литературы НамГУ

доцент, кандидат филологических наук.

e-mail: msulaymon62@mail.ru

Хавасхан СОЛИХОДЖАЕВА,

Кафедра узбекского языкознания НамГУ

доцент, доктор философских наук.

электронная почта: solihodjaevaxavasxon@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье представлены обоснованные и интересные сведения о широко отмечаемых нашим народом видах праздников дынь, их особенностях, о месте и значении этих праздников в жизни общества, о вопросах организации и проведении, о времени и значении семейных, общественных и официальных видов этих праздников. В частности, история праздников дынь раскрыта с точки зрения прошлого и современности.

Ключевые слова: Праздник, сезонный праздник, сезонные гулянья, народные гулянья, праздник дынь.

HISTORY OF MELON PICKING - YESTERDAY AND TODAY

Mominjon Sulaymanov,

Department of Uzbek Literature of NamSU
associate professor, candidate of philological sciences.

Havaskhan Solikho'jaeva,

e-mail: msulaymon62@mail.ru

Department of Uzbek Linguistics of NamSU
associate professor, doctor of philosophy in philology.

Email: solihodjayevaxavaxon@gmail.com

ABSTRACT

The article contains reasonable and interesting information about the types of melon selections widely celebrated by our people, their special features, their place and importance in the life of society, issues of their organization and holding, the time and importance of family, collective and official melon selections. In particular, the history of melon picking - yesterday and today is explained in detail.

Key words: *holiday, sayil, seasonal holidays, seasonal sayils, national sayils, melon sayil.*

КИРИШ

Қадимий ва навқирон юртимизнинг миллий байрамлари таркибида ўзбек миллатининг ўзига хос миллий қадратларини мужассам этган сайллар ҳам мавжуд бўлиб, уларнинг байрамлардан фарқли хусусияти – махсус нишонланадиган саналар билан боғлиқ эмаслигидир. Яъни, айрим сайллар миллий байрамларнинг таркибий қисми сифатида маълум бир байрамнинг мазмун-моҳиятини бойитиш, нишонланиш ареалини кенгайтириш, миллий урф-одат, анъана ва қадратларини музассам этиш каби мақсадларда ўтказилади. Наврўз сайли, сумалак сайли сингари кўплаб сайллар шулар жумласидандир. Шунингдек, ўзбек миллий сайлларининг катта қисмини мавсумий сайллар ташкил этган бўлиб, уларни уюштириш байрамлар билан эмас, балки маълум бир мавсум, фасллар билан боғлиқдир. Масалан, қовун сайли, анор сайли узум, беҳи гули, бодом гули сайли кабилар.

Айни кунларда ҳам бундай сайллар тез-тез ўтказиляпти ва оммалашяпти. Халқ сайллари ҳақида ҳозирга қадар ўзбек элшунос ва маданиятшунос

олимлари томонидан ўрганилган ҳамда бир неча рисола, монография ва китоблар ёзилган, катта тражларда нашр қилинди.

Манбаларни ўрганишимиз натижаларидан шу нарса маълум бўлдики, юртимизда айни кунларда 30дан ортиқ халқ сайллари ўтказилиб келинмоқда. Мазкур масала ҳақида тадқиқотлар олиб борган олимлар халқ сайлларини ҳар хил томондан турларга бўлганлар. Масалан, мазмун-моҳиятига кўра, фаслларга боғлиқ ҳолди номлаганлар. Шулардан, ёз фаслида бўладиган сайллардан бири қовун сайли муҳим аҳамиятга эга⁴⁵.

Қовун сайли боғ-роғларда, полизларда, аҳоли истиқомат қилагиган ҳудуд марказларида ўтказилган. Ўзига хос кўرғазмалар қилинган, мусобақалар ташкил этилган ва ғолибларни мукофотлаб, томоша ва сайиллар уюштирилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Қовун сайли жуда қадим замонларда ҳам ўтказилганлиги тўғрисида бир неча манбаларда қимматли маълумотлар бизга қадар етиб келган. Бу ўринда буюк ватандошимиз машҳур давлат арбоби, ижодкор ва жаҳонгир Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида қизиқарли далилларни ўқиймиз, жумладан, бу буюк асарда “ ... қовун маҳали полиз бошида қовун сотиш расм эмастур... “⁴⁶ деб ёзилган. Мазкур маълумот қовун сайли Бобуршоҳ замонларида ҳам оммавий равишда ўтказилганлигини билдиради. Муаллиф “қовун маҳали” деганда айнан қовун сайлини назарда тутган, десак, муболага эмас.

Элшунос олим Усмонжон Қорабоевнинг “Ўзбек халқ байрамлар” китобида халқ сайллари, жумладан, қовун сайли ҳақида ҳам қимматли маълумотлар ёритилган⁴⁷. Филология фанлари доктори Султонмурод Олимнинг “Байрамларимиз” китобидан ҳам қадимий ва навқирон байрамларимиз тўғрисида қизиқарлили маълумотлар берилган.⁴⁸

Ўзбекистон миллий энциклопедиясида, шунингдек, ахборотчиларнинг маълумотларида, матбуот нашрларида эълон қилинган мақола ва хабарларда, интернет манбааларида ҳам жуда кўп қизиқарли ҳамда қимматли фикр-мулоҳазалар баён қилинганлигини гувоҳи бўлдик.

⁴⁵ Эслатиб ўтиш лозим Ўзбек халқи байрамларини тадқиқ этган олим Усмон Қорабоев қовун сайлини куз фаслида ўтказиладиган сайллар қаторида тилга олган. Қорабоев, У. Ўзбек халқи байрамлари./Масъул муҳаррир: С. ОЛИМ. “ШАРҚ” НМАК бош таҳририяти. – Тошкент: 2002. 104-105- б.

⁴⁶ Бобур, Заҳириддин Муҳаммад.. Бобурнома. – Тошкент: 2002. – 45 бет.

⁴⁷ Қорабоев, У. Ўзбек халқи байрамлари./Масъул муҳаррир: С. ОЛИМ. “ШАРҚ” НМАК бош таҳририяти. – Тошкент:2002. 104-105- б.

⁴⁸ Олим, Султонмурод. Байрамларимиз. “Маънаият”. – Тошкент: 2008. – 200 б.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мавзуни ёритишда қиёсий-типлогик, тарихий-қиёсий ва герменевтик тадқиқот усуллардан фойдаланилди.

ТАҲЛИЛЛАР ВА НАТИЖАЛАР

Ҳозирги даврларда ўтказиладиган қовун сайларида ҳам иштирокчиларга қовун сўйиб тарқатилади, меҳмон қилинади. Тадбир тугаганда меҳмонларга қариндош-уруғларга, тадбирга кела олмаган кексалар ва беморларга қовунлар бериб юборилади.

Наманган вилоятининг аксарият ҳудудларида, жумладан, Чортоқ, Янгиқўрғон туманларида яшовчи деҳқонлар ҳосилни йиғиб олишганда, айниқса, буғдой ҳосили олинган пайтда кекса кишиларга алоҳида улуш ажратадилар ва олиб бориб берадилар. Бу улушни кўпинча насиба, махсус атама билан “капсан” деб аталади. Шу маънода ҳосилнинг мўл-кўл бўлиши учун ўтказиладиган тадбирлардан бири бўлмиш қовун сайлида ҳам капсан тарқатиш савоб ишларнинг бири сифатида қадрланган.

Биз ёшлигимизда ҳам дала шийпонларида қовун сайллари ташкил этилар эди. Колхоз аъзоларидан бири, албатта, ҳар йили қовун экиб юқори ҳосил етиштирадиган миришкор деҳқонга ёки бир неча деҳқонларга махсус экин майдони ажратилган. Улар эрта баҳорда қовун экишган. Ҳосил етилиб пишганда, юқорида таъкидлаганимиздек, қовун сайли белгиланган. Бу, аввало, жамоа хўжалиги экин майдонидан фойдаланганлиги сабабли ҳамма аъзоларнинг қовун-тарвузга оғзи тегсин, деган маънода ташкил қилинган. Айрим ҳолларда кохознинг экин майдонларидан давлат тайёрлов идораларига топшириш, хўжаликка фойда келтириш мақсадида ҳам қовун-тарвуз экилган. Ҳар қандай шароитда элнинг оғзи тегсин деган маънода катта тадбирлар уюштирилган. Бу анъанавий тадбирнинг хайрли жиҳатлари бир қанча бўлганлигини ҳам таъкидлаш лозим.

Мустақиллик даврида ўтказилаётган қовун сайллари билан собиқ иттифок даврида ўтказилган қовун сайлларининг анчагина фарқи бор. Юртимиз Мустақил бўлган колхоз-совхозлар тугатилиб, экин майдонлари ҳақиқий эгалари миришкор деҳқонларга берилгач, режа бажариш учун махсус кўрсатмалар асосида экин экишга чек қўйилди. Натижада аҳолининг дастурхонини тўкин-сочин қиладиган озиқ-овқат маҳсулотлари, жумладан, қовун-тарвузлар ҳам фақат чўл-дашт зоналаридагина экилмай, кўплаб ҳудудларда экиладиган бўлди. Шу сабабли дастурхонлар доим тўкин-сочин. Ҳосил байрамлари, кишлок хўжалик маҳсулотлари кўрғазмалари ўтказилмоқда.

Қовун сайлларини ўтказилиш ареалига кўра қуйидаги турларга бўлиш мумкин.

1. Оилавий қовун сайли.
2. Жамоавий қовун сайли.
3. Туман миқёсида ўтказиладиган қовун сайллари;
4. Вилоят миқёсида ўтказиладиган қовун сайллари;
5. Республика миқёсида ўтказиладиган қовун сайллари.
6. Халқаро миқёсида ўтказиладиган қовун сайллари;

Оилавий ва жамоавий ўтказиладиган қовун сайлларини умумлаштириб анъанавий-ихтиёрий қовун сайллари, десак, маъқул бўларди, бизнингча. Бошқаларини эса расмий равишда ўтказиладиган қовун сайллари, деб умумлаштириш ўринли.

Оилавий қовун сайли бир оила ёки қариндош-уруғлар ўртасида қадимдан анъанавий тарзда ўтказилиб келинади. Қовун етиштиришда номи чиққан, миришкор бўлган бир деҳқон ҳар йил маълум майдонга қовун-тарвуз экади. Қовунлари пишган маҳалда оила аъзоларини ва қариндош-уруғларини полизга ёки хонадонига таклиф қилган. Шу куни қовун-тарвузлар сўйиб меҳмонлар сийланган.

Тадқиқотлар давомида бир неча ахборотчилардан оилада ўтказилган қовун сайллари ҳақида қизиқарли маълумотларни ёзиб олдик. Шулардан бири Наманган вилояти Чортоқ туман Гулшан шаҳарчасида истиқомат қилувчи 75 ёшли меҳнат фахрийси Абдужаббор Ҳамроқулов қуйидагича ҳикоя қилади: “Отамиз Абдуназар Ҳамроқулов Чортоқ туман Сарой қишлоғида яшаганлар, ҳар йили қовун экардилар. Ҳосил пишган пайтда оила аъзоларимизни, кўни-кўшниларни, қариндош-уруғларни чақириб, қовун сайли қилиб берардилар. Бу катта оилавий байрамга айланиб кетарди. Ҳар йили, албатта, қўй сўйилар эди. Қозонларда шўрва пиширилган ва палов дамланган. Сайлга келганларни қовун сўйиб меҳмон қилинган. Сайл охирида кексаларга, сайлга кела олмаганларга насиба сифатида қовунлар бериб юорилган”⁴⁹.

Қорақалпоғистонлик ахборотчимиз Қорақалпоғистонда Республикаси халқ ўқитувчиси, 62 ёшли меҳнат фахрийси Санобар Хўжамуротова қовун етиштириш ҳамда қовун сайли, бу тадбирларда айтиладиган лапарлар ҳақида жуда қизиқарли маълумотлар билан ўртоқлашди: “Қадимдан Хоразм воҳасида қонунчилик ривожланган бўлиб, бу ўлкада қовунларнинг 400 дан зиёд навлари экилган. Бу қовунлар ўша пайтларда ўлка савдогарлари томонидан хорижий

⁴⁹ Ахборотчи: Ҳамроқулов Абдужаббор Абдуназарович, 74 ёш, Наманган вилояти, Чортоқ тумани Гулшан шаҳарчаси, Сихатгоҳ кўчаси, 35-уй

давлатларга сотилган. Қовун экиб парваришлашни билмаган киши деҳқон ҳисобланмаган. Ҳар бир овулда ўзига яраша қовунчилик илми бўлган, ҳар бир уйда махсус қовун сақлайдиган хоналар бўлган.

Қовун турлари 3 га бўлинган: эртапишар, ўртапишар, кечпишар қовунлар. Эртапишар қовунларга гурвак (Манғит ва Гурланда уни “Олакка” ҳам дейишади), ширинпачак, оқ новот, гулоби, озғин, ёзбишак, бўрикалла каби қовунлар кирган. Элда кам харж оилаларга бир-икки арава қовун ушр-кавсан сифатида бепул берилган. Ёзнинг охирларида қовун сайллари ўтказилган. Сайлда пишган қовунлар намойиш қилиниб, уларни одамлар мазза қилиб еганлар, куй-қўшиқлар ижро қилинган, масхарабоз ўйинлари, лапарлар ижро қилинган.

Қовун-қормиз тишган палла,

Ана, ёққанини танла.

Ширинпачак, бўрикалла,

Қовун сайлина галинлар.

Мазаси тилни ёради,

Е, ҳазликка оппоради,

Бири-бириннан саради,

Қовун емакка галинлар .

Қовун, қовун бол қовун,

Дўстим, келиб ол қовун.

Оқ новотма, олакка,

Келинлар-ай емакка

Қариқизнинг боли бор,

Бишакларнинг холи бор.

Полиз бошина галинг,

Ёққанин сайлаб олинг.

Зомчанинг мазаси бошқача,

Шираси етар қошгача.

Гулобини емабсан-ай,

Бу дунёга кемабсан-ай.⁵⁰

Бугунги кунда Хоразмда қовуннинг 130 дан ортиқ навлари экилади. Шулардан қишки қовун турларидан алиқамбар, қорабишак навларини кўп экилади.

⁵⁰ Санобар Хўжамуротова, Қорақалпоғистон Республикаси, Амударё тумани, Манғит шаҳри, "Янгиобод маҳалласи, Амударё кўчаси 8-А уй

Жамоавий қовун сайли оилада ўтказиладиган тадбирлардан бир оз кенгрок бўлиши билан ажралиб туради. Бундай тадбирлар борор ташкилот ёки маҳалла миқёсида ўтказилади. Ташкилот раҳбарлари қовун-тарвуз етиштирадиган хўжаликлар ёки фермерлар билан келишган ҳолда полизларга сайллар уюштирадилар. Баъзан ташкилотнинг ўзига транспорт воситаларида қовун-тарвузлар олиб келинади. Тўкин дастурхон ёзилади, асосан, қовун-тарвузлар билан безатилган дастурхон атрофида фахрий меҳмонлар, ташкилот аъзолар жам бўладилар. Шу корхона ёки ташкилотда кўп йиллар меҳнат қилган фахрийларга совғалар тарқатилади. Қовун-тарвуз етиштирган деҳқон ҳақиға дуо-фотиҳалар ўқилгандан сўнг ҳамма полиз маҳсулотларидан баҳраманд бўлади. Шу тадбир сўнгида ҳам кекса ва беморларга, қолаверса, оила аъзоларига насиба – қовун-тарвузлар тарқатилади.

Жамоавий қовун сайллари юқорида таъкидлаганимиздек, корхона, хўжаликлар миқёсида ташкил этилган. Бу ҳақида яна бир ахборотчимиз 78 ёшли меҳнат фахрийси Анвар ота Тожибоевнинг ҳиқояси қизиқарли. “Ёзнинг охирларида ҳали пахта йиғим-терими бошланмасдан, қовун-тарвузлар ғарқ пишган паллада бригада дала шийпонларида қовун сайллари ўтказилар эди. Трактор працепида қовун пайкалдан олиб келинган қовун-тарвузлар тарқатилган. Катта қозонларда палов дамланган. Баъзан қўйлар сўйилганини ҳам эслайман. Пахта теримидан олдин ҳосил мўл бўлсин, деб дуо ҳам қилинар эди”.⁵¹

Расмий қовун сайллар ҳам ўз ҳудудига, миқёсига қараб ўтказилади. Туман, вилоят ва республика миқёсидаги тадбирларда мусобақа ташкил этилади. Янги навлар кўрғазмаси ўтказилади. Фаол иштирок этганлар ғолиб бўлганлар тақдирланади. Оммавий ахборот воситаларида кенг ёритилади.

Ўзбек миллий сайлларидан бири бўлган қовун сайлини ўтказиш ареали кенгайиб, халқаро даражада нишонланмоқда. Хусусан, “Халқ сўзи” газетаси 2024 йил 14 июль сонида Россиянинг Красноярск шаҳрида биринчи марта халқаро қовун сайли тантанали равишда нишонланиб, “Қовун сайли” фестивали ташкил этилгани ҳақида хабар берилган .

Унда Красноярск ўлкасида узоқ йиллардан буён яшаб келаётган ватандошлар, санъат намояндалари, талабалар, маҳаллий ҳокимият ҳамда Красноярск ўзбеклари ҳудудий миллий-маданий автономияси вакиллари, шунингдек, ҳудудда вақтинчалик меҳнат фаолиятини амалга ошириб келаётган юртдошларимиз иштирок этди.

⁵¹ Ахборотчи: Тожибоев Анвар Баҳодирович, 78 ёш, Фарғона вилояти Риштон тумани, Зоҳидон қишлоғи, Фарғона кўчаси, 8-уй

Таъкидлаш керакки, “Қовун сайли” фестивали красноярскиликлар ўртасида катта қизиқишга сабаб бўлди. Фестивалга ташриф буюрганларга қовун, тарвуз ва ўзбек миллий таомлар улашилди.

Фестиваль доирасида, шунингдек, ўзбек миллий кураши бўйича мусобақа ҳам ўтказилди”.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, қадимдан нишонланиб келаётган анъанавий халқ сайллари, хусусан, қовун сайли ҳозирга келиб бутунлай янгича тарзда ташкил этилмоқди. Оилаларда ҳам, расмий равишда ҳам кенг нишонлаш анъанага айланмоқда. Бу йилдан қовун сайли халқаро миқёсда ҳам нишонланадиган бўлди. Зеро, халқимиз томонидан асарлар давомида ардоқлаб келаётган анъналаримизнинг хорижда нишонланаётгани тарихий аҳамиятга молик, десак, муболаға эмас. Юртимиз обрў-эътибори, маданияти ва маънавий қадриятлари худди кураш мусобақалари сингари чет элларда ҳам кенг ёйилаётгани ҳаммамизнинг фахримиз-ғуруримиздир.

Бундай халқчил анъаналарга бой сайлларимиз бутун дунё бўйлаб оммалашиб бориши юртимизнинг бой тарихи ва маданиятига нисбатан қизиқишнинг ортишига сабаб бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: 2002. 45 – бет
2. Олим, Султонмурод. Байрамларимиз. “Маънаият”. – Тошкент: 2008. – 200 б.
3. Қорабоев, У. Ўзбек халқи байрамлари. / Масъул муҳаррир: С. ОЛИМ. “ШАРҚ” НМАК бош таҳририяти. – Тошкент: 2002. – 240 б.
4. “Халқ сўзи” газетаси. 2024 йил, 14 июнь.

BUGUNGI KUN MATBUOTIDA TASVIR FUNKSIYASI

Madolimov Hasanboy Shuhratovich

NamDU o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif jurnalistikaning tasvir (informatsion) funksiyasi xususida to'xtalgan. Tasvir funksiyasining bugungi matbuotdagi o'rni, OAVning informatsiya berishdagi zamonaviy usullardan foydalanishi borasida so'z yuritib, ularni misollar bilan yoritib bergan.

Kalit so'zlar: *informatsiya, soha, gazeta, jurnal, umumsiyosiy, ixtisoslashgan, tarmoq, krossmedial, rukn, sarlavha.*

ABSTRACT

This article talks about the informational function of journalism. It is known from the history of journalism and its theory that the emergence of the press is related to the needs and interests of people in social information - to know the events and news happening in life. Therefore, collecting and distributing information is the main factor and means of informing the public about events and events that are happening in life.

Keywords: *information, field, newspaper, magazine, general political, specialized, network, crossmedia, rubric, title.*

KIRISH

Jurnalistika tarixi va uning nazariyasi fanidan ma'lumki, matbuotning paydo bo'lishi kishilarning ijtimoiy informatsiyaga – hayotda yuz berayotgan voqea-hodisa va yangiliklarni bilib turishga bo'lgan ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog'liqdir. Shunday ekan, informatsiya yig'ish va tarqatish, hayotda sodir bo'layotgan voqea va hodisalardan ommani xabardor qilishning asosiy omili, vositasi hisoblanadi. B.Do'stqorayev o'zining "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" deb nomlanuvchi darsligida matbuotning tasvir funktsiyasi masalasiga to'xtalib, bu ijtimoiy yumush mamlakatimizda vujudga kelgan ilk matbuot nashri bo'lmish "Turkiston viloyatining gazetasi"da ham mavjud bo'lganligini ta'kidlab, mazkur nashr matbuotning bu funktsiyasi xususida: "...gazetalar har xil viloyat va xalqlar xususida xabarlar beradur. Bu xabarlarni gazet o'qug'uvchilar tez vaqtda oladurlar" deb yozganligini bayon etadi.⁵²

⁵² Дўстқораев Б. "Ўзбекистон журналистикаси тарихи. (1-қисм. 1870-1917 йил ноябрь)" Дарслик. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент, 2009. 83-бет

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Jurnalistika jamiyat hayotining barcha sohalarida birdek ishtirok etadi. Shu bois, uning ijtimoiy institut sifatidagi rolini ham jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va g’oyaviy, ijtimoiy jarayonlardan ayricha tasavvur etib bo’lmaydi.

Agar boshqa ayrim yo’nalishlarda jurnalistikaning axborot berish vazifasi birinchi o’ringa qo’yilmasa, ijtimoiy sohada axborot vositasi sifatidagi roli asosiy o’rin tutadi. Bundan ko’rinadiki, matbuotning axborot-kommunikatsiya roli jamiyat a’zolari tomonidan o’z o’rni va vazifalarini anglanishiga, ijtimoiy tizimning barcha elementlari kelishuvi va barqarorligi hamda o’zaro munosabatlariga yordam beradi (S.G.Korkonosenko. “Osnovi jurnalistiki”, Moskva-2002, 166-bet).⁵³

Demak, matbuotning birinchi navbatdagi bajaradigan ijtimoiy yumushi, bosh vazifasi, asosiy funksiyasi tasvir – xabardor etishlikdan iboratdir. Buni matbuotning ilk nashrlaridan to hozirgi kunimizgacha bo’lgan amaliy faoliyati to’la isbotlab turadi. Jurnalistikaning mazkur funksiyasi turli davrlarda turlicha xususiyatlarga ega bo’lib, zamon va davr talabi bilan goh kengayib, goh cheklanib keldi. Faqat ozod va mustaqil davlatda faoliyat olib boradigan demokratik matbuotdagina jurnalistikaning boshqa funksiyalari qatorida uning tasvir funksiyasi ham to’la ish ko’radi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jahon matbuoti ommaga tinchlik, taraqqiyparvarlik kabi ilg’or g’oyalarni tarqatishi bilan bir qatorda jahon informatsiya maydonida ayrim teskaricha fikrlar, informatsion xurujlar ham paydo bo’lib qolmoqda. Bu esa jurnalistikaning mazkur funksiyasining turli g’oyalarga xizmat qilishini ko’rsatib turibdi. “Jurnalistikaning funksional tizimi o’ziga xosligini muayyan jamiyat doirasida mas’uliyat va ma’lum xizmatlarni taqdim etish orqali oladi. Bugungi plyuralistik jamiyatlarda ular, avvalambor, ijtimoiy jihatdan dahldor reallik modellari bilan bog’liq bo’lgan yangiliklar qiymati va haqiqatdan tashkil topgan media kommunikatsiyasi uchun mavzularni taqdim etishdan iborat. Ushbu mavzulashtirish “haqiqat” tasviri sifatida emas, balki tizimning ishlash operatsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.”⁵⁴

Bugungi kunda O’zbekistonda ko’plab ommaviy axborot vositalari ish olib bormoqda. Mazkur ommaviy axborot vositalari o’z faoliyatlarida jurnalistikaning barcha funksiyalari qatorida uning tasvir – xabardor etishlik funksiyasidan keng foydalanib kelmoqdalar. Gazetalar har kuni, radio va televidenie esa har soatda, informatsion agentliklar har bir daqiqada va internet har bir soniyalarda kishilarga

⁵³ Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиева Н., Муратова Н. Босма ОАВ тахририятлари учун ўқув қўлланма, Тошкент 2008, 6-бет

⁵⁴ Weischenberg S., Kriener M. Journalistik. Band 3: Quiz und Forum (Fragen/Antwonen, Diskussion, Evaluation) – Opladen: Westdeutscher Verlag GmbH, 1998, 15-бет

hayotning turli jabhalari, dunyoning turli mamlakatlaridan turli xabarlar, yangiliklarni yetkazib bermoqdalar. Matbuotning mazkur funktsiyasini keng yo'lga qo'yish, informatsiya yig'ish va tarqatishni yanada takomillashtirish bo'yicha qator yangi qonunlar qabul qilindi. Chunki „jurnalistning vazifasi axborot olib, aholini bundan xabardor etish. Shu asosga ko'ra, jurnalistlar informatsiya olishda faqat umuman mumkin bo'lgan manbalar bilan chegaralanib qolmaydi, balki bunda alohida huquqlarga ham ega bo'lishadi. Bular asosida ular ijtimoiy vazifasini bajarish muhitida bo'ladilar“.⁵⁵ Shunday ekan, O'zbekiston respublikasining 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida”, 2002 yilning 12 dekabrda qabul qilingan “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida”, 2007 yilning 15 yanvarida qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida” kabi qonunlar matbuotimiz va ommaviy axborot vositalari ishini yaxshi yo'lga qo'yishda, ya'ni tasvir funktsiyasini to'la amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “avval ta'kidlanganidek, jurnalistikaning informatsion funktsiyasi umuman ommaviy axborot vositalarining demokratik vazifasi hisoblanadi. “Erkin axborot oqimi” erkin demokratik jamiyatning sifat belgisidir”.⁵⁶

Sodir bo'lgan voqea-hodisalar, ularning rivojidagi o'zgarishlar to'g'risidagi informatsiyalarni operativ tarzda retsipientga o'z vaqtida xolis va sof holda yetkazish, albatta, jurnalistikaning vazifasi hisoblanadi. Informatsiyalarni bir tomonlama, kimningdir manfaati yo'lida noxolislik tomon og'ishib tarqatish shu ommaviy axborot vositasining obro'siga putur yetkazishi tabiiy. Bunga voqea-hodisani to'la o'rganmaslik yoki ta'magirlik zamin yaratadi. Holatni mufassal o'rganish o'rniga distantsion ma'lumotlar yig'ish orqali ma'lum material tayyorlash bo'lib o'tgan voqea, voqea jarayoni borasida noto'g'ri tasavvur hosil qiladi. Ta'magirlik yo'li bilan informatsiya tarqatish, ya'ni hokimiyatni qo'lga olganlarga yoqish uchun berilgan axborotlar auditoriya uchun shunchaki harflar, tovushlar va tasvirlar yig'indisi hisoblanadi.

Har bir OAV informatsiyalarni ommaga tezkorlik bilan yetkazishga urinadi. Lekin bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan mavzular ma'lum bir vaqt davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Biron gazeta boshqa bir gazeta bergan informatsiyani abonentlariga o'z talqinida yetkazishi mumkin. Masalan, 19 dekabr kuni «Tashkent city» xalqaro ishbilarmonlik markazi hududida xalqaro hamjamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarini ifodalovchi

⁵⁵ Altendorfer O., Hilmer L. (Hrsg.), Medienmanagement - Band 1: Methodik – Journalistik und Publizistik – Medienrecht, (Kurt-Ulrich Mayer), VS Verlag für Sozialwissenschaften | GWV Fachverlage GmbH, Wiesbaden 2009, 298-6er

⁵⁶ Lorenz D. Journalismus, 2., aktualisierte und erweiterte Auflage. – Stuttgart, Weimar: Verlag J.B. Metzler, Springer-Verlag GmbH Deutschland, 2009. – 97-6er

monumentning ochilish marosimi bo'lib o'tgani to'g'risida "Xalq so'zi" va "Ishonch" gazetalarida axborot berilgan. Bu ma'lumot "Xalq so'zi" gazetasining 2023 yil 20 dekabrda⁵⁷ sonida berilgan bo'lsa, "Ishonch" gazetasining 2023 yil 21 dekabrda⁵⁸ sonida e'lon qilingan. Bo'lib o'tgan voqeani "Xalq so'zi" gazetasi hisobot shaklida bergan bo'lsa, "Ishonch" gazetasida xabar tarzida yetkazilgan. Garchi "Ishonch" gazetasi ikki kun kechikib xabar yetkazayotgan bo'lsa-da, muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu voqeadan o'z mushtariylarini boxabar qilishni lozim deb bilishgan va qisqa xabarda buni ifodalab o'tishgan. Bundan kelib chiqadiki, informatsiyalarning o'z yangiligini saqlab qolishi uning ahamiyati hamda OAVning voqea-hodisaga qay jihatdan yondashuviga ham bog'liq.

Ma'lumki, gazetalar ijtimoiy hayotni yoritish nuqtai nazaridan turli xillarga bo'linadi. Bular umumsiyosiy, ixtisoslashgan va tarmoq gazetalar bo'lib, har bir tur o'zida jamiyat hayotining u yoki bu qatlamlarini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Umumsiyosiy gazetalar jamiyat hayotining bosh masalalarini yoritadi hamda ko'pchilik uchun mo'ljallab chiqariladi. Umumsiyosiy gazetalar odatda davlat, hukumat, partiyalar, shuningdek, jamiyatda muhim o'rin tutuvchi jamoat tashkilotlari tomonidan chiqariladi. Bunday gazetalar tipiga "Xalq so'zi"ni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ixtisoslashgan gazetalar esa jamiyat hayotining katta bir sohasini yoritish uchun maxsus chiqariladi. Bunday gazetalar odatda markaziy hukumat tomonidan yoki ma'lum bir sohani boshqaruvchi idora tomonidan chiqariladi. Ixtisoslashgan gazetalar umumsiyosiy gazetalarga qaraganda o'z sohasini kengroq, chuqurroq yoritadi va asosan o'sha sohada ishlovchi kishilarga mo'ljallanadi. Gazetalarning uchinchi turi esa tarmoq nashrlari bo'lib, ular jamiyat hayotining ma'lum bir tarmog'i hayotini yoritish uchun chiqariladi va shu tarmoqda ishlovchilarga tarqatiladi. Bu xil gazetalar asosan o'sha tarmoq hayotini yoritish bilan shug'ullanadi. Shuni aytish kerakki, har uch turdagi gazetalar matbuotning tasvir funksiyasini to'la bajarib, jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayotini ham aks ettiradilar. Binobarin, shu tarzda jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayoti, bugunning tarixi butun to'laligi bilan o'z aksini topadi va bunda jurnalistikaning tasvir funksiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ixtisoslashgan gazetalarga "Ma'rifat", "Qishloq hayoti" kabilar misol bo'la oladi.

Ixtisoslashgan gazetalardan tashqari jamiyat hayotining turli tarmoqlarini yorituvchi gazetalar ham mavjud bo'lib, ular o'zi yoritishi lozim bo'lgan tarmoq hayoti haqidagi yangiliklar bilan auditoriyani chuqurroq tanishtirib borishga

⁵⁷ ЎЗА. Коррупцияга қарши курашиш соҳасида қатор муҳим ташаббуслар илгари сурилди. "Халқ сўзи" газетаси, 2023 йил 20 декабрь

⁵⁸ Коррупцияга қарши муросасиз курашиш зарур. "Ишонч" газетаси, 2023 йил 21 декабрь

mo'ljallangan. Bu kabi gazetalaridan biri "Postda" gazetasi bo'lib, unda respublikamiz ichki ishlar vazirligi, jamoat tartibini saqlash masalalari o'z aksini topadi.

Jurnalistikaning asosiy funktsiyalarining bajarilishida gazetalar tipologik ko'rinishlari mazmun jihatidan "ierarxik" shakllanganligi barcha davriy yangiliklarni istalgan paytda topish imkonini beradi. Ya'ni misol tariqasida keltirilgan "Postda" tarmoq gazetasi faoliyati ham fikrimiz dalilidir. Tarmoq gazetalari orqali yoritilayotgan masalalar ham ixtisoslashgan gazetalar kabi asosan shu kasb egalari uchun mo'ljallanganligiga qaramay, shu tarmoq muammolari, shart-sharoitlari bilan qiziquvchilar uchun faktli ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Gazetalar matbuotning tasvir funktsiyasini amalga oshirishda turli vositalardan foydalanadilar. Ana shunday o'ziga xos jurnalistik vositalardan biri rubrika – rukndir. Chunki "gazetalar qamrovi kengayib borishi materiallarni ajratish uchun rukn va sarlavhalarga ehtiyoj tug'dirgan".⁵⁹ Shunday ekan, axborotlarni yetkazishda ruknlar muhim rolga ega. Avvalo, rukn uning ostida beriladigan material mavzusining asosiy mazmunini o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni ko'tarilayotgan masala yoki muammoni nimaga qaratilganligini ko'rsatib turadi. Bu bilan esa berilayotgan materiallarga, tasvir etilayotgan voqea va hodisalarga o'quvchining diqqatini tortadi. "Ruknlar so'z iqtisodiga bo'ysunadi va shu bilan birga sxemalarning ifodalanishiga ko'ra murakkabliklarni kamaytirishga xizmat qiladi".⁶⁰ Bu esa gazeta xodimlari bilan bir qatorda o'quvchilarga ham kerakli ma'lumotlarni topishda va saralashda yengillik beradi.

Respublikamizning markaziy umumsiyosiy nashri bo'lgan "Xalq so'zi" gazetasining tasvir funktsiyasini qanday bajarayotganligi, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotining eng muhim, bosh masalalarini qanchalik qamrab olayotganligini gazeta foydalanadigan ruknlar misolida ham ko'rish mumkin. Gazeta sahifalarida turli xil ruknlarni uchratish mumkin, bular kichik va sahifa-ruknlardan iboratdir. Gazetaning 2023 yil 22 dekabr 273-sonidagi birinchi sahifasi "Fikr", "Seminar", "Eksklyuziv intervyu" va "Munosabat" nomida kichik ruknlardan tarkib topgan. Ikkinchi bet "Parlament", uchinchi bet "Jarayon" va to'rtinchi bet "Ko'zgu" nomli sahifa-ruknlardan tarkib topgan. O'z navbatida "Ko'zgu" sahifa-rukni ham "Tajriba va tashabbus", "Bunyodkorlik" hamda "Forum" nomli kichik ruknlardan iborat.⁶¹

⁵⁹ Dernbach B., Godulla A., Sehl A. (Hrsg.), *Komplexität im Journalismus*. – Wiesbaden: Springer Fachmedien GmbH, ein Teil von Springer Nature, 2019. – 68-бет

⁶⁰ Dernbach B., Godulla A., Sehl A. (Hrsg.), *Komplexität im Journalismus*. – Wiesbaden: Springer Fachmedien GmbH, ein Teil von Springer Nature, 2019. – 68-бет

⁶¹ "Халқ сўзи" газетаси, 2023 йил 22 декабрь

Gazeta o'z sahifa-ruknlari nomlarini tez-tez o'zgartirib turadi. Bu esa nashrning hayotning barcha qirralarini qamrab olish, ko'proq yangiliklar berish, ya'ni jurnalistikaning tasvir funksiyasini bajarishida qo'l keladi.

Jurnalistikaning tasvir funksiyasi bajarilishida sarlavhalarining ham o'rni kattadir. Zotan, rukn va sarlavha konsonans effekt beradi. Sarlavhalar o'quvchilarni material mazmuniga jalb qilishda katta ahamiyatga ega. Chunki, "sarlavhalar o'qib o'tiriladigan maqolalardan ko'ra tezkorlik bilan ommaga boruvchi yo'ldir".⁶² Sarlavhalar tarixan ham gazetalar yordamida informatsiya tarqatishda muhim rol o'ynagan. Ya'ni, buni tarixiy voqealardan ham bilish mumkin: "... Xyorst 1898 yili siyosiy qarashlari vajidan va gazetasi tirajini oshirish maqsadida AQSH va Ispaniya o'rtasida Kuba uchun bo'ladigan urushdan manfaatdor edi. Uning asosiy gazetasi "New York Journal" yolg'on, soxta vatanparvarlik aks etgan, lekin diqqatni tortadigan sarlavhalarga zo'r bera boshladi".⁶³

Sarlavhalar ba'zi hollarda esa o'quvchi uchun umumiy mazmunni ifodalaydi. Zotan, tasvir funksiyasi bajarilishida foydalaniladigan xabar janrida voqea-hodisalarni tasvirlash "teskari piramida" asosiga qurilgani yaqqolroq ko'rinadi. Ya'ni biron yangilik berilsa, uning asosiy mazmuni sarlavha va kiritma so'zida o'z aksini topadi. "Sarlavha doimo biror bir hodisa yoki g'oyaning mohiyatini ochib berish vositasi hisoblanadi, demak, bu vosita ustida ishlash jurnalist, yozuvchi, muharrirdan alohida mas'uliyat talab qiladi".⁶⁴ Sababi, axborot asrida retsipientlar ayrim hollarda sarlavhalar bilan cheklanish holatlarini ham kuzatish mumkin.

Avvalda aytganimizdek, jurnalistlar material mazmunini sarlavha yordamida ochib berishga yoki jalb etishga intilishadi. Masalan, "Ishonch" gazetasining 2022 yil 4 oktyabr 121-sonida "Mablag'ni tejaymiz deb, bilimni garovga qo'ymayapmizmi?"⁶⁵ sarlavhali materialda maktab ta'limiga doir masala ko'tariladi, ya'ni Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 avgustdagi 425-sonli qarori haqida gap boradi. Sarlavhadan o'quvchi ma'lumot ta'lim haqida ekanligini bilishi mumkin.

Sarlavhalarining imkonlari tugagan joydan fotojurnalistika materiallari orqali ilk ma'lumotlar yetkaziladi. "Fotografiyasiz ommaviy axborot vositalarini tasavvur etish qiyin, u OAVning tarkibiy qismi."⁶⁶ Masalan, "Ishonch" gazetasining 2022 yil 4

⁶² Махмудова У. Замонавий хорижий публицистик матнларда тил ва услуб муаммолари, 5A120102-Лингвистика (инглиз тили) Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Қарши: 2017. – 33-бет

⁶³ Саидов Х.А., Жамиятнинг демократлашуви жараёнида ахборот жанрларининг ривожланиш омиллари, 10.00.09 – журналистика, филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент: 2021. – 48-бет

⁶⁴ Қосимова Н. Экологик журналистика Ўзбекистон сиёсатида: ривожланиш тенденциялари ва ўзаро ҳамкорликни амалга ошириш усуллари. Филологи фанлари доктори (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент 2021. 229 б. 156-б.

⁶⁵ Тўрабоева М. Маблаг'ни тежаймиз деб, билимни гаровга қўймаймизми? "Ишонч" газетаси, 2022 йил 4 октябрь

⁶⁶ Каримов А. Аудиовизуал журналистика (тележурналистика) фанидан ўқув-услубий мажмуа. Тошкент, 2019

oktyabr 121-sonida “15 sotixdan 30 million soʻm daromad”⁶⁷ nomli materialda sarlavha orqali materialning umumiy mazmuni va berilgan fotolar yordamida esa yetkazilayotgan informatsiya yanada yorqinroq ifodalangan. Yaʼni 15 sotixdan 30 million daromadni malina orqali olinayotganligi anglashiladi.

Jurnalistikaning tasvir funksiyasi gazetalar bilan bir qatorda matbuotning asosiy turlaridan biri boʻlgan jurnallarda ham oʻz aksini topadi. Jurnallar gazetalardan farqli oʻlaroq asosan jamiyat hayotining chuqur qatlamlarini, berayotgan voqea va hodisalarning ichki mohiyatini yoritishga moʻljallansa-da, baribir, bu – hayotni tasvirlashdan kelib chiqadi. Lekin jurnallar faoliyatining asosiy qismi tahlil funksiyasi bilan bogʻliq. Bundan tashqari informatsiya yetkazishda krossmedial usuldan ham foydalanib turiladi. Masalan, “Xalq soʻzi” gazetasining 2023 yil 19 noyabrdagi sonida “Yangi sport va transport infratuzilmasi obʼektlari azim poytaxtga koʻrk bagʻishlaydi”⁶⁸ sarlavhasidagi material OʻzA sahifasida⁶⁹ ham aynan shu nomda berilgan. “Ishonch” gazetasida bu usuldan asosan “Kun nafasi” ruknida beriladigan materiallarda foydalaniladi. Umuman olganda, bu tarzda informatsiyalarni berishinteraktivlikni oshirib, OAV materiallarini mazmun jihatidan ham boyitadi.

XULOSA

Yuqoridagi kuzatuvlardan koʻrinib turibdiki, respublikamizda chiqadigan matbuot nashrlari ijtimoiy hayotni yoritishda, jurnalistikaning tasvir funksiyasini ado etishda hayotga turlicha – rasmiy, partiyaviy, umumsiyosiy, ixtisoslashuv, tarmoq va dam oldiruv kabi nuqtai nazarlardan yondashadilar va shu tarzda ularda jamiyat hayoti bir butun holatda aks etadi. Jurnallar esa gazetalarni toʻldirib kelib, tasvir funksiyasini yanada kengroq, chuqurroq boʻlishiga hamda uning tahlil funksiyasi bilan hamkorlikda ish koʻrishiga xizmat qiladi. Matbuotning tasvir funksiyasi jamiyat hayotining barcha tomonlarini toʻla-toʻkis aks ettirishni taqozo etadi. Bu vazifa qanchalik toʻla bajarilsa, matbuotning jamiyat hayotiga taʼsiri shunchalik muhim boʻladi, insoniyat dunyo voqealaridan toʻla xabardor boʻladi, ongi oshadi, ijtimoiy hamda siyosiy faoliyati yanada keng koʻlamda boʻladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Altendorfer O., Hilmer L. (Hrsg.), Medienmanagement - Band 1: Methodik – Journalistik und Publizistik – Medienrecht, (Kurt-Ulrich Mayer), VS Verlag für Sozialwissenschaften | GWV Fachverlage GmbH, Wiesbaden 2009

⁶⁷ Эргашев Ж. 15 сотихдан 30 миллион сўм даромад. “Ишонч” газетаси, 2022 йил 4 октябрь

⁶⁸ ЎЗА. Янги спорт ва транспорт инфратузилмаси объектлари азим пойтахтга кўрк бағишлайди // “Халқ сўзи” газетаси, 2023 йил 19 ноябрь

⁶⁹ https://uza.uz/uz/posts/yangi-sport-va-transport-infratuzilmasi-obektlari-azim-poytaxtga-kork-bagishlaydi_539957

2. Dernbach B., Godulla A., Sehl A. (Hrsg.), *Komplexität im Journalismus.* – Wiesbaden: Springer Fachmedien GmbH, ein Teil von Springer Nature, 2019
3. Lorenz D. *Journalismus, 2., aktualisierte und erweiterte Auflage.* – Stuttgart, Weimar: Verlag J.B. Metzler, Springer-Verlag GmbH Deutschland, 2009
4. Weischenberg S., Kriener M. *Journalistik. Band 3: Quiz und Forum (Fragen/Antworten, Diskussion, Evaluation)* – Opladen: Westdeutscher Verlag GmbH, 1998
5. Дўстқораев Б. “Ўзбекистон журналистикаси тарихи. (1-қисм. 1870-1917 йил ноябрь)” Дарслик. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент, 2009
6. Каримов А. *Аудиовизуал журналистика (тележурналистика) фанидан ўқув-услубий мажмуа.* Тошкент, 2019
7. Қосимова Н. *Экологик журналистика Ўзбекистон сиёсатида: ривожланиш тенденциялари ва ўзаро ҳамкорликни амалга ошириш усуллари.* Филология фанлари доктори (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент 2021
8. Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиева Н., Муратова Н. *Босма ОАВ таҳририятлари учун ўқув қўлланма,* Тошкент 2008
9. Маҳмудова У. *Замонавий хорижий публицистик матнларда тил ва услуб муаммолари, 5A120102-Лингвистика (инглиз тили) Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация.* – Қарши: 2017
10. Саидов Ҳ.А., *Жамиятнинг демократлашуви жараёнида ахборот жанрларининг ривожланиш омиллари, 10.00.09 – журналистика, филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация,* Тошкент: 2021

YAPON TILIDAGI RAD ETISH BIRLIKLARINING 「断り表現」

IFODALANISHI: ちよつと MISOLIDA

M.X.Umarova

UzDJTU katta o'qituvchisi

S.Sh.Oqilova

UzDJTU magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yapon tili suhbatlarida suhbatdoshining biror taklif, so'rov va iltimosiga rad etishda foydalaniladigan ちよつと (sal, biroz) noaniqlikni ifodalovchi so'zni pragmatik jihatdan ya'ni insonlararo muloqotdagi rolini aniqlanadi, hamda, o'zbek tili bilan o'xshash va farqli jihatlarini chuqur tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi ちよつと (sal, biroz) so'zining taklif, so'rov, iltimosga rozilik, ma'qullash va tasdiqlashdan tashqari rad etish, norozilik va yoqtirmaslikni bildiruvchi ma'nolarini yuz ifodasi (FTA), intonatsiya, nutq akti (speech act) va vaziyatni hisobga olish lozimligini batafsil tushuntirishdan iborat.

Kalit so'zlar: rad etish birliklari, ちよつと (sal, biroz), yuz ifodasi (FTA), intonatsiya, nutq akti (speech act), pragmatik tahlil.

ABSTRACT

This article pragmatically analyzes the role of the word ちよつと (a little, slightly), which is used in Japanese conversations to express ambiguity when refusing a suggestion, request, or favor from the interlocutor. The article also delves into the similarities and differences between this word's usage in Japanese and Uzbek languages. The aim of this research is to provide a detailed explanation of how the word ちよつと (a little, slightly) is used not only to express agreement, approval, and affirmation but also to indicate refusal, dissatisfaction, and disapproval, while taking into account facial expressions (FTA), intonation, speech acts, and the context of the situation.

Keywords: refusal expressions, ちよつと (a little, slightly), facial expressions (FTA), intonation, speech act, pragmatic analysis.

АННОТАЦИЯ

В этой статье прагматически анализируется роль слова ちよつと (немного, слегка), которое используется в японских разговорах для выражения неопределенности при отказе на предложение, просьбу или запрос собеседника.

Также проводится глубокий анализ сходств и различий в использовании этого слова в японском и узбекском языках. Цель данного исследования —

подробно объяснить, как слово *ちよつと* (немного, слегка) используется не только для выражения согласия, одобрения и утверждения, но и для выражения отказа, недовольства и неприязни, с учетом выражения лица (FTA), интонации, речевого акта и ситуации.

Ключевые слова: выражения отказа, *ちよつと* (немного, слегка), выражение лица (FTA), интонация, речевой акт, прагматический анализ.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish to‘g‘risidagi PQ 5117-sonli qaroriga⁷⁰ muvofiq o‘zbek talabalari orasida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib borishi boshqa tillar kabi yapon tiliga ham talab oshib bormoqda. Shuning bilan birgalikda, yoshlarimiz tomonidan Yaponiya Oliy Ta’lim Muassasalarida o‘qish istagidagilarning ortayotganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik vazirligining 27.07.2023-yildagi “ O‘zbekiston-Yaponiya mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik memorandumlari”⁷¹ imzolanishi yapon tili o‘rganuvchilarning keskin oshishiga turtki bo‘ldi. Til o‘rganuvchilar uchun nafaqat o‘sha tilni bilish, balki ikki millat o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlari, madaniy, milliy qadriyatlarini ham o‘rganish talab etiladi. Ayniqsa, yapon xalqi madaniyatiga ko‘ra, suhbatdoshiga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad javobi berishlik biroz noo‘rin hisoblanib, insonlar bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolish uchun, rad etuvchilar o‘zlarining rad etish javoblarini chiroyli strategiyalardan foydalanib amalga oshirishadi. Rad etish lozim bo‘lgan vaziyatlarda suhbatdoshining yoshi, jinsi, mavqei va u inson bilan yaqinlik aloqalari (oila a‘zolari, qarindosh, do‘st kabi) va yaqin bo‘lmagan aloqalar (tanish, qo‘shni kabi) kabi bir nechta unsurlarga ham alohida e‘tibor beriladi. O‘zbek o‘rganuvchilari uchun bu murakkab bo‘lmashligi mumkin, lekin ba’zi vaziyatlarni inobatga olib chuqurroq o‘zlashtirishlari lozim.

Yapon tilida rad etishni ifodalovchi birliklar: *ちよつと* (sal, biroz) misolida

Yapon madaniyatiga ko‘ra Leech (1983)⁷² ta’kidlaganidek: “yaponlar rad etishni xushmuomalalik tamoyiliga asoslanib, teskari proporsional prinsip “ehtiyotkorlik bilan ifodalash prinsipiga” muvofiq suhbatdoshiga javob qaytarishadi.

Rad etish nima? 断る⁷³(ことわる) (kotowaru)

⁷⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 5117-sonli qarori, Toshkent, 19.05.2021yil

⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi Bandlik vazirligining 27.07.2023-yildagi “ O‘zbekiston-Yaponiya mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik memorandumlari”

⁷² Leech, Geofrey “Pragmalizm tamoyillari”, Londo. Longman, 1983-yil.

[動ラ五（四）] ("理る" bilan bir xil kelib chiqish)

1. Oldindan ogohlantirish va ruxsat olish. "Asosiy mavzuga kirishdan oldin ogohlantirib qo'yish", "Oldindan ogohlantirib erta qaytish".

2. Qarshi tomonning taklifini rad etish yoki qabul qilmaslik. "Taklifni rad etish", "Qarzni rad etish".

3. Ehtiyot uchun aytish. "Hamma biladigan haqiqat, shuning uchun bu yerda aytishning hojati yo'q".

4. Shartnoma yoki ish munosabatlarini to'xtatish. "Bu oy oxirida savdoni to'xtatish", "Obunani to'xtatish".

[可能] ことわれる (kotowareru)

[用法] ことわる (kotowaru) ・ ことばむ (kobamu)——"Talabni rad etish (rad qilish)", "Taklifni rad etish (rad qilish)" kabi ma'nolarda ishlatiladi. ◇"Kobamu" majburiy talab yoki takliflarni rad etishni anglatadi va "出席を拒む" (shussekini kobamu) deb aytilsa, bu ishtirok etish buyrug'ini rad etishni bildiradi. ◇So'zlashuv tilida, odatda, "kotowaru" ko'proq ishlatiladi, masalan, "せっかくだけど断るよ" (sekkadakedo kotowaru yo) va "お断りします" (okotowarishimasu). ◇"断っておくが、私は反対です" (kotowatte oku ga, watashi wa hantai desu) kabi, oldindan xabar berish ma'nosida "kobamu" ishlatilmaydi. Shuningdek, "土砂崩れが行く手を拒む" (doshakuzure ga yukute o kobamu) kabi to'siq bo'lgan ma'noda "kotowaru" ishlatilmaydi.

Lina (2015)⁷⁴ ning fikriga ko'ra "Rad etish suhbatdoshining iltimos, taklif, so'rovlariga xushmuomalalik bilan, insonlararo yaxshi munosabatlarni saqlagan holda "yo'q" deya olishdir.

Yapon tilidagi ちょっと so'zining ishlatilishi haqida ilmiy adabiyotlar va lug'atlarda daraja ko'rsatkichi sifatida ya'ni "kichik miqdor" ma'nosidan tashqari turli xil vaziyatlarda foydalaniladigan ma'no funksiyalari mavjudligi ta'kidlanib, quyida batafsil o'rganiladi. Yaponlar ko'p vaziyatlarda foydalanadigan ちょっと so'zi o'zbek tiliga "sal, biroz, haligi, ozgina" deb tarjima qilinadi.

Yapon tilidagi ちょっと (chotto) so'zining 6ta aloqa funksiyasi mavjudligi haqida yapon olimlaridan Okamoto va Saitolar (2004) tadqiqot ishlarida batafsil yoritib bergan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. So'rash, so'roq yoki ko'rsatma berish yukini yengillashtirish;
2. Salbiy mazmuni ifodalash;

⁷³ www.weblio.jp 「(四) (よつ)」の意味や使い方わかりやすく解説Weblio辞書

⁷⁴ Lina Abdulhameed Ali "Rad etish so'zlarida daraja qo'shimchalari haqida: ularning e'tibor ifodasi sifatidagi vazifasi." 2015-yil.

3. Rad etishni oson qabul qildirish;
4. Chaqirish;
5. Qoralash;
6. Bo'shliqni bartaraf etish.

3-funksiyasida ko'rsatilganidek, yapon tili suhbatlaridagi ちょっと (chotto) so'zi rad etishni qabul qilishni osonlashtiradigan funksiyasiga ega bo'lib, juda ko'p vaziyatlarda foydalaniladi.

A) 金曜日映画を見に行きましようか。(Kinyoubi eigawo mini ikimashouka)(Juma kuni kino ko'rgani boramizmi?)

B) 金曜日はちょっと... (Kinyoubiwa chotto...) (Juma kunimi, biroz...)

A) 阿部先生の教室はどれですか。(Abe senseino kyoushitsuwa doredesuka.)
(Abe ustozning xonalari qaysi?)

B) すみません、ちょっとわかりません。(Sumimasen, chotto wakarimasen.)
(Kechirasiz, haligi bilmayman.)

A) この荷物ここに置いたらどう? (kono nimotsu kokoni oitara dou?)

(Bu yuklarimni bu yerga qo'ysam qanday bo'ladi?)

B) そこはちょっとね... (Sokowa chottone...) (U yer sal bo'lmaydi...)

MAVZU YUZASIDAN O'RGANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI.

Hotta va Horie (2012)⁷⁵, Kanokwan (1997)⁷⁶ va Yamaoka (2010)⁷⁷ kabi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra rad etish gaplarining semantik forma (kategoriya)lari tasnifiga ko'ra:

Ma'lumki qo'shni Qozog'iston Respublikasidagi polietnik muhitni sobiq Sovet davlatining milliy siyosatini oqibati sifatida qabul qilish to'g'ri bo'lardi. Oxirgi yillarda Qozog'istonda ham milliy siyosatda mamlakatdagi barcha etnik guruhlarini yagona davlat mafkurasi atrofida birlashtirish ideyasi ilgari surilmoqda. Natijada etnik siyosat maydonida turli ideologemalar ilgari surilmoqda. Lekin shu bilan bir qatorda mamlakatdagi turli millat vakillari o'rtasida ba'zan maishiy darajadagi ziddiyatli vaziyat yuzaga kelganda shunday ideologemalar destruktiv ruhiyatga ega bo'lib bormoqda. Jumladan, Pavlodar viloyatida 2015 yilda do'kon sotuvchisi bo'lgan rus ayoli mahalliy qozoq ayoli bilan bahsga kirishib "Yaqinda bu yerga Rossiya kirib keladi va hammamiz rossiyaliklarga aylanamiz", deya qilgan hayqirig'i, qozoq jamoatchiligini diqqatini tortgan edi. Bu yerda rusiyzabon sotuvchi ayol qozoq tilida xaridorga xizmat ko'rsaishdan bosh tortgan edi. O'z navbatida mamlakatida lingvistik diskriminatsiyaga uchragan qozoq ayoli prezident va boshqa davlat organlari rahbarlariga murojaat bilan chiqib qozoq tilini davlat tili sifatida huquqiy himoyasini ta'minlashni, mamlakat hududiga shovinistik qarashlarning sudralib kirishini oldini olishga chaqirgan edi [1:20].

Qozog'istondagi til birligi bilan bog'liq milliy ziddiyatlarni internet maydoniga ko'chishi ham mamlakatdagi boshqa tilda so'zlashuvchi turli etnik birliklarni tashvishga solish bilan bir qatorda ularda mamlakatdagi etnik barqarorlikka nisbatan shubha uyg'otmoqda. Oxirgi yillarda Qozog'istonda bir qator ziyolilar guruhi (R. Kenjexanuli, A. Shurayev, B. Buxarbay) mamlakatda qozoq tilining ommaviy muloqot tiliga aylana olmayotganligi, uning jamiyatda mavqei hamon mustahkam emasligidan tashvishga tushib qozoq tilini o'qitish boyicha muayyan loyihalarni ishga tushirishni taklif etishmoqda. Lekin ularning taklif etayotgan loyihalarning "Men qozoqman", "Qozog'iston bo'risi" nomlar bilan atalishi mamlakatdagi boshqa millat vakillarining tasavvurida qarama-qarshi hissiyotlarni vujudga keltirishi tabiiy [1:25].

Polietnik davlat sifatida Rossiya Federatsiyasida ham milliy masala hamisha hukmron elita uchun o'ziga xos muammolardan biri hisoblanib keladi. Rossiya

siyosiy elitasi mamlakatning oxirgi o‘ttiz yillik davridagi siyosiy hayotini demokratik prinsiplar amal qilgan davr deb atasa ham, amalda mamlakat aholisning ongidan kolonial mafkurani chiqarib tashlashni uddasidan chiqmadi, aniqrog‘i bunday tafakkurni chiqarib tashlashni xohlamadi. Natijada Rossiyada ham rusiyzabon aholi va kamsonli millatlar, pravoslav xristianlar va musulmonlar, mahalliy aholi va migrantlar o‘rtasida kelib chiqadigan turli xil to‘qnashuvlarda ideologemalar xarakteridagi chaqiriqlar tez-tez ko‘zga tashlanadi. Oqibatda bunday ideologemalar Rossiya jamiyatini ham etno-konfessional muhitini taranglashuvini tezlashtirishga xizmat qilmoqda degan fikrga borishimiz mumkin.

Hukmron siyosiy elitaning o‘zi ham “ichki dushmanlar”ni qidirib topish, ularning faoliyatiga nuqta qo‘yish masalasini doimo ilgari surib keladi [10:1]. Muayyan jamoat arboblari o‘zlarini rus millatchilari deb atab “ichki dushmanlar”ning obrazini yaratishda uchta ritorik strategiyani belgilab olishgan. Ular tarixiy, nazariy va etnik strategiya hisoblanadi. Tarixiy strategiya bo‘yicha kam sonli millatlar Rossiya imperiyasini barham topishida muhim rol o‘ynashgan, nazariy strategiya esa zamonaviy Rossiyaning ko‘pmillatlilik va ko‘pmadaniyatlilik muhitiga reaksiya sifatida ko‘zga tashlansa, etnik strategiya esa ancha agressiv bo‘lib, muayyan millatlarni diskreditatsiya qilishga qaratilgan. Bu strategiyani ilgari suradigan millatchilik kayfiyatidagi kuchlar “uchki dushmanlar”ni qidirib topishda asosiy e‘tiborni Kavkaz xalqlariga qaratadilar. Millatchilik ruhidagi bunday guruhlarining asosiy ideologemasi “Rossiya ruslar uchun”, “Yevropacha namunadagi davlatni barpo etamiz” kabilar bo‘lib, ularni g‘ayrirus bo‘lgan boshqa millat vakillari va etnik birliklar keskin tanqid qiladilar. Rossiyadagi millatchilik qarashdagi ziyolilarning yetakchisi Dimitriy Galvovskiyning oxirgi yillardagi so‘rovlarda obro‘si muxolifatning mashhur yetakchisi bo‘lgan Aleksey Navalniydan keyin ikkinchi o‘rinda turgan edi.

Oxirgi yillarda Rossiya jamiyatida vujudga kelayotgan migrantofobiya hodisasidan keyin ham vujudga kelayotgan ideologemalar jamiyatda migrantlarga nisabatan salbiy kayfiyatni shakllanishiga xizmat qilayotganini rad etib bo‘lmaydi. Qator ziyolilar vakillari Rossiyaning tobora “osyolashuvi”dan tashvishga tushib “Rossiya poytaxti bugun ruslar shahri emas, “yangi Saroy”ga (Oltin O‘rda poytaxti) aylandi”, deya bong urushlari migrantlar va kavkazliklarni mahalliy rusiyzabon aholiga qarama-qarshi bo‘lishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qo‘ymaydi [10:3].

Rossiyaning mashhur nashrlaridan biri “Izvestiya”da ideologemalarni foydalanish sohalarini o‘rgangan tadqiqotchilar shunday xulosaga kelishadiki ommaviy axborot vositalarida “o‘zimizniki-begonalar” shaklidagi ideologemalarning ko‘p ishlatilishi hukmron elita uchun goho integratsion ta’sirga ega bo‘lsa, polietnik

mamlakatlarda universal ideologema sifatida ular ba'zan dezintegratsion ta'sir kuchiga ham ega bo'lishi mumkin. Agar ommaviy axborot vositalarining bunday amaliyoti ommaviy tus olsa mamlakatdagi muayyan kam sonli etnik guruhlar, mamlakatdagi boshqa konfessiyalar yoki migrantlarning tafakkurida titul millatga nisbatan norozilik kelib chiqishi, aksincha titul millatning aksariyatini tafakkurida barcha boshqa milliy va konfessional guruhlariga nisbatan negativ tasavvurlar shakllanadi. Milliy va konfessional barqarorlik Rossiya siyosiy tizimining strategiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib yuqoridagi ideologemalarni integratsion kuchidan ko'ra, dezintegratsion ta'siri kuchliroq bo'lishi mumkinligini alohida ta'kidlash lozim [2:2].

Ideologemalarning tasnifiga e'tibor berilsa ularning tarkibida arxetip-ideologemalar ham alohida o'ringa ega. Bunday ideologemalarda muayyan obraz yoki psixologik portret ifodalanadi. Ko'pincha bunday ideologemalardan foydalanish orqali kishilarning tasavvurida muayyan shaxs, yoki obraz atrofida jamiyatni konsolidatsiya qilish, yoki jamiyatni taraqqiyotini ularga bog'lash xususiyatiga ega bo'ladi. Bunday obrazlar ba'zan salbiy xarakterda ham namoyon etiladi. Natijada jamoatchilikni arxetip ideologemalarning ta'sirida milliy tasavvuri o'zgaradi.

Ko'plab postsovet davlatlardagi etnik va milliy tuzilish murakkab bo'lib ularning siyosiy elitasi jamiyatni muayyan mafkuralarga ishontirish uchun arxetip ideologemalardan foydalanishga harakat qilishadi. Lekin bu amaliyot hama vaqt ham ko'zlangan natijani beravermaydi. Maslan Ukrainaning arxetip ideologemalari Ivan Mazepa, Roman Shuxevich, Stepan Banderalar mamlakat aholisining barchasi tomonidan ham ijobiy qabul qilinmagan. Natijada mamlakat milliy barqarorligiga tahdid soluvchi muhit vujudga keldi. "Banderachilar" atamasi mamlakatdagi rusiyabon aholi tomonidan deyarli "fashist" atamasi bilan ma'nodosh ideologema sifatida qabul qilina boshlangan. Bu vaziyatda arxetip ideologema dezintegratsion ta'sir kuchiga aylanganini rad etmaslik kerak [8:2].

Ma'lumki Turkiya Respublikasi ham polietnik mamlakat bo'lib bu yerda milliy-etnik xarakterdagi muammolar konfessional muammolar bilan chirmashib ketgan. Hukumatning milliy siyosati mamlakatdagi kurdlar, armanlar, greklar va boshqa kamsonli millatlar tomonidan hamma vaqt ham ijobiy qabul qilinmaydi, aniqrog'i Turkiyada titul millat bo'lgan turklar va armanlar, turklar va greklar, turklar va kurdlar o'rtasidagi munosabatlarning taranglik darajasi nihoyatda baland sanaladi. Shuning uchun Turkiyadagi milliy mojarolarning fazasi doimo yuqori hisoblanadi. Bu yerdagi milliy mojarolar tarixi ancha qadimiy va hozirgi vaziyat o'tmishdagi voqealarning aks-sadosi sifatida namoyon bo'lmoqda degan xulosaga borsak xato bo'lmaydi. Mana shunday sharoitda Turkiyadagi siyosiy elitaning millatchilik

ruhidagi ideologemalarni qo‘llashi shusiz ham tarang bo‘lgan milliy va konfessional muhitni yanada og‘irlashuviga ta‘sir ko‘rsatadi. Bu yerdagi etno-konfessional vaziyatga tashqi kuchlar ham o‘z ta‘sirini o‘tkazishga intiladi va bu holat Turkiyaning tashqi dunyodagi obro‘-e‘tiboriga salbiy ta‘sir o‘tkazadi.

Kurdlar Turkiya hududida qariyb yuz yildan beri o‘zlarining markaziy hukumatning milliy siyosatiga norozilik bildirib keladilar. Chunki Turkiya hukumatining kurdlariga nisbatan olib borayotgan siyosatini hamma vaqt ham ijobiy baholash mumkin emas. 1982 yili qabul qilingan Turkiya Konstitutsiyasining 82-moddasida yozilgan “Turkiya davlati bilan bog‘langan barcha kishilar turk fuqaroligi bilan o‘z huquqlarini amalga oshiradilar”, deb yozilishi mamlakatdagi kam sonli millat vakillari o‘rtasida ham keskin norozilik keltirib chiqargan edi. Ayniqsa mahalliy kurdlar istiqomat qiladigan shaharlardagi balandliklarda “Kim turk bo‘lsa – u baxtli”, degan yozuvlarning paydo bo‘lishi jamiyatda turk va kurd ziddiyatlarini yanada salbiylashuviga olib keldi [7:1]. Bunda ideologemalar polietnik Turkiya uchun dezintegratsion kuchga ega bo‘ldi, hukmron elitaning o‘zi ham antikurd tashviqotni avj oldirgan edi. Hatto rasmiy manbalarda “kurd” atamasini qo‘llashga ta‘qiq qo‘yilib, kurdlariga nisbatan “tog‘lik turk” atamasi qo‘llanila boshlandi. Hatto kurd folklori kurd millatchiligining tashviqoti sifatida baholangan edi. Bunday vaziyatda kam sonli millatlar orasida Turkiya hukmron doiralarning ilgari surgan millatchilik ruhidagi ideologemalari kurdarning arxetip ideologemalar atrogida g‘oyaviy birlashuviga olib keldi. Kurdiston ishchi partiyasi lideri Abdulloh O‘jalan kurdarning ijobiy ma‘noda konsolidatsiyasiga xizmat qilgan edi [7:2]. Bunday vaziyatda ideologemalarning integratsion va dezintegratsion kuchi namoyon bo‘lib titul millatning kam sonli millatga qarshi tasavvurlarini o‘zgartirgan bo‘lsa, kamsonli millatning markaziy hokimiyatga qarshi kurash uchun terror yo‘lini ham tanlashiga olib kelgan edi.

Milliy-etnik mojarolar turli fazalarda namoyon bo‘ladigan Ispaniya uchun ham markazdan qochuvchi kuchlarning siyosiy intilishi namoyon bo‘lib turadigan Galisiya, Kataloniya va Baskoniya ham markaziy hokimiyatning milliy siyosatiga doimo xayrixoh emasligini bildirishadi. Jumladan, Kataloniyada oxirgi yillarda mustaqillikni yoqlab chiqadigan kuchlarning intilishlari tobora avj olmoqda. Mana shunday vaziyatda markaziy hokimiyatga qarshi Kataloniya hukmron doiralari qo‘llaydigan mashhur ideologema “Kataloniya bu Ispaniya emas!” bu muxtor o‘lkada aholining Ispaniya hukumatiga qarshi g‘oya atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Kataloniy va Ispaniya o‘rtasidagi ziddiyatda karikatura ko‘rinishidagi ideologemalar ham siyosiy qurol sifatida ishga solinib, ommaning muayyan dunyoqarashini shakllanishiga xizmat qilayotganini, milliy barqarorlik muhitiga nisbatan

dezintegratsion ta'sirga ega bo'layotganligini ta'kidlash joizdir. Internet maydonida siyosiy tusga ega bo'lgan karikaturalarni paydo bo'lishi ham polietnik mamlakatlarning milliy barqarorligiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu amaliyotdan foydalanish turli siyosiy kuchlarni muayyan maqsadga erishishi uchun xizmat qiladi [9:1].

Albatta karikatura shaklidagi ideologemalarning ta'sir kuchi shiorlar ko'rinishidagi ideologemalardan kuchli bo'lmasada ular ham kishilarni muayyan jarayonga nisbatan qarashlarini shakllanishi uchun jiddiy ta'sirini o'tkazadi. Odatda milliy va etnik konfliktlar muayyan darajada namoyon bo'layotgan hududlarda internet maydonidan tashqari, ommaviy axborot vositalarida ham tomonlarni bir-birini ayblaydigan, ba'zan haqoratimiz karikaturalar ommaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda aytish mumkinki bunday karikaturalarni hukmron siyosiy elitaning qo'li bilan tayyorlangan deb bo'lmasa ham, lekin ular ma'lum ma'noda siyosiy elitaning qarashlarini ifodalashini rad etib bo'lmaydi.



Yuqoridagi ikki karikatura mualliflari ideologik tus bergan hajviy rasmlarda Ispaniya hukmron doiralarining Kataloniyaga nisbatan yurgizayotgan milliy siyosatini qoralashga maqsad qilishgan bo'lib, kuzatuvchida Ispaniyaning Kataloniyaga nisbatan milliy siyosati adolatsizlikdan iborat ekanligi to'g'risida fikrlarni hosil qiladi [9:1]. Bunday karikaturaning ommaga taqdim etilishi ham milliy va etnik ziddiyatlarning haroratini yanada oshirishi mumkin, chunki ularda dezintegratsion mazmun yaqqol o'z ifodasini topadi.

Tahlil

Ideologemalarning xususiyatli tomoni shundan iboratki, ular yordamida polietnik mamlakatlarda aholining siyosiy jarayonlarga munosabatini muayyan

darajada shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Ularning mafkuraviy ta'sir kuchi nihoyatda yuqori bo'lib muayyan vaziyatda hukmron doiralarning mafkuraviy quroliga ham aylanadi. Bas shunday ekan ideologemalardan polietnik mamlakatlarda milliy va etnik munosabatlarni barqarorlashtirish uchun samarali foydalanish lozim. Buning uchun avvalo ideologemalar hukmron doiralar mafkurasini ifoda etadigan bo'lsa ularning jamiyat a'zolarini muayyan maqsad yo'lida birlashtiruvchi kuchga ega bo'lishini nazarga olish kerak.

Ikkinchidan, ideologemalarning muayyan milliy yoki etnik guruhning qadriyatlari, tili, diniga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan jihati namoyon bo'lmasligi kerak va ularda mamlakatdagi barcha millat vakillarining orzu-umidlari, ularning qiziqishlari o'z ifodasini topishi lozim.

Uchinchidan, siyosiy ideologemalarning turlarini muayyan tarixiy vaziyatda shunday samarali foydalanish lozimki, ularning vositasida ommaning siyosiy dunyoqarashida konstruktiv kayfiyatlar vujudga kelsin.

To'rtinchidan, siyosiy ideologemalar mamlakatdagi turli siyosiy kuchlarning qarashlarini ifoda etsin hamda destruktiv xarakterdagi ideologemalarning ta'sir kuchini kamayishiga olib kelsin, toki omma ular orqali integratsion g'oyalar bilan qurollansin.

Agar yuqoridagi vazifalarni bajara oladigan ideologemalar jamiyat hayotiga taqdim etiladigan bo'lsa, polietnik muhitdagi vaziyatga ular hamisha integratsion vazifani ado etishiga shubha yo'q.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ideologemalar jamiyat siyosiy hayotining bir qismi sifatida hamisha amal qilib keladi. Ularning ta'sir kuchi, kishilarning dunyoqarashini shakllanishidagi o'rnini hamisha inobatga olish kerak. Polietnik mamlakatlardagi etno-milliy muhitga siyosiy ideologemalar orqali goho destruktiv, goho konstruktiv ta'sir o'tkazish mumkin. Polietnik mamlakatlardagi siyosiy hukmron elita o'z fuqarolarini dunyoqarashini shakllantirishda ideologemalarning emotsional ta'sir kuchidan unumli foydalanishi mumkin. Agar hukmron siyosiy elita mamlakatdagi etno-milliy barqarorlikni mustahkamlashni maqsad qilgan bo'lsa ideologemalarning integratsion kuchiga alohida e'tibor beradi. Lekin, shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, geopolitik maqsadlar yo'lida ham ideologemalardan samarali foydalanadigan siyosiy kuchlar mavjud. Ularning bunday maqsadlarini aniqlash va ilgari suradigan ideologemalarining ta'sir kuchini pasaytirish polietnik mamlakatlar hukmron doiralarning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бейсембаев С. Феномен казахского национализма в контексте сегодняшней политики: от отрицания к пониманию. Фонд Сорос – Казахстан, 2015.
2. Гизатуллина А., Гумерова М. Идеологемы постперестроечного периода как фактор формирования нового сознания. <https://cyberleninka.ru/>
3. Клущина Н.И. Идеологема в современной медиакommunikации. Российская ассоциация международных исследований. – <https://risa.ru/images/8theses/s13-klushina.docx>
4. Малышева Е.Г. Идеологема как лингвокогнитивный феномен: определение и классификация. Политическая лингвистика. 2009.№3.
5. Романова Т. Идеологемы и аксиологемы русского языкового сознания как отражение констант и динамики национальной ментальности. Нижний Новгород, 2019.
6. Хитров А. О теориях национализма. <https://www.hse.ru/>
7. Шореш А. Деятельность Рабочей партии Курдистана как фактор формирования политической культуры курдов Турции. <https://cyberleninka.ru/>
8. Яроцкая Г. Антропонимы как идеологемы. <https://cyberleninka.ru/>
9. Референдум в Каталонии и карикатуры. <https://banana.by/>
10. Журнал исследований социальной политики. 2018. № 16.

ПЕЙЗАЖ ВА БАДИИЙ МАҲОРАТ

Нарзиева Маъмура Норпулатовна

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети доценти,

филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

email:narziyevamamura164@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-0542-8826>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада бадиий асар матнида ўзига хос ўрин эгаллаган бадиий тафсиллардан бири пейзаж ҳақида фикр юритилади. Л.И.Тимофеев, М.Н.Эпштейн, Т.Н.Гурев, Н.Б.Мурадалиев, К.В.Пигарев сингари гарб адабиётишунос олимларининг пейзаж ҳақидаги қарашлари атрофлича таҳлилга тортилади.

Калит сўзлар: табиат манзаралари, тасвир, сюжет, руҳий ҳолат, бадиий восита, эстетик қувват.

ПЕЙЗАЖ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МАСТЕРСТВО

Нарзиева Маъмура Норпулатовна

Доцент Самарқандского государственного университета имени Шарофа

Рашидова

Доктор философии в филологии (PhD)

email:narziyevamamura164@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-0542-8826>

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается одна из художественных деталей, занимающая особое место в тексте художественного произведения, пейзаж. Подробно анализируются взгляды на пейзаж западных литературоведов, таких как Л.И.Тимофеев, М.Н.Эпштейн, Т.Н.Гурьев, Н.Б.Мурадалиев, К.В.Пигарев.

Ключевые слова: природные пейзажи, образ, сюжет, душевное состояние, художественные средства, эстетическая сила.

LANDSCAPE AND ARTISTIC CRAFT

Narziyeva Ma'mura Norpulatovna

Associate Professor of Samarkand State University named after Sharof

Rashidov

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

email:narziyevamamura164@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-0542-8826>

ABSTRACT

This article examines one of the artistic details that occupies a special place in the text of a work of art, landscape. The views on the landscape of Western literary scholars such as L.I. Timofeev, M.N. Epstein, T.N. Guryev, N.B. Muradaliyev, K.V. Pigarev are analyzed in detail.

Key words: *natural landscapes, image, plot, state of mind, artistic means, aesthetic power.*

Инсоният яралгандан буён аждодларимиз томонидан ёзилган минглаб китоблар она табиатга, унинг гўзал таърифу тавсифига бағишланган. Ёзувчи, айниқса, табиат манзаралари тасвирига алоҳида эътибор қаратади ва кўпгина асарларини ўзига хос пейзаж билан бошлайди. Аслида ҳар бир асарда пейзажнинг ўрни муҳим бўлиб, усиз асарнинг таъсирчанлиги ва воқеалар ривожининг ишонарлилигини тасаввур қилиш қийин. Шунинг учун ёзувчилар асар яратаётганда ўз ғоявий ниятини китобхонга етказиш учун фақат қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатлари эмас, балки уларни ўраб турган табиат манзаралари тасвирларидан ҳам кенг фойдаланади.

Табиат тасвири сюжетнинг таркибий қисмларидан бири бўлиб, асарнинг ғоявий, эстетик қувватини ошириш, сюжет ривожини тезлатиш ёки секинлатиш, қаҳрамоннинг ички дунёсини очиш каби вазифаларни бажаради. Асарда табиат манзарасининг тасвирланиши билан ёзувчи ўзининг юртига, Ватанига, она табиатга бўлган муносабатини ҳам ифодалайди. Бадий асарда пейзаждан икки хил усулда фойдаланилади:

1) қаҳрамоннинг руҳий ҳолатини табиат тасвири билан параллель равишда тасвирлаш;

2) қарама-қарши (контраст) усулда тасвирлаш.

Пейзаж тасвири орқали муаллиф ўзининг асосий ғоявий ниятини илгари суриши ҳам мумкин. Аммо пейзажлар қаҳрамонларнинг ҳиссий тажрибаларини очишнинг асосий воситаларидан биридир. Бундан ташқари, улар содир

бўлаётган нарсаларга муаллифнинг муносабатини етказишга ҳам хизмат қилади. Қолаверса, пейзаж асарнинг ғоявий мазмуни ва характерларни очишда қўшимча бадий восита ҳамдир. Ёзувчи пейзаж орқали ё бевосита ўз фикрларини баён қилади ёки персонажларнинг ички кечинмаларини кўрсатади. Ҳар иккала ҳолда ҳам пейзаж маълум ғояни ифодалайди. Шу ўринда пейзаж атамасига мурожаат этишга тўғри келади. Пейзаж поэтик манзара яратишнинг муҳим воситаси. Луғатларда берилишича, пейзаж француз тилидаги «paysage» сўзидан олинган бўлиб, «мамлакат», «юрт», «жой», «ер» маъноларини англатади. Бадий асар таҳлилига доир адабиётларда пейзаж санъатининг асар тузилишида муҳим ўрин тутиши қайд этилади. У универсал шаклий-ҳикоячилик категорияси бўлиб, матннинг ғоявий-мавзуйи, макон ва замонда ташкиллашувига хизмат қилади ҳамда услубий ва маънавий кўп вазифалигига кўра ажралиб туради. Адабиётшунослик илмида анъанага кўра пейзаж дейилганда табиат кўринишлари тушунилади. «Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати»да берилишича, «Бадий асарда акс эттирилган жой, табиат тасвири бўлиб, у ёзувчининг методи ва услуби билан боғлиқ ҳолда турлича вазифаларни ўтайди» [14. 228].

Л.И.Тимофеевнинг кўрсатишича, пейзаж – «бадий матнда ёзувчи методи ва услубига боғлиқ ҳолда турли вазифаларни бажарувчи табиат кўринишлари тасвиридир» [11. 216]. Б.Галанов эса пейзажни «асардаги ҳаракат вақти ва жойини белгиловчи ва маълум кайфият ҳосил қилувчи табиат тасвири» [3.185.] деб ҳисоблайди. М.Н.Эпштейн пейзажни «ўзаро боғлиқ бўлган предметли деталлар тизимида табиатнинг яхлит тасвирланиши» сифатида тавсифлайди. Т.Н.Гурев эса пейзажни табиат манзараси деб талқин қилади.

Рассомлик санъатига эътибор қаратилса, манзара, яъни пейзаж жанр сифатида эътироф этилади. Бироқ адабиётшуносликда пейзаж жанр сифатида ифода этилмайди. Демак, юқоридаги фикрлардан шу нарса аён бўладики, пейзаж – табиатнинг бадий асардаги тасвиридир.

Н.Б.Мурадалиев бадий асардаги пейзажнинг уч элементи, босқичи мавжудлигини қайд қилади. Булар:

- 1) пейзаж деталли;
- 2) пейзажли тасвир;
- 3) пейзажли асар.

Муаллифнинг фикрича, «ўзида эмоционал мазмун, эстетик баҳо ва муаллиф позициясини қамраб олган образли деталь» [6. 139.] пейзажли деталь дейилади. Адабиётшунос К.В.Пигаревнинг таъкидлашича, пейзаж, аввало,

«ватанга муҳаббат туйғусига тўлиб тошган бўлиши керак. Шундагина у миллий пейзаж ҳисобланади» [8.7]

Шеърятда муаллифнинг ўз асарида етакчилик қилаётган образга ва шу поэтик образ орқали тасвирланаётган ҳолатга бўлган муносабатининг қай тарзда ифодаланиши муҳим ўрин тутаяди. Ижодкор поэтик руҳиятни очишга мос сўз ва ташбеҳларни танлар экан, табиат тасвири жараёнида ўз ҳолатини ҳам уларнинг мазмунига сингдириб юборади. Демак, шоир табиат тасвирини оддий ҳолатда бермайди. Унга руҳий кечинма юклайди. Шу орқали фалсафий фикрларга йўл очаяди. Худди шундай ҳолатни Рауф Парфи ижодида ҳам кузатиш мумкин. “Рауф Парфи шеърларидаги табиатнинг ҳар бир ҳодисасида инсон қиёфаси, кечинмалари, нафаси борлигини ҳис қиламиз. Масалан, куйнинг ботиш чоғидаги ҳолати сочларини турмаклаётган гўзал қиз қиёфасида (“*Кундуз ўйга чўқар, тун яқин...*”), дарё сувининг мавжлари араб ёзувидаги ғазал, сув бўйидаги майсалар ҳолати китоб ўқиётган инсон шаклида (“*дарё мавжларига ёзилмиш ғазал...*”), қорлар оғушидаги боғлар ҳолати илоҳий либос кийган инсонлар қиёфасида (“*Паға-паға оппоқ қор ёғар...*”) кузатилади. Шоир табиат ҳодисаларига ҳам инсондек қарайди. Ҳатто ёмғир томчилари уриляётган дарча тасвирида дардманд инсон изтироблари борлигини ҳис қиламиз:

*Ташқарида шовуллар шамол,
Ёмғир қаттиқ ёғар бу кеча.
Ташқарида шовуллар шамол,
Юзларини ювмоқда дарча”* [10. 39].

Рауф Парфи шеъриятидаги табиат манзараси, албатта, бошқа ижодкорлар яратган табиат манзарасидан фарқланади. Рауф Парфи кўпроқ табиат тасвирини инсоннинг маълум бир ҳаёти, умри ёки ўзига қиёслаган ҳолда беришга интилади. А.Орипов эса биринчи ўринга лирик қаҳрамоннинг ўй-хаёлларини қўяди. Табиат тасвири орқали фалсафий мушоҳадага йўл очаяди. Иккала шоир ҳам фалсафий мушоҳада юритса-да, бироқ уларнинг тасвир меъёрида фарқли ҳолатлар кўзга яққол ташланади.

Асқад Мухтор шеъриятига эътибор қаратилса, унда ҳам табиат тасвири фалсафий мушоҳадага йўл очганлигига гувоҳ бўлиш мумкин:

*Мен қирларга чиқдим. Ифор анқиган,
Турғай нота ёзар камалак нурига.
Мовий шуъла ичра осмон балқиган,
Жийда келинчакдай ҳарир тўрида,
Тасмадек дарёлар куй бўлиб туюлди,*

Вазнга тушгудай талпинди сабо...

“Асқад Мухтор инсон умрини табиат хоссалари билан уйғунликда кўраркан, оний умр лаҳзаларидан бетакрор санъат асарлари яратади. Шахснинг маълум вақт ичида кечган ҳис-кечинмалари, ўй ва мушоҳадалари ва маънавий интеллектуал ҳаётини поэтик образларга кўчиради; шу тариқа шафқатсиз вақт, шиддатли дамлар суръатини бир зум тин олдиргандек бўлади” [9.36].

Асқад Мухторнинг табиат борасидаги қарашлари Р.Парфи услубига яқинроқ. А.Мухтор ҳам Р.Парфи сингари табиат манзарасини инсон ҳаёти билан боғлаб юборади. Шу асосда ўз фикрлари билан ўртоқлашади.

Истеъдодли шоир А.Орипов табиатдан унумли фойдаланса-да, унинг маҳорати лирик қаҳрамон кечинмаси орқали фалсафий мушоҳадага йўл очганлиги билан белгиланади. Абдулла Ориповнинг “Онажон”, “Баҳор” шеърларидаги истисносиз барча тафсиллар психологик бўлиб, шунчаки шароитни кўрсатишга хизмат қиладиган бирорта ҳам предметли деталь йўқ. Бу шеърлардаги барча деталлар тўлиғича шоир руҳий ҳолатидаги турли сезим ва кечинмаларни теранроқ ифодалашга хизмат қилади. Мабодо, табиат тасвирига бағишланган соф лирик битикларда предметли деталь тасвирлари учраган тақдирда ҳам улар ё бевосита, ёхуд билвосита лирик қаҳрамон руҳияти ва кайфиятини ифодалашга қаратилган бўлади. Миртемирнинг “Бетобликда”, Р.Парфининг “Ёмғир ёғар”, А.Ориповнинг “Ёмғир ҳам тинмади...” сингари шеърларидаги табиат манзарасига оид тафсиллар ўз ҳолича мақсад эмас, балки руҳий ҳолатни таъсирли йўсинда бериш воситасидир. Кўринишдан фақат пейзаж ифодасига бағишланган бу каби шеърлар аслида тўлиғича кайфият ва руҳий ҳолатни кўрсатишга қаратилган. Шу боис ҳам лирикадаги пейзаж тасвирини табиат манзараси дейишдан кўра, шоир ёки лирик қаҳрамон кайфиятларининг воситали манзараси дейиш тўғрироқ бўлади. Лирик шеърларда ахён-ахёнда учраб қоладиган портрет ёки атроф-оламдаги нарсаларга оид тафсиллар тўғрисида ҳам шу гапни айтиш мумкин [4. 176]. Шоирнинг “Чўпон” шеърида ҳам табиатнинг бетакрор манзаралари шоир ижоди объектига айланган манбалар эканлиги ойдинлашади: *Савлат тўкиб, қўриқчисимон, // Боботогинг турар ёнингда.// Сени севиб, қаршилаган тонг // Нур тўшайди истиқболингга* [7. 17].

“Капалак ва мен” шеърида эса ўзини капалакка менгзайди: *Аллақайда кезиб тинимсиз // Йиғдик роса завқ атирларин // Сўнгра баҳам кўрдик иккимиз, // Менга тегди шу сатрларим* [7. 17].

Ўзбек шеърятининг тараққиётини (XX аср иккинчи ярмидан мустақилликнинг илк давригача бўлган давр) шоир Абдулла Орипов ижодидан

айро ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Ваҳоланки, унинг инсон руҳиятини воқеликдаги аксини ифодалаш воситаси бўлган шеърлари ижодкорнинг ҳаётни кузатишдан ҳосил бўлган хулосаларга, фалсафий мушоҳадаларга бойлиги билан ажралиб туради. Бошқача айтганда, Абдулла Ориповнинг ижоди бир томондан шоирнинг йиллар оша ижодий юксала боришини акс эттирса, иккинчидан, шоир яшаган давр ижодий муҳити, давр шеъриятининг асл қиёфасини ўзида мужассам қилган. Адабиётда табиат манзаралари акс этган тасвирлар орқали лирик қаҳрамон руҳиятини очиб бериш анъанага айланган. Абдулла Ориповнинг ёшлик чоғларида ёзилган шеърларида табиат манзарасини тасвирлашда ранг тасвир усулига кўпроқ мурожаат қилиш кузатилади. Бунда табиатда мавжуд предметлар кўриниши, уларнинг ҳаракати поэтик тасвир воситасига айланар экан, шоирнинг борлиқни идрок қилиши, ундан таъсирланиши натижасида юзага келган фалсафий хулосалари воқеланади. Шоирнинг “Булут тошди” шеърида табиат манзараси китобхон кўз ўнгида жонли тарзда намоён бўлади: Булут тошди, // Водий осмонини // Қоплаб олди хира кўланка. // Ел овора // Намхуш хазонни // Учиролмай боғдан йўлакка. // Новдалари бирдан қотгандай // Кўринади сукутда толзор. // Гўё ниманидир кутгандай // Булутлар ҳам ювош, беозор... [7. 58].

Шеърда табиатдаги биргина ҳолат – ёмғир ёғишидан олдин табиатнинг тараддуди поэтик тасвирланган. Шеърни ўқиш жараёнида китобхон кўз олдида дастлаб ҳавони кўрғошинранг булутлар галаси қоплаб олганлиги гавдаланади. Муаллиф бу ҳолатни тасвирлашда узундан узоқ сўзларни қўллашдан қочади, бу вазифани биргина *тошди* сўзини қўллаш билан уйдалаган. Кейинги мисраларда осмонни қоплаган булутлар хира кўланка тусини олади, билинар-билимас ел намхуш хазонларни учира олмай овора бўлади, гўё нимагадир қулоқ тутгандай толларнинг новдалари тек қотган. Осмондаги булутлар ва ердаги толзор ва ел эпкини ўзаро уйғунлик, беозорлик ҳосил қилганча табиатда бирдан содир бўладиган ўзгаришни кутмоқда. Табиатнинг бундай бадий маҳорат билан тасвирланишини Абдулла Орипов индивидуал услубига хос дейиш мумкин. Назаримизда, шеър куз фаслининг поэтик қиёфасини гўзал тарзда акс эттирган. Шоир бу тасвирни бериш билан бирор сиёсий мақсадни кўзламаган. Аммо шоир ижодига бағишланган айрим ишларда бунинг аксига ҳам дуч келишимиз мумкин. Адабиётшунос Д.Бегимкулов “Агар Абдулла Ориповнинг табиат билан боғлиқ барча шеърлари (“Баҳор”, “Табиат” ва ҳоказо) структурасидан, таҳлилидан, руҳидан келиб чиқилдиган бўлса, шеър фақат табиат манзараси тасвирига бағишланмаганлиги аён бўлади. Уни ўлкани ёв (яъни мустамлакачилар) эгаллаб олган, ел (яъни халқ) қоракўланкани, намхуш

хазонни (мустамлакачилик бўйинтуруғини) ўз елкасидан силтаб ташлай олмай, муте ҳолатида, толзор (юртнинг аҳли донишлари, етакчилари) ҳам сукутда, новдалари қотиб қолгандек, кўланкани супуриб ташлашга журъати етмагандек, бироқ бу абадий эмас, қачондир булут тошиб, шаррос ёмғир қуйиши, кўланканинг даф бўлиши, ёқимсиз увада хазоннинг итқитилиши, боғнинг тозариши, яъни эгаменлик интизорлик билан кутилмоқда, деб тахмин қилиш мумкин” [2. 278-279], деган фикрларни билдиради. Адабиётшунос М.Райҳонова эса бу фикрга қўшилмайди. Унингча: “Шеърдаги образлар бу хил талқиннинг зўрма-зўракилигини кўрсатади. Масалан, елнинг халққа нисбат берилиши тўғри эмас, чунки елнинг асосий хусусиятларидан бири беқарорлик, бемаконлик. Абдулла Орипов ўхшатишлари ҳамиша ўта ёрқин ассоциативлиги билан ажралиб туради. Шоир нарса-ҳодисалар ўртасидаги ташқи ўхшашликни ҳам, моҳиятни ҳам доимо диққат марказида тутди. Агар ижодкор услубига хос мана шу жиҳатдан келиб чиқсак, у халқни елга нисбат бериши мумкин эмас”. Дарҳақиқат, М.Райҳонова тўғри таъкидлаганидек, елни халқ сифатида эътироф этиш мумкин эмас.

“Пейзажнинг бадиий асардаги ўрни ва аҳамияти воқеа кечаётган жой ва вақт ҳақида тасаввур бериши билан белгиланади. Эпик асарларда пейзажга лирик ва драматик асарларга нисбатан анча кенг ўрин берилади. Драматик асарларда пейзаж роман, қисса, ҳикоядаги каби батафсил тасвирланмайди. Уларда денгиздаги бўрон, шамол, кеча-кундуз шартли ифодаланади. Лирик асарларда пейзаж деталь сифатида берилади ва лирик қаҳрамоннинг кайфияти, ҳолати у турган макон ва пайт ҳақида тасаввур уйғотади” [12. 91]. Эпик асарларнинг гўзал намунаси бўлган Чингиз Айтматовнинг “Соҳил ёқалаб чопаетган олапар” қиссасида ҳам кун ботиш палласи тасвирланган: “Олам олам бўлиб яралгандандан буён, тун кундан туғилган, кун тундан туғилган замонлардан буён аҳвол шу – икки қудратли куч ўртасидаги олишув давом этади: бундан буён ҳам куну тун, туну кун, токи ер билан сув бор экан, улар абадул-абад шундай курашаверади. Куну тун, туну кун...” [1. 354]

Табиатнинг бу гўзал манзарасининг тасвирини биз Абдулла Ориповнинг “Талош палласи” шеърисида кўрамиз. Унда айни куёшнинг уфққа бош қўйиб ботиши контраст усули ёрдамида маҳорат билан чизиб берилган: *Куёш ботиб борар, // Уфқ қирмиз ранг, // Қуршаб олаётир ер юзини тун. // Сўнгги дақиқада қилаётир жанг // Тун ва кун, тун ва кун, тун ва кун. // Талош пайти дерлар ушбу лаҳзани, // Олишар ошкора нур билан зулмат. // Борлиқ жим кузатар қонли сахнани, // Ҳар ёнда ваҳмкор, сирли сукунат. // Шамол ҳам қайгадир беркинган бу он, // Ғужгон қушларнинг ҳам тинган нафаси. // Сафарга*

чиқилмас, ўқилмас Қуръон, // Талош палласи бу, талош палласи. // Тонгда қайтурман деб, умидга тўлиб, // Фалак пучмоғига чекинар қуёш. // Энди маржон-маржон юлдузлар бўлиб, // Само яноғида ялтирайди ёш [7. 46]. Шеърда инсонни ўраб турган борлиқ, наботот ва хайвонот ўртасидаги узвий боғлиқлик, инсон умри ва йил фасллари алмашинувидаги ўзаро ўхшашлик, оддий заррадан тортиб бутун коинотгача юз берувчи ҳар бир воқеа-ҳодиса инсонга боғлиқ эканлиги тўғрисидаги фалсафий қарашлар ўз аксини топган. Контраст ҳолатдаги табиат тасвири жонланар экан, ундаги суратланган воқелик шом тушиш вақтини ёдга солади. Вақт диалектикаси асос бўлган бу шеърда тирик табиатнинг тирилтириш жараёни аксланади. Вақт сахнада тўхтаб қолган, бироқ тун ва кун ўртасидаги зиддият тобора авж нуқталарга кўтарилмоқда. Шеър конфликт асосига қурилганлиги боис шоир тун ва кун орасидаги зиддиятни қон тўкиш даражасидаги жангга қиёслайди. Табиатнинг гўзал тасвири кун ботиш палласини эса талош палласи дея эътироф этади. Метафизик жараёни шеърга сингдирар экан, шоир наздида табиат, борлиқ бу кураш сахнасини жим кузатишга маҳкум, ҳар ёнда ваҳмкор сирли сукунатнинг тантанавор ғалабасидан ғужғон қушлар ҳам нафас олишга қодир эмас, шамол ҳам бу онда қаергадир беркиниб олган. Бу каби сирли ҳилқат атмосфераси инсон руҳиятига таъсир этмасдан қолмайди. Айниқса, “Фалак пучмоғига чекинар Қуёш. // Энди маржон-маржон юлдузлар бўлиб, // Само яноғида ялтирайди ёш” каби психологик тасвир шоир маҳоратини белгилаб қолмай, унга ўзига хос жозиба ҳам бағишлайди. Бу табиатнинг ажиб манзараси ҳар кун такрорланса-да, бироқ унга эътибор у қадар теран эмас. Шоир эса нигоҳни теранлаштиришга, тийраклаштиришга сазовор бўлган. Умуман, “Абдулла Орипов ҳақиқий истеъдодларга хос иш тутади. У қоғоз тўлдириш, мисраларни кўпайтириш, китобнинг босма тобоғини кўпайтириб, жилдини қалин қилиш учун асар ёзмайди. Унинг учун асосий масала – маъно. Мўлжалдаги маънони ифодалаш учун образ излайди, сўз ахтаради. Зарур образларни топиб, мўлжалга тегадиган сўзларни териб, жой-жойига қўйгандан кейингина шеърни битди ҳисоблайди” [13. 275]. Мазкур шеър ҳам сараланган сўзлар асосида яратилган бўлиб, мўлжалдаги маънони бехато бера олади.

Шуниси характерлики, ҳар қандай ҳолатда ҳам ифодалаётган фикрлар замирида ижодкорнинг бадий матн талабларига тўлиқ амал қилиши, воқелик фактларига, табиатнинг турли кўринишларига нисбатан ижобий ёки салбий муносабати бўртиб туради. “Бадий матнда бошқа услуб матнларида бўлганидек қатъий мантиқ, соддалик, тушунарлилик, нормативлик каби қонуниятларга тўла-тўқис амал қилинавермайди. Унда бадий тасвир воситаларидан унумли

фойдаланилади. Таъсирчанлик биринчи планга кўтарилади. Оҳангдор, жозибадор сўзлар кўп қўлланилади. Тасвирланаётган воқеликда уйғун бир мусиқа, ички бир гармония сезилиб туради. Инсонни руҳан тўлқинлантириш, йиғлатиш, кулдириш, хаёлот оламига етаклаш, ўйга чўмдириш, эстетик тафаккурини шакллантириш, воқеа-ҳодисаларга теран, бошқача назар билан боқишга ўргатиш каби кўплаб имкониятларни ўзида мужассам қилган. Бадиий матн, маълумки, бадиий услуб талаблари, қолиплари асосида шакллантирилади, шунинг учун унда поэтик, романтик, тантанавор ифода шаклларида кенг фойдаланилади” [5. 22]. Оддий тасвирларда йирик фалсафий фикрларни ифодалаш, табиат манзараларини инсон руҳиятига боғлиқ ҳолда тасвирлаш, ўқувчи эстетик тафаккурини шакллантиришга хизмат қилувчи поэтик, тантанавор ифода шаклларида фойдаланиш Абдулла Орипов услубининг ўзига хос жиҳатидир. Бу унинг 1972 йида ёзилган “Соғинч” шеърисида ҳам кузатилади. Шеърни ўқиган ўқувчи тасаввурини учта деталь: булут, осмон ва йўл эгаллаб, борган сари ўз кўламини кенгайтира боради: *Парчагина булут, // Чексиз осмон, // Адир ортидаги ёлғизоёқ йўл. // Барча ташвишларни унутиб, шодон, // Қайтгим келаётир қошингга буткул. // Қисмат майин ичдим – аччиқ ва тахир, // Туйдим эҳтироснинг самовий кучин. // Дунёда одамзод яшамас, ахир, // Фақат иродасин синамоқ учун. // Парчагина булут, // Чексиз осмон, // Адир ортидаги ёлғизоёқ йўл // Барча ташвишларни унутиб, шодон, // Қайта олсам эди қошингга буткул* [7. 217].

Абдулла Ориповнинг кўпчилик шеърларида пейзаж портрет ҳамоҳанглигида суратлантирилади, яъни шоир пейзаждаги аниқ портрет ёки портретдаги пейзажни фалсафий ўйлар оғушида ўз ўқувчисига тақдим этади. Шу боис манзара янада жонланади, янада конкретлаштирилади. Ўқувчининг кўз ўнгисида унинг шаклу шамоёйили, макон-манзараси сифатида акси ўз ифодасини топади. Юқоридаги шеърда ҳам худди шундай ҳолат кузатилади. Шеърни ўқиш баробарида кўнгилни қандайдир маҳзун туйғулар эгаллайди, ўйга толдиради. Шеърнинг дастлабки мисраларида қўлланилган “*парчагина булут, чексиз осмон*” образлари шоирнинг ижодга эндигина қадам қўйган даврларида ёзилган асарларида ҳам учрайди. Улардаги сатрлар ортида табиат гўзаллигидан, булутлар ҳаракати ва осмон чексизлигидан завқланган ўспирин бўй кўрсатади. Аммо бу шеърда-чи? Бунда шоир ижодида етакчи деталлар бўлиб келган парчагина булут ва чексиз осмон ёнига янги бир унсур – адир ортидаги ёлғизоёқ йўл қўшилди. Йўл эса, табиийки, ўтмишга – шу вақтга қадар босиб ўтилган ҳаёт йўлига ишора қилмоқда. Инсон руҳиятида исён қилаётган руҳ фожиаси рамзлар воситасида юзага чиқади. Айтиш мумкинки, шеърдаги

деталлар – инсон фожиасини акс эттиришга хизмат қилувчи рамзлардир. Шоирнинг нега ёшлигини қўмсаб қолганлиги сабаби эса “*Барча ташвишларни унутиб, шодон, Қайтгим келаётир қошингга буткул*” деган жумлаларда акс этмоқда. Изоҳ эса оддий: шаҳардаги ғийбатлардан, фитналардан сиқилган шоир барча ташвишларни унутиб, беғубор болалигига, ўзи туғилиб ўсган манзилига қайтишни истайди. Шаҳар ҳаётида эришгани ўзи айтганидек, “*Қисмат майин ичдим – аччиқ ва тахир, Туйдим эҳтироснинг самовий кучин.*” Дунёда инсоннинг яшашдан мақсади тўғрисида ўз фалсафий хулосаларига эга: *Дунёда одамзод яшамас, ахир, Фақат иродасин синамоқ учун.* Ана шундай ҳолатда кўнгил куши озодликка, танҳоликка интилади. Аммо шоир ўзи интилган ўша илоҳий масканга элтувчи “*адир ортидаги ёлғизоёқ йўл*”га чиқа оладими? Бу фикрлар фақат шоирнинг кўнглидан кечганлиги, қафасдан ташқарига талпинган руҳнинг исёни эканлиги, ушалмас армон эканлиги бўртиб туради: “*Барча ташвишларни унутиб, шодон, Қайта олсам эди қошингга буткул*”. “Рамзий ва аниқ маънолар бирикиб, ўтган онлар соғинчи, ортга қайтиб бўлмаслик якка олам ва бутун одамзод фожиаси ҳақида хиссий фалсафий таассурот уйғотади. “*Парчагина булут, чексиз осмон, адир ортидаги ёлғизоёқ йўл.*” Бу ҳам манзара, ҳам рамз. Бир неча сўз ёрдамида ҳар бир одамга таниш манзара яққол гавдаланади. Демак, манзаралиги тайин. Шеър ўқиб бўлингандан кейин (“синчков ўқиш” усули) эса рамзлилик ва рамзнинг аниқ маъно доираси маълум бўлади. Дастлаб “булут” ва “осмон” сўзларининг ёндош туришига ва уларнинг эпитетларига эътибор берайлик. Булут парчагина, осмон чексиз. Ортга қайтишга интиқ лирик қаҳрамон (“мен”) манзарадаги “булут”га, лирик “мен”га қарши турган куч дунё (“*Дунёда одамзод яшамас, ахир...*”) осмонга беихтиёр менгзалади. Шунда “парчагина” сўзи одамнинг вақт қаршисида иложсизлигини, “чексиз” дунёнинг бепарво поёнсизлигини ифодалашга сафарбар бўлади.) “Парчагина”даги “-гина” кичрайтирув қўшимчасининг ролини айтмасдан бўлмайди. (Парчагина булут вақт олдида чорасиз одам.) “Адир” ўтиб келинган вақт масофаси, “ёлғизоёқ йўл” умрнинг тайин якка-якка кечишини (зеро, ҳеч ким қўшилишиб умр кечира олмайди, ҳар кимнинг умри ўзиники) рамзий ифодалайди”.

Демак, адабиётшунослик илмида пейзажга берилган таърифларни умумлаштирсак, унинг кўп маънода қўлланиши маълум бўлади. Юқоридаги фикрлардан аён бўладикки, ижодкорларнинг табиат манзараларига бағишланган шеърлари улар руҳиятининг кўзгуси дейиш мумкин. Табиат тасвири акс этган шеърларда табиатнинг мафтункор манзаралари, ундан ижодкор руҳиятида содир бўлган ҳайрат, қувонч, жўшқинлик акс этган бўлса, вақт ўтиши билан бу

шиддат, жўшқинлик сокинлик, вазминлик билан алмашади. Энди шеърларда фалсафий теранлик, табиат ҳолати ва руҳий кечинма муштаракликда ўз ифодасини топади. Шу боисдан ҳам, ижодкорлар томонидан яратилган табиат манзаралари уларнинг юксак поэтик маҳоратидан дарак беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Айтматов Ч. Соҳил ёқалаб чопаётган олапар. – Тошкент: Navro‘z нашриёти, 2015. – Б. 354.
2. Бегимкулов Д. Руҳият иқлимлари инкишофи // Орипов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – Б. 278-279.
3. Галанов Б.Е. Живопись словом. Портрет. Пейзаж. Вещь. – М.,1974. – С. 185.
4. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б. 176.
5. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 22.
6. Мурадалиева, Н.Б. Романтический пейзаж в литературе. – Баку., 1991.
7. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.
8. Пигарев, К.В. Русская литература и изобразительное искусство. Очерки о русском национальном пейзаже середины XIX в. – М., 1972. – С. 7.
9. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 36.
10. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б. 39.
11. Тимофеев Л.И., Тураев С.В. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – С. 216.
12. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – В. 91.
13. Қўшжонов М. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – Б. 275.
14. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 228.

QISHLOQ XO‘JALIGI SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Ro‘zimatov Sanjarbek Qosimjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Jahon iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lgan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik va unga aloqador tarmoqlarni o‘z ichiga olgan agrosanoat majmuasi dunyoning ko‘plab iqtisodiyotlarining asosini tashkil etadi va dunyo aholisini oziqlantirish qolaversa turli sanoat tarmoqlarini xom-ashyo bilan ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Dunyo iqlim o‘zgarishi, aholi sonining o‘sishi va resurslar tanqisligi kabi muammolarga duch kelar ekan qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar kiritish ham xavflarni kamaytiradi ham imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi investitsiyalarining turli qirralarini, shu investitsiyalar nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashini, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishini, texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirishini va barqaror tadqiqotlar va amaliyotlarni ta‘minlashini bu borada yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar olamiz.

***Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi, dehqon, diversifikatsiya, agrobiznes aksiyalari, investitsiya kiritish, investitsion strategiya, agrosanoat majmuasi, infratuzlimani rivojlantirish, texnologik taraqqiyot.*

АННОТАЦИЯ

Агрпромышленный комплекс, являющийся важной отраслью мировой экономики, включающей сельское, лесное, рыболовное и смежные отрасли, составляет основу многих экономик мира и, помимо того, что кормит население планеты, поддерживает различные отрасли промышленности. играет решающую роль в снабжении сырьем. Поскольку мир сталкивается с такими проблемами, как изменение климата, рост населения и нехватка ресурсов, инвестиции в сельское хозяйство одновременно снижают риски и открывают новые возможности. В этой статье мы получаем правильные аспекты различных аспектов инвестиций в сельское хозяйство, тот факт, что эти инвестиции не только обеспечивают продовольственную безопасность, стимулируют экономическое развитие, стимулируют

технологические инновации и обеспечивают устойчивые исследования и практику, а также реформы, проводимые в нашей стране.

Ключевые слова: *сельское хозяйство, фермер, диверсификация, действия агробизнеса, инвестиции, инвестиционная стратегия, агропромышленный комплекс, развитие инфраструктуры, технологическое развитие.*

ABSTRACT

The agro-industrial complex, an important part of the world economy, comprising the rural, forestry, fisheries and related industries, is the basis of many economies in the world and, besides feeding the population of the planet, supports various industries. Plays a crucial role in the supply of raw materials. As the world faces challenges such as climate change, population growth and resource scarcity, investing in agriculture is simultaneously reducing risks and opening up new opportunities. In this article we get the right aspects of different aspects of investment in agriculture, the fact that these investments not only provide food security, stimulate economic development, Stimulate technological innovation and ensure sustainable research and practices, as well as reforms being undertaken in our country.

Key words: *agriculture, farmer, diversification, agribusiness activities, investment, investment strategy, agro-industrial complex, infrastructure development, technological development.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2023 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi imzolagan qarori o‘tgan yil uchun muhim ahamiyat kasb etdi [1]. Qolaversa O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan satrategiyasida belgilangan bir qator ustuvor vazifalar ham yurtboshimizning olib borayotgan ulkan sa’y-harakatlaridan biri desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. “Bu sohaning mehnati qanchalik sharaflı, noni esa, qanchalik totli va shirin ekanini barchamiz yaxshi bilamiz” , “dehqon bu – hayotning baquvvat ustuni, tiriklikning mustahkam tayanchi”dir [2]. Bularning barchasi muhtaram prezidentimiz so‘zlaridir. Ko‘rinib turibdiki bu so‘zlarning zamirida juda ulkan ma’nolar mavjud.

MATERIAL VA METOD

Qishloq xo‘jaligiga investitsiya qo‘yilmalarining bir necha turlari mavjud. Masalan qishloq xo‘jaligi fondlari. Bu fondlar qishloq xo‘jaligi yerlarini sotib olish va boshqarish uchun bir nechta investorlarning resurslarini to‘playdi, diversifikatsiya

va professional boshqaruvni ta'minlaydi. Agrobiznes aksiyalarini ham alohida aytish kerak. Ya'ni qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, o'simlik urug'lari, o'g'itlalarini ishlab chiqaruvchilar va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi kompaniyalarning aksiyalariga investitsiya kiritish qishloq xo'jaligi sanoatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bular bilan birgalikda qishloq xo'jaligi sanoati uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiquvchi startup loyihalarga sarmoya kiritish, nozik dehqonchilik, biotexnologiya va avtomatlashtirilgan mashinalar hamda yuqori o'sish potensialini ta'minlaydi. Undan tashqari bir nechta omillar bu sanoatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, tuproqning unumdorlik quvvati pastlab ketishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi muammolar hosildorlik miqdorini o'zgarishiga olib keladi. Investorlar ushbu ekologik omillarni hisobga olishlari va oqibatini o'ylab investitsiya yo'naltirishlari zarur. Qolaversa qishloq xo'jaligi sanoatini rivoj toptiruvchi muvaffaqiyatli investitsiya strategiyalari ham mavjud. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. Agrosanoat majmuasining negizida dunyo aholisining doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bialn ta'minlash vazifasi yotadi. Yo'naltirilayotgan investitsiyalar ilg'or dehqonchilik texnikasini o'zlashtirish, urug' navlarini yaxshilash va samarali sug'orish tizimlarini joriy etish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshiradi. Hosildorlikni oshirish va yig'im-o'rimdan keyingi yo'qotishlarni kamaytirish orqali bu investitsiyalar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi.

Iqtisodiy rivojlanish va bandlik. Agrosanoat kompleksi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu sohaga yo'naltirilayotgan sarmoyalar nafaqat fermer xo'jaliklarida balki oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, tarqatish va chakana savdoda mavjud ish o'rinlarini yaratadi. Kuchli agrosanoat infratuzilmasini rivojlantirish orqali mamlakatlar aholini ko'p qismini ish bilan ta'minlashlari va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishlari mumkin. Qolaversa, investitsiyalar eksportni rivojlantirishlari orqali shundan tushadigan tushumlarni oshirishi va milliy iqtisodiyotni yanada mustahkamlashga hissa qo'shishi tabiiy.

Texnologik innovatsiyalar va samaradorlik. Agrosanoat majmuasida ilmiy tadqiqot va amaliyotlarga investitsiya kiritish samaradorlik va barqarorlikni oshiruvchi zamonaviy texnologiyalar sonini ohiradi. Dehqonchilik va chorvachilikda oshirilayotgan amaliyotlar, yangidan-yangi innovatsion loyihalar fermerlarga resuslardan oqilona foydalanishni hamda hosildorlikni oshirishni ta'minlamoqda. Bunday innovatsiyalar hosilni yetishtirishdagi xarajatlarni ozaytiribgina qolmay,

ekologik muammolarni ham kamayishiga va uzoq muddatli barqororlikni tashkil etishga hissa qo'shmoqda.


Diversifikatsiya va qiymat qo'shish. Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni diversifikatsiya qilishda shuningdek qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir. Bu nafaqat fermerlarning daromadi oshishiga balki qishloq xo'jaligi sektorining raqobatbardoshligini ortishiga xizmat qilmoqda. Qayta ishlash, qadoqlash va brendlash orqali qo'shilgan qiymat ichki va tashqi bozorda bellashish uchun imkoniyalar yaratadi qolaversa iqtisodiy o'sishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

